

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INOVATSIYA VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“YARIMO'TKAZGICHLAR FIZIKASI”**

**o'quv-qollanma**

**Guliston-2024**

Gaymnazarov Q.G.Usmonov Sh.N.

Yarimo'tkazgichlar fizikasi

o'quv qo'llanma.

O'quv qo'llanma universitet 60530900 Fizika bakalavriat kunduzgi ta'lim yo'naliishi talabalari va pedagogika universitetlari Fizika mutaxassisligi uchun mo'ljallangan. - Yarimo'tkazgichlar fizikasi

Nazariy savollar talabaga ma'lum bir mavzu bo'yicha masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan muammolarga yo'naltirish uchun beriladi.

Asosiy formulalar ko'pincha muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan nisbatlar shaklida taqdim etiladi. Masalalarni yechishning keltirilgan namunalari ularni yechish metodikasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ushbu o'quv qo'llanmada yarimo'tkazgichlarning tuzilishi va strukturasida, qattiq jismning energetik zonalari nazariyasi, qattiq jismdagi zaryad tashuvchilar statistikasi, yarimo'tkazgich materiallar kristall panjarasining nuqsonlari turlari, yarimo'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligining fizik mexanizmlari, yarimo'tkazgichlardagi qutblanish hodisalari yarimo'tkazgich materiallar parametrlariga tashqi muhitning ta'siri, dielektrikning tuzilishi va strukturasi, dielektriklardagi kinetik, termik, optik va magnitik hodisalar, dielektriklarning optik, fotoelektrik va diffuziyaviy hossalari haqida; dielektriklardagi diffuziyaviy, termik va fotoelektrik hossalaring umumiyligi qonuniyatlarini, dielektrik materiallardagi hajmiy va sirtiy diffuziyaviy nuqsonlar hosil bo'lish jarayonlari, bo'linishning ochiq va yashirin chegaralaridagi fizikaviy jarayonlar hahida yozilgan.

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, va 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari ta’lim sohasiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar va tadbirlarni bajarishda ma‘lum darajadi hizmat qiladi.

Ushbu o‘quv qo’llanma bakalavr ta’limi bosqichining fizika yo’nalishi talabalari uchun rejalashtirilgan bo’lib, ihtisoslik fanlari tarkibiga kiradi. Yarimo’tkazgichlar va dielektriklar fizikasi fani fizika sohasining o’ta dolzarb muammolariga tegishli bo’lib, yarimo’tkazgichlar va dielektriklardagi fizik xodisalarning asosiy konuniyatlari bilan tanishtirishdir.

Ushbu fanning vazifasi talabalarda kelajakda mustaqil ilmiy tadqiqot va amaliy ishlab chiqarish jarayonlarida yarimo’tkazgich materiallarni fizik va kimyoviy hossalari bo‘yicha ajrata bilish, ish vazifasi talablarga mos keluvchi yarimo’tkazgich asboblarning hossa va parametrlarini nazariy hisoblay bilish va yarata olish va malakalarini hosil qilishdan iboratdir. Fizikaning zamonaviy holati, yarimo’tkazgichlarning tuzilishi va strukturasi, qattiq jismning energetik zonalari nazariyasi, qattik jismdagi zaryad tashuvchilar statistikasi, yarimo’tkazgich materiallar kristall panjarasining nuqsonlari turlari, yarimo’tkazgichlar elektr o’tkazuvchanligining fizik mexanizmlari, yarimo’tkazgichlardagi qutblanish hodisalari, yarimo’tkazgich materiallar parametrlariga tashqi muhitning ta’siri, dielektrikning tuzilishi va strukturasi, dielektriklardagi kinetik, termik, optik va magnitik hodisalar, dielektriklarning optik, fotoelektrik va diffuziyaviy hossalari, dielektriklardagi diffuziyaviy, termik va fotoelektrik hossalarning umumiyligi qonuniyatlari, dielektrik materiallardagi hajmiy va sirtiy diffuziyaviy nuqsonlar hosil bo’lish jarayonlari haqida; bo’linishning ochiq va yashirin chegaralaridagi fizikaviy jarayonlar haqida tasavvurlarga ega bo’lishi kerak.

Kursni yaxshi o’zlashtirishi uchun elektr kursi, kvant mexanikasi va statistik fizikaning bo’limlari, shuningdek oliy matematikaning zaruriy bo’limlari bo‘yicha etarli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak. Kursning katta qismini auditoriyadan tashkari ishlar tashqil etadi. Bundan tashkari ushbu dastur o’z ichiga kamrab olgan amaliyot mashgulotlarini o’tkazish uchun talaba zamonaviy o’lchov apparaturalari bilan tanish bo’lishi va elektrik o’lchovlar o’tkaza olish ko’nikmasiga ega bo’lishi talab etiladi.

## I-BOB

### **Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi fanining predmeti, vazifasi va manbalari**

#### **1.1. «Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi» fani. Fanning maqsadi. Fannning vazifasi.**

Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi fani fizika soxasining o'ta dolzARB muammolariga tegishli bo'lib, yarimo'tkazgichlar va dielektriklardagi fizik hodisalarning asosiy qonuniyatlari bilan tanishtirishni nazarda tutiladi.

Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi fanining maqsadi yarimo'tkazgichlar va dielektriklardagi fizik hodisalarning asosiy qonuniyatlari bilan tanishtirishdir.

Ushbu fanning vazifasi talabalarda kelajakda mustaqil ilmiy tadqiqot va amaliy ishlab chiqarish jarayonlarida yarimo'tkazgich materiallarni fizik kimyoviy xossalari bo'yicha ajrata bilish, ish vazifasi talablarga mos keluvchi yarimo'tkazgich asboblarning xossa va parametrlarini nazariy xisoblay bilish va yarata olish o'quv va malakalarini hosil qilishdan iboratdir.

**1.2. Fizika bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda fanning tutgan o'rni.**  
**Predmetlararo boglanishg.** Bo'lajak fizik bakalavrlari «Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi» fani chegarasida *ishlab chikarish soxasida*: zamonaviy elektron va yarimo'tkazgich texnikasi, elektron boshqaruvga ega bo'lgan maishiy texnik servis xizmati ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatishni, yuqori texnik iqtisodiy va energetik ko'rsatkichlarni ta'minlovchi yarimo'tkazgich asbobli jixozlar, qurilmalari va texnologik majmualarni avtomatlashtirilgan tizimlarni samarali ishlatishni o'rganishlari zarur. Shu jixatdan «Yarimo'tkazgichlar fizikasi» o'quv fani ushbu yo'nalish bo'yicha malakali fiziklar tayyorlash tizimining ajralmas bo'gini xisoblanadi.

**1.3. Hozirgi zamon fan va texnikasida yarimo'tkazgichlar va dielektriklarning o'rni.** Yarimo'tkazgichlarni muhim elektrofizik xususiyatlari tufayli, ular turli xil asboblar yasashda keng qo'llaniladi. Yarimo'tkazgichli asboblar tokni to'g'rilashda (diodlar), tebranishlarni generatsiyalash va kuchaytirishda (tranzistorlar), issiqlik va nurlanish energiyasini elektr energiyasiga

aylantirishda (termoelementlar va fotoelementlar), elektr energiyasini yoruglik energiyasiga aylantirishda (fosforlar, svetodiodlar, lazerlar), temperaturani ulchovchi datchiklar (termistorlar), yoruglik va korpuskulyar nurlanishlarni qayd qilishda (foterezistorlar va dozimetrlar), bosimni (tenzodatchiklar) va magnit maydonlarni (Xoll datchiklari) o'lchashda qo'llaniladi.

Xar bir asbobni ishi asosida ma'lum bir fizik hodisa yotadi. Shuning uchun yarimo'tkazgichlar fizikasi yarimo'tkazgichlar elektronikasini nazariy asosi xisoblanadi. Yarimo'tkazgich moddalarni yaratish, ular asosida asboblarni yangi ko'rinishlarini yasash, yuqori sifatli yarimo'tkazgich asboblар va integral sxemalar ishlab chiqarish yarimo'tkazgichlar fizikasi soxasida muxim bilimlarni o'rganishni talab kiladi.

#### **1.4. Moddalarni elektrik xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyasi**

Tabiatda hamma moddalalar elektrofizik xususiyatlari bo'yicha uchta katta sinfga ajratiladi: metallar, yarimo'tkazgichlar va dielektriklar.


Yarimo'tkazgichlar fizikasi XX-asrning birinchi yarmida, to'g'irogi 40-yillarda paydo bo'lган fandir. Moddalarni ularning elektr o'tkazuvchanligiga qarab guruxlarga ajratishda, akademik A.F. Ioffe birinchi marta yarimo'tkazgich moddalalar tushunchasini kiritdi.

Yarimo'tkazgichlar boshqa moddalardan quyidagi xususiyatlar bilan farq qiladi:

1)Elektr o'tkazuvchanlikni musbat temperaturaviy koeffisienti; 2) Yarimo'tkazgichlar solishtirma o'tkazuvchanligini metallarga nisbatan kichikligi, izolyatorlarga nisbatan kattaligi; 3)Toza yarimo'tkazgichlarda tok tashuvchilar kontsentratsiyasini metallarga nisbatan juda kichikligi va temperaturaga kuchli bog'liq bo'lishi; 4) Metallarga nisbatan termo E.Yu.K ni qiymatini katta bo'lishi; 5) Yoruglikka va ionlantiruvchi nurlanishga nisbatan yuqori sezgirlik; 6) Kichik kontsentratsiyadagi aralashmalar ta'sirida ham o'z xususiyatlarini keskin o'zgartirish qobiliyatini mavjudligi; 7) tokni to'g'rilash effektini mavjudligi.

Metallarda solishtirma qarshilikning qiymati  $10^{-6}$ - $10^{-4}$  Om.sm, yarimo'tkazgichlarda  $10^{-4}$ - $10^{10}$  Om.sm , dielektriklarda  $10^{10}$  Om.sm dan katta qiymatlarni qabul qiladi.

Solishtirma qarshilikning temperaturaga bog'lanishini o'rganishda metallar va yarimo'tkazgichlar orasidagi farq yaqqol namoyon bo'ldi. Ayrim metall va yarimo'tkazgichlarni solishtirma qarshiliklarini tempraturaga bog'lanish grafiklari 1.1-rasmda keltirilgan.



**1.1-rasm**

Yarimo'tkazgich moddalar uchun solishtirma qarshilik va solishtirma o'tkazuvchanlikni temperaturaga bog'lanishi xarakteri quyidagichadir:

$$\rho = \rho_0 e^{\frac{\beta}{T}} \quad (1.1)$$

$$\sigma = \sigma_0 e^{-\frac{\beta}{T}} \quad (1.2)$$

Yarimo'tkazgichlarda solishtirma o'tkazuvchanlik temperatura pasayishi bilan kamayadi, absolyut nol temperaturaga yaqinlashgan sari yarimo'tkazgichlar hossalariga ko'ra dielektriklarga yaqinlashadilar. O'tkazuvchanlikni temperaturaviy koeffitsienti yarimo'tkazgichlarda musbat bo'ladi. Bundan kelib chikadiki, yarimo'tkazgichlarda erkin zaryad tashuvchilar unga issiqlik energiyasi berilganda hosil bo'ladi. Bu zaryad tashuvchilar **issiqlik** yoki **muvozanatiy zaryad tashuvchilar** deyiladi. Tajribalar ko'rsatadiki, yarimo'tkazgichlarda erkin zaryad tashuvchilar temperaturadan tashqari yoritganda, yadroviy zarrachalar bilan nurlantirganda, yarimo'tkazgichga elektr maydon berilganda, tashqi bosimni o'zgartirganda ham hosil bo'ladi. Bunday hollarda hosil bo'ladigan erkin zaryad tashuvchilar **nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar** deyiladi. Muvozanatiy va nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni hosil bo'lish jarayoni yarimo'tkazgich moddani strukturasi va undagi aralashmalar mavjudligiga kuchli bog'liqdir.

Yarimo'tkazgichlardagi hamma termoelektrik hodisalar (Tomson effekti, Zeebek effekti, Pelte effekti), shuningdek galvanomagnit va termomagnit hodisalar metallarga nisbatan kuchli namoyon bo'ladi. Yarimo'tkazgichlarda elektro'tkazuvchanlik yoruglik va nurlanish ta'sirida bir necha tartibga ortishi mumkin. Undan tashkari, elektron-kovak o'tishda sezilarli foto e.yu.k hosil bo'ladi. Yarimo'tkazgichlarni xususiyatlari aralashmalar miqdoriga va stexiometrik tarkibga kuchli bog'liq.

Metall bilan yarimo'tkazgich yoki yarimo'tkazgich bilan yarimo'tkazgich chegarasidagi kontakt hodisalar muhim ahamiyatga ega. Metallardan farqli ravishda bu kontaktlar omik hisoblanmaydi. Ko'pgina yarimo'tkazgich asboblarni ishi elektronli va kovakli yarimo'tkazgich chegarasidagi kontakt hodisalardan foydalanishga asoslangan.

Demak, yarimo'tkazgichlar shunday moddalarki, ularni solishtirma qarshiliği modda strukturasiga, aralashmalar miqdori va turiga, tashqi sharoitlar:

temperatura, bosim, yoritilish, nurlanish, elektr maydon, magnit maydonga bog'liq bo'ladi.

Metallarda esa o'tkazuvchanlik aralashmalar mavjudligiga, tashqi sharoitga kuchsiz bog'liq bo'lib, istalgan temperaturada undagi erkin elektronlar kontsentratsiyasi o'zgarmas va  $10^{22}$  sm<sup>-3</sup> ni tashqil qiladi. Metallar va yarimo'tkazgichlar orasidagi muhim farqlardan yana biri, ikki yarimo'tkazgichdan iborat zanjir orqali elektr toki o'tganda tok kuchi zanjirga qo'uyilgan potentsiallar farqiga nochiziqli bog'liq bo'ladi.

Yarimo'tkazgich moddalar xuddi o'tkazgichlarga o'xshab, elektronli va ionli bo'ladi. Elektronli yarimo'tkazgichlarga oddiy moddalar: bor V, uglerod S, kremniy Si, fosfor R, oltingugurt S, germaniy Ge, mishyak As, kalay Sn, surma Sb, selen Se, tellur Te, yod I va boshqa InSb, GaAs, InP va boshqa murakkab ximiyaviy birikmalar kiradi. Noorganik moddalardan tashqari yarimo'tkazgich xususiyatiga benzol, naftalin, antratsen, naftatsen, koronen kabi organik moddalar ham ega bo'ladi.


Oddiy yarimo'tkazgich kremniy misolida elektro'tkazuvchanlik mexanizmini ko'rib chiqamiz. Yarimo'tkazgichlarni fizik xususiyatlari ular tashqil topgan atomlarni valent qobiqlari strukturalari bilan bog'liqdir.

Atom fizikasidan ma'lumki, istalgan elementni atomi Ze zaryadli musbat yadrodan va chiziqli o'lchami uzlusiz ortib boruvchi qobiqlarda joylashgan Z elektronidan iborat. Birinchi qobiq K-qobiq, ikkinchisi L-qobiq, uchinchisi M-qobiq va hakozo deb ataladi.

K-qobiq s bilan belgilanadigan bitta qobiqchadan, ikkinchi L qobiq s va p qobiqchalardan, M qobiq s, p va d qobiqchalardan iborat. Qobiqchalar bir-biridan konfiguratsiyalari bilan farq kiladi. Xar bir qobiqcha, ikkinchidan boshlab, bir-biridan fazodagi orientatsiyasi bilan farq qiladigan qator orbitalardan iborat; birinchi s qobiqcha qarama-qarshi spinli ikkita elektron xarakatlanadigan bitta orbitadan iborat. Ikkinci p qobiqcha xar birida ikkitadan elektron joylashadigan uchta orbitadan iborat, d qobiqcha 10 ta elektron joylashadigan beshta orbitadan iborat. Qobiq nomeri bosh kvant soni deyiladi va n bilan belgilanadi. Bosh kvant soni elektronni ma'lum bir xolatdagi energiyasini aniqlaydi. Qobiqcha nomeri esa orbital kvant soni deyiladi va 1 bilan belgilanadi. Orbital kvant soni orbita ekstsentrositeti va unda xarakatlanadigan elektronni orbital xarakat miqdori momentini aniqlaydi. Xarakat miqdori momentini biror o'qqa proektsiyasi magnit kvant soni bilan aniqlanadi.

Bu kvant soni m bilan aniqlanadi. Elektronni xususiy xarakat miqdori momenti spin deb ataluvchi kvant soni bilan aniqlanadi. Pauli printsipi yordamida bitta qobiqda  $2n^2$  elektron, bitta qobiqchada  $2(2l+1)$  elektron joylashishi aniqlangan.

Kremniyda elektronlar xolatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:



Bu atomlarda tashqi elektron qobiq qisman to'ldirilgan bo'lib, unda 4-ta elektron mavjud. Kristall hosil bo'lishida, xar bir atomni 4-ta valent elektroni  $3s^2 3p^2$  xolatdan  $sp^3$  gibrildi. Xolatga juftlanmagan spinlar bilan o'tadi va 4-ta fazoviy bog'lanish hosil qiladi. Natijada xar bir atom 4-ta yaqin qo'shni atomlar bilan bog'lanadi va tetraedr markazida joylashadi. Kristall panjarani almazsimon tipi hosil bo'ladi. U kubik panjara xisoblanadi. Bu panjarada xar bir atomni 4-ta tashqi elektroni kovalent bog'lar hosil qilishda ishtirok qiladi. Kristall panjara tugunida Q4 zaryadli musbat Si ioni joylashadi.

Metallarda temperatura ortishi bilan solishtirma qarshilik  $T$  temperaturaga mutanosib ravishda ortib boradi, solishtirma o'tkazuvchanlik esa kamayadi, ya'ni

$$\rho = \rho_o (1 + \alpha T) = \frac{\rho_0}{T_0} T \quad (1.3)$$

Bu erda,  $\rho_0$ -  $0^\circ\text{S}$  da berilgan metallni solishtirma qarshiligi,  $\alpha$  - qiymati  $1\text{G}'$   $273$  ga teng bo'lgan qarshilikning temperaturaviy koeffitsienti.

Metallar solishtirma o'tkazuvchanligini temperatura pasayishi bilan ortishi metallarda temperaturaga bog'liq bo'lмаган xolda erkin elektronlar mavjudligi bilan tushuntiriladi. Metallar solishtirma qarshilikining temperaturaga bog'lanish xarakterining muhim xususiyatlaridan biri o'tkazuvchanlikni temperaturaviy koeffitsienti ularda manfiy bo'ladi, ya'ni kichik  $T_1$  temperaturadagi  $\sigma_1$  solishtirma o'tkazuvchanlikni yuqoriroq  $T_2$  temperaturadagi  $\sigma_2$  solishtirma o'tkazuvchanlikdan katta bo'lishidir. Metallarni umumiylashtirish mumkin. Metallni kristall panjarasi tugunida atomlar joylashadi. Valent elektronlar butun kristallga tegishli bo'ladi va ular bir vaqtin o'zida o'tkazuvchanlik elektronlari ham xisoblanadi.

Yigirmanchi asr boshida Drude va Lorentz metallarni o'tkazuvchanlik elektronlariga gazlarni kinetik nazariyasini qo'lladi va elektron gaz to'g'risidagi tasavvurlarni kiritdi. Erkin elektronlarni bu nazariysi Ohm qonunini va elektro'tkazuvchanlikni issiqliko'tkazuvchanlik bilan bog'lanishini, ya'ni Videman-Frants qonunini yaxshi tushuntiradi. Lekin bu nazariya qattiq jismlarda sodir bo'ladigan qator hodisalarini asoslay olmaydi. Masalan, nima uchun qattiq jismlar o'zlarining elektr xususiyatlari bo'yicha metallarga, izolyatorlarga, yarimo'tkazgichlarga bo'linishini bu nazariya bo'yicha tushunish qiyin. Buning uchun elektronlarni kristall panjara maydonidagi holatini qarab chiqish zarur. Qattiq jismlarni kvant nazariyasi elektronlarni kristall panjara bilan o'zaro ta'sirini qarash asosida moddalarni elektr xususiyatlaridagi farqni tushuntirishga imkon beradi.

**1.5. Qattiq jismlar zonaviy nazariyasi asoslari.** Xar qanday qattiq jism juda ko'p sondagi atomlardan tashqil topadi. Ideal kristall panjara tugunlarida atom yadrolari davriy ravishda joylashadi. Demak qattiq jism ko'p zarrali sistemadir. Ideal davriy kristall panjarani  $V(r)$  potentsial maydonida elektronlar xolatini kvantomexanik nuqtai nazardan qarab chiqamiz. Buning uchun Shredenger tenglamasini echish kerak. Statsionar holat uchun Shredenger tenglamasi quyidagicha k o'rinishga ega:

$$\hat{H}\psi = E\psi \quad (1.4)$$

bu erda  $\hat{H}$ -sistema( kristall)ning to'la energiya operatori yoki Gamilton operatori,  $E$ -kristallning xususiy energiyasi,  $\psi$ -to'lqin funksiya.

$|\psi|^2 dV$  – fazoni  $dV$  hajm elementida elektronni topilish extimolligini,  $e|\psi|^2$  - tegishli zaryad zichligini bildiradi.

Gamilton operatori 5 ta hadning yigindisidan iborat:

1)  $\hat{K}$  -Elektronlarning kinetik energiya operatori.

$$\hat{K} q \sum_i \frac{\hat{p}_i^2}{2m_0} = \sum_i \left( -\frac{\hbar^2}{2m_0} \Delta_i \right) \quad (1.5)$$

Bu erda,  $\hat{p} = -i\hbar\nabla$  -impuls operatori,  $\hat{p}_x = -i\hbar \frac{\partial}{\partial x}$ ,  $\hat{p}_y = -i\hbar \frac{\partial}{\partial y}$ ,  $\hat{p}_z = -i\hbar \frac{\partial}{\partial z}$  - impuls operatori proektsiyalari,  $\Delta_i = \frac{\partial^2}{\partial x_i^2} + \frac{\partial^2}{\partial y_i^2} + \frac{\partial^2}{\partial z_i^2}$  -  $i$  elektron uchun Laplas operatori.  $m_0$  – elektron massasi

2)  $\hat{T}$  -Yadrolarning kinetik energiya operatori.

$$\hat{T} q \sum_i \left( -\frac{\hbar^2}{2M_\alpha} \Delta_\alpha \right) \quad (1.6)$$

Bu erda  $\Delta_\alpha = \frac{\partial^2}{\partial x_\alpha^2} + \frac{\partial^2}{\partial y_\alpha^2} + \frac{\partial^2}{\partial z_\alpha^2}$  –  $\alpha$  yadro uchun Laplas operatori.  $M_\alpha$  – yadro massasi

3)  $\hat{U}$  -Elektronlarning o'zaro ta'sir potentsial energiya operatori.

$$\hat{U} q \frac{1}{2} \sum_i \sum_j \frac{e^2}{r_{ij}} \quad , \quad i \neq j \quad (1.7)$$

4)  $\hat{V}_0$  - Yadrolarning o'zaro ta'sir potentsial energiya operatori.

$$\hat{V}_0(R_1, R_2, R_3, \dots, R_N) \quad (1.8)$$

5)  $\hat{U}$  -Elektronlar va yadrolarning o'zaro ta'sir potentsial energiya operatori.


$$U(r_1, r_2, r_3, \dots, r_n, R_1, R_2, R_3, \dots, R_N) \quad (1.9)$$

Gamilton operatori xadlarini xisobga olsak, (1.5) ifodadagi erkin o'zgaruvchilar soni kristalldagi zarralarning to'la soni bilan aniqlanadi. Bunday masalani echish matematik jixatdan juda murakkab, masalani faqat ketma-ket yaqinlashishlar yordamida taqriban echish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Shredinger tenglamasini aniq echimini topmasdan ham, etarlicha asoslangan taqribiy xisoblashlar bilan ham qattiq jismning barcha muhim hossalarini tushuntirish mumkin.

**1.6. Qattiq jismlardagi kimyoviy bog'lanish turlari.** Ximik bog'lanishlar nazariyasi qattiq jismlarni elektron tuzilishi muammolarini xal qilishda asosiy ahamiyatga ega. Kristall atomlari orasidagi o'zaro ta'sirning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz.

1.2 rasmida ikki atomni o'zaro ta'sir potentsial energiyasini ularni yadrolari orasidagi  $R$  masofaga bog'lanishi keltirilgan. 1 xolda energiya hama erda musbat va masofa ortishi kamayishi bilan ortadi. Bu shuni bildiradiki,  $R$  ni istalgan qiymatida atomlar orasida itarishish kuchlari ta'sir qiladi, molekula hosil bo'lishi mumkin emas. 2 xolda qandaydir  $R_0$  masofada potentsial energiya minimum qiymatga erishadi. Bu xolda ikki atomli turg'un molekula hosil bo'lishi mumkin.

2 tipdagi potentsial energiya chizigi ikkita qo'chni: tortishish va itarishish kuchlarini mavjudligidan hosil bo'ladi deb qarash mumkin. To'lik potentsial energiya ikkita yig'indidan: musbat  $U_{itar}$  (masofa ortishi bilan keskin kamayadigan) va manfiy  $U_{tort}$  (masofa kamayishi bilan sekin kamayadigan) energiyalardan tashqil topadi.



## 1.2 rasm

Atomlar orasidagi ximik bog'lanishlarni quyidagi asosiy turlari mavjudligi aniqlangan:

- a) ionli yoki geterobog'lanish


b) kovalent yoki gomeopolyar bog'lanish.

v) Van-der-vaals bog'lanishi.

g) metall bog'lanish.

Tipik yarimo'tkazgichlarda dastlabki ikkita bog'lanish muhim rol o'ynaydi.

**Ion bog'lanish** xolida tortishish kuchlari-kulon elektrostatik kuchlardir. Shu bilan birga qarama-qarshi ionlar bir-biriga tortilib etarli darajada yaqinlashganda ularning elektron qobiqlari bir-biriga kirisha boshlaydi va shu qobiqlar orasida itarishish kuchlari ham paydo bo'ladi. Kristallda bunday tip bog'lanish ,masalan, NaCl molekulalarida uchraydi. 1.3 rasmda NaCl kristall panjarasini kubik elementar yacheykasi tasvirlangan.



### 1.3 rasm

Bu elementar yacheyka bir-biriga nisbatan siljigan, bittasi natriyni musbat ionlaridan va ikkinchisi xlorni manfiy ionlaridan tuzilgan, yoklari markazlashgan ikkita kubik panjaradan iboat.

Natriy metalli quyidagi elektron strukturaga ega:  $Na^{11}$ :  $(1s)^2(2s)^2(2p)^6(3s)^1$

Xlorni elektron strukturası:  $Cl^{17}$ :  $(Ne)^10(3s)^2(3p)^5$


Bunday molekula hosil bo'lishida natriyni yagona 3s valent elektroni 3p gruppasi to'lishi uchun bitta elektron etishmayotgan xlor atomiga o'tadi, natijada  $Na^+$  va  $Cl^-$  ionlari hosil bo'ladi va ular bir-biri bilan tortishadi. Elektronni bunday o'tishi energetik jixatdan ham qulay, chunki,  $Na^+$  va  $Cl^-$  ionlaridan iborat sistemani umumiy energiyasi Na va Cl neytral atomlardan iborat sistemanikiga qaraganda kichik.

Ion **bog'lanishli** kristallarda tugunda ion joylashgan bo'ladi. Mazkur ion atrofidagi qarama-qarshi ishorali eng yaqin ionlar soni  $R$  koordinatsion son deyiladi. NaCl kristallida xar bir musbat ion atrofida manfiy ishorali 6 ta eng yaqin qo'shni ion joylashadi. Demak, mazkur xolda, koordinatsion son 6 ga teng.

Ion **bog'lanishli** kristallar xona temperaturasida izolyator xisoblanadi. Ishkoriy metallar valent s-elektronlari galogen atomlariga o'tib, kristallda ular bilan mustaxkam **bog'lanish** hosil qiladi. Temperatura ko'tarilishi bilan bunday kristallarda sezilarli ionli o'tkazuvchanlik paydo bo'ladi.

**Gomeopolyar bog'lanish** bir xil, zaryadlanmagan atomlar orasida amalga oshadi. Vodorod molekulasining hosil bo'lishi bunga misol bo'ladi.

Vodorodni asosiy xolatdagi ikkita atomini ko'raylik. Vodorod atomi xaqidagi masalani echimidan ma'lumki, bu xolda xajmiy zaryad zichligi taqsimoti xar bitta atomda sferik simmetriyaga ega. (1.4 rasm)



**1.4 rasm**


Xar bir atom bu xolda qandaydir  $E_0$  energiyaga ega, u xolda, sistemani to'la energiyasi  $2E_0$  ga teng.

Xar bir atom tarkibiga kiruvchi elektronlar va yadrolar orasidagi o'zaro ta'sir natijasida elektron zichlik taqsimoti o'zgaradi, va sistemani to'liq energiyasi  $E = 2E_0 + U(R)$  ga teng bo'ladi.  $U(R)$ -zaryadlarni kulon o'zaro ta'sir energiyasi.

Agar elektronlar spinlari bir-biriga parallel bo'lsa, o'zaro ta'sirni to'la energiyasi 1 ko'rinishdagi chiziq bilan tasvirlanadi. (1.2-rasm)

Bunday sistemani elektron buluti 1.5-rasmda tasvirlangan. Bu xolda atomlar orasida zaryad zichligi minimumga ega va manfiy zaryad xar bir yadroni yaqinida lokallashgan bo'ladi. O'zaro ta'sir energiyasi xar doim musbat, natijada vodorodni ikki atomi bunday xolda itarishadi.

Agar ikkala spin antiparallel bo'lsa,  $U(R)$  bog'lanish 2 chiziq bilan tasvirlanadi. (1.4 ris).  $U(R)$  minimumga ega bo'ladi. Bu esa  $R = R_0$  da  $H_2$  turgun molekula hosil bo'lishi mumkinligini bildiradi. Bu xol uchun zaryad zichligi teng chiziqlar 1.5,b-rasmda tasvirlangan. Bu xolda ikkala atomni elektron bulutlari ikkala yadroni ham qamrab oladigan xajmiy zaryadni bir butun bulutini hosil qiladi.




**1.5 rasm**

Gomopolyar bog'lanishni muhim xususiyatlaridan biri uning to'yinganligidir, ya'ni bunday bog'lanishda ikkitadan ortik elektron qatnasha olmasligidir. Shuning uchun uchinchi  $H$  atomi  $H_2$  molekuladan itarishadi.


Gomopolyar bog'lanishni boshqa bir xususiyati fazoviy yo'nalgaligidir. Buning sababi, valent elektronlar hosil qiladigan natijaviy elektron bulut sferik emas, balki ma'lum bir yo'nalishda cho'zilgan. Boshqa tomondan, gomopolyar bog'lanish vujudga kelishi uchun o'zaro ta'sirlashuvchi atomlarni elektron bulutlari o'zaro ustma-ust tushishi kerak.

Gomopolyar bog'lanish yarimo'tkazgich kristallarda ham, masalan, davriy sistemani 4-chi gurux elementlari- almaz, kremniy, germaniyda uchraydi. Ular kubik kristall panjara tuzilishiga ega. Almazni elementar yachevkasi yoklari markazlashgan kub bulib, uni ichida yana 4-ta atom bo'ladi. Bu ichki atomlarni kubni fazoviy diagonali yo'nalishida diagonal o'zunligini  $\frac{1}{4}$  qismiga teng masofaga yacheykani tashqi atomlarini siljitganda hosil qilish mumkin. Boshqacha aytganda, almaz panjarasini bir-biriga nisbatan siljigan ikkita yoklari markazlashgan kubik panjara sifatida tasavvur qilish mumkin. Bir yoklari markazlashgan yachevkada atomlar soni 4, shuning uchun almaz strukturasini kubik elementar yachevkasida atomlar soni 8 ga teng. (1.6 rasm)




**1.6 rasm**

Kremniy kristallida xar bir atom atrofida 4-ta qo'shni atom bo'ladi. Bu qo'shnilar tetraedr uyalarida, mazkur atom esa tetraedr markazida joylashadi. (1.7 rasm). Kristallni xar bir atomi o'zining 4-ta qo'shni bilan 4-ta valent elektroni vositasida bog'langan bo'ladi, bunda xar ikki qo'shni atomning bittadan valent elektroni ular orasida umumiyl ikki elektronli bog'lanishni, ya'ni kovalent **bog'lanishni** hosil kiladi.



### 1.7 rasm

Ko'pgina ximiyaviy birikmalarni kristallarida ion va gomopolyar bog'lanishni oraliq ko'rinishi bo'lgan aralash bog'lanish mavjuddir. Bunday bog'lanishli kristallarga uchinchi va beshinchi gurux elementlarini  $A^3B^5$  birikmalari misol bo'ladi:  $InSb$ ,  $GaAs$ ,  $GaP$ . Bunday kristallarda atomlarni joylashishi almaznikiday, ya'ni xar bir atom t o'rtta yaqin qo'shniga ega.  $In$  atomi 3 ta valent elektronga,  $Sb$  atomi 5 ta valent elektronga ega, demak, xar bir juftlikda 8 ta elektron. Bu esa juft elektronli **bog'lanish** hosil qilish uchun etarli. Lekin, bu erda ikkala komponentani atomlari turlichay bo'lgani uchun elektron bulut nosimmetrik. Shuning uchun  $In$  va  $Sb$  atomlari mos ravishda manfiy va musbat zaryadlarga ega va atomlar orasidagi ximiyaviy **bog'lanish** qisman ionli, qisman gomopolyar. (1.8 rasm)



### 1.8 rasm

**Van-der-vaals bog'lanishli** kristallar panjarasi tugunlarida molekulalar joylashadi. Ular o'zaro Van-der-Vaals kuchlari vositasida ta'sirlashadi.

Agar moddaning molekulalari qutbli bo'lsa, ya'ni dipollardan iborat bo'lsa, ular orasidagi o'zaro ta'sir **orientatsion o'zaro ta'sir** deyiladi. Orientatsion o'zaro ta'sir temperatura ortishi bilan kamayadi.

Kristallar qutbsiz molekulalardan tashqil topgan bo'lsa, ular tashqi elektr maydonining ta'sirida qutblanishi mumkin, bunda molekulalar induksion elektr

momentlarga ega bo'ladi va ular ham ta'sirlashadi. Bu o'zaro ta'sir temperaturaga bog'liq emas.

Agar neytral molekulalar bir-biriga etaricha yaqin joylashsa ular orasida almashinuv o'zaro ta'sir kuchlari paydo bo'ladi. Bu o'zaro ta'sir dispersion o'zaro ta'sir deyiladi. Van-der-Vaals kuchlari elektrostatik kuchlarga nisbatan juda qisqa masofalarda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Elektrostatik kuchlar zaryadlangan zarralar orasidagi masofaning kvadratiga teskari proportsional bo'lsa, Van-der-Vaals kuchlari  $r^{-7}$  ga proportsional ravishda o'zgaradi. Yuqorida aytilganlardan kelib chikadiki, molekulyar o'zaro ta'sir ancha past temperaturalarda mavjud bo'ladi.

**Molekulyar bog'lanishli** kristallarga geliy, argon, kripton, ksenon misol bo'ladi.

**Metall bog'lanishli** kristallarga natriy kristalini misol qilish mumkin Uni bitta valent elektroni bo'lib, u kristall hosil bo'lishida o'z atomidan ajralib, ularni musbat ionlarga aylantiradilar va o'zлari panjara ichida erkin xarakat qiladi. Metall bog'lanishli kristallar tugunlarida elektronidan ajralgan musbat ionlar joylashadi. Bunday kristallar katta elektr o'tkazuvchanlik, yoruglikni yo'tish qobiliyati kabi qator hossalarga ega.

### **1.7. Yarimo'tkazgichlar va dielektriklarning kristallik strukturasi. Brillyuen zonalari.**

Qattiq jismlar ularni tashqil qilgan zarralarning joylashish tartibiga qarab, kristall va amorf jismlarga bo'linadi. Kristall jismlarni tashqil qilgan atomlar joylashishida muayyan, qat'iy tartib mavjud: ma'lum yo'nalishda xar qanday ikki atom orasidagi masofa bir xil. Undan tashqari ularda aniq erish, qotish temperaturasi mavjud. Amorf jismlarda atomlar joylashishida qat'iy tartib mavjud emas,

Ularning fazalarini o'zgartirishida aniq o'tish temperaturalari mavjud emas.

Kristallni tashqil qilgan atomlarning markazlari bir-biri bilan tutashtirilsa fazoviy panjara hosil bo'ladi. Unga **kristall panjara** deyiladi. Kristall simmetriyasi almashtirishlar yoki simmetriya amallari deyiladigan muayyan o'rinn almashtirishlar natijasida jismning o'z-o'zi bilan ustma-ust tushishi. Simmetriya almashtirishlariga quyidagilar kiradi:

- 1) jismning barcha nuqtalarini muayyan masofaga parallel kuchirish. (translyatsiya)
- 2) jismning biror o'q atrofida muayyan burchakka burilishi.
- 3) tekislikda akslanish.
- 4) nuqtada yoki inversiya akslanish.


Kristallarda atomlarning joylashishi translyatsion simmetriya hossasiga ega.

Kristallda bir-biriga perpendikulyar bo'lgan uchta yo'nalish olamiz va undagi qo'shni atomlar orasidagi masofalarni  $a_1, a_2, a_3$  vektorlar orqali belgilaymiz. Bu

erda  $a_i$ -vektorlar **asosiy vektorlar** yoki **translyatsion davrlar** deyiladi. Shu uchta  $a_i$  vektorlar ustiga qurilgan parallelepiped **elementar yacheyka** deyiladi. Butun kristallni uni elementar yacheykasini ketma-ket takrorlanishi deb tasavvur qilish mumkin. Ideal kristallning asosiy hossalaridan biri-agar cheksiz kristall

$$\vec{a}_n = n_1 \vec{a}_1 + n_2 \vec{a}_2 + n_3 \vec{a}_3 \quad (1.10)$$

vektor qadar ko'chirilsa, u o'z-o'ziga ustma-ust tushadi. Bu operatsiya **translyatsionsimmetriya** deyiladi.



**1.9 rasm**

Elementar yacheykaning xajmi:

$$V_0 = \vec{a}_1 \left[ \begin{array}{cc} \vec{a}_2 & \vec{a}_3 \end{array} \right] \quad (1.11)$$

bo'ladi. Bitta atomli elementar yacheyka bu sodda panjara, bir qancha atom mavjud elementar yacheyka murakkab panjara xisoblanadi. Kristall panjarada atomlarning markazlari joylashadigan nuqtalar **tugunlar** deyiladi. Xar qanday murakkab fazoviy panjara bir-biriga nisbatan siljigan sodda panjaralardan tuzilgan bo'ladi.

Bu sodda panjaralar **Brave panjaralari** deyiladi. Ularning soni 14 ta. (1.10 rasm)

Сингония Тип решётки	Три-клинная	Кубическая	Тетрагональная	Ромбическая	Тригональная (ромбоэдрическая)	Гексагональная	Моноклинная
Примитивный							
Базоцентрированный							
Объёмноцентрированный							
Гранецентрированный							

## 1.10 rasm

Xar xil strukturalar kristall panjarani asosiy vektorlari uzunliklari va ular orasidagi burchaklarga qarab, 7 ta kristall singoniyaga bo'linadi:

**Kubik tizim.** Bu singoniyaga uch xil panjara: sodda, xajmiy markazlashgan, yoklari markazlashgan panjaralar kiradi. Asosiy parametr-kub qirrasining  $a$  uzunligidir.  $a = b = c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$

**Tetragonal tizim.** Bravе parallelipipedи asosi kvadrat bo'lgan to'g'ri prizmadir. Bu tizimga sodda va xajmiy markazlashgan panjaralar kiradi.

Asosiy parametrlar ikkita-kvadrat asosi qirrasining  $a$  uzunligi, parallelipipedning s balandligi.  $a = b \neq c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$

**Geksagonal tizim.** Bu tizimning asosini muntazam olti qirrali prizma tashqil qiladi. Asosiy parametrlar-prizma asosi tomonining  $a$  uzunligi va prizmaning s balandligi.  $a = b \neq c, \alpha = 120^\circ, \beta = \gamma = 90^\circ$

**Romboedrik tizim.** Bravе parallelipipedi romboedr shaklga ega. Bu tizimning yagona panjarasi yoklari bir xil romblardan iborat sodda panjaralardir. Uning ikki parametri bor: romb qirrasining  $a$  o'zunligi va qirralar orasidagi  $\alpha$  burchak.  $a = b = c, \alpha = \beta = \gamma \neq 90^\circ$

**Rombik va ortogonal tizim.** Panjaraning asosiy parametrlari –to'g'ri burchakli Bravе parallelipipedining qirralarining uzunliklari- $a, b, c$ . Bu tizimda Bravе panjarasining 4 xili: sodda, xajmiy markazlashgan, yoklama markazlashgan va asoslari markazlashgan panjaralar mavjud.  $\alpha \neq b \neq c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$

**Monoklin tizim.** Bravе parallelipedi to'g'ri parallellipiped. Uning asosi parallelogrammdan iborat. Monoklin panjaraning 4 ta parametri bor: Bravе


parallelipipedi qirralarining  $a, b, c$  uzunliklari va ularidan ikkitasi orasidagi burchak.  $a \neq b \neq c, \alpha = \gamma = 90^\circ, \beta \neq 90^\circ$

**Triklin tizim.** Bu tizimning panjaralari faqat soda panjaralardir. Brav parallelipipedi qirralarining  $a, b, c$  uzunliklari va ular orasidagi  $\alpha, \beta, \gamma$  burchaklar.  $a \neq b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ$ .

Kristall panjarada atomlarni vaziyatini aniqlashda kristallografik koordinatalar sistemasidan foydalaniлади. Koordinatalar boshi sifatida panjaraning bir tuguni, koordinatalar uki sifatida elementar yacheyska qirralarining yo'nalishlari olinadi. Brav parallelipipedining qirralari koordinata o'qlari yo'nalishida uzunlik birliklari deb olinadi. Shuning uchun, xar xil yo'nalishda uzunlik birliklari xar xil bo'ladi.

Kristall atomlarining markazlaridan o'tgan tekislik **kristall tekisligi** deyiladi. Bu tekislikning vaziyatini aniqlash uchun **Miller indekslari** deb ataladigan uchta raqamdan foydalaniлади. Ular quyidagicha aniqlanadi.

Sodda kub panjaraning elementar yacheyskasini qaraylik. (1.11 rasm)



**1.11 rasm**

Uning qirralari  $a_1, a_2, a_3$  bo'lsin. Kristalldagi biror tekislikni koordinata o'qlarida  $s_1 a_1, s_2 a_2, s_3 a_3$  kesmalar kesgan bo'lsin, bu erda,  $s_1, s_2, s_3$  butun sonlar.

$\frac{1}{s_1} : \frac{1}{s_2} : \frac{1}{s_3}$  nisbatini yozib, umumiyoq maxrajga keltiramiz va maxrajni tashlab yuboramiz, suratlardan tashqil topgan butun sonlarning umumiyoq bo'luvchisi bo'lsa, shunga bo'lib, uchta butun son nisbatini, ya'ni  $h:k:l$  Miller indekslarini hosil qilamiz. Ular kristalda tekislikni vaziyatini aniqlaydi.

Xar bir kristallni panjara-siga quyidagi yo'l bilan hosil qilinadigan teskari panjara mos keladi. Teskari panjara vektorlari quyidagicha yoziladi.

$$b_1 = \frac{2\pi[a_2 \times a_3]}{V_0} \quad b_2 = \frac{2\pi[a_3 \times a_1]}{V_0} \quad b_3 = \frac{2\pi[a_1 \times a_2]}{V_0} \quad (1.12)$$

$V_o = |(a_1[a_2 \times a_3])|$  -  $a_1, a_2, a_3$  vektorlar asosida yasalgan to'g'ri panjarani elementar yacheykasi hajmi. Oddiy kub panjara  $a_1 = a_2 = a_3, b_1 = b_2 = b_3$  u xolda  $b = \frac{2\pi}{a} b_1 b_2 b_3$  asosida yasalgan parallelepiped teskari panjara deyiladi.

$$b_m = m_1 b_1 + m_2 b_2 + m_3 b_3 \quad (1.13)$$

vektor teskari panjarani tugunini aniqlaydi.

$$|(b_1[b_2 \times b_3])| = \frac{(2\pi)^3}{V_0} \quad (1.14)$$

$(b_1[b_2 \times b_3])$  teskari panjarani hajmi.

Teskari panjarani elementar yacheykasi quyidagicha topiladi.

$k$  to'lqin vektorlar fazosida  $2\pi b_1, 2\pi b_2, 2\pi b_3$  vektorlar asosida teskari panjara ko'rildi va teskari panjarani qandaydir tuguni koorditatalar boshi sifatida tanlanib, uning yaqinidagi boshqa tugunlar bilan to'g'ri chiziqlar vositasida birlashtiriladi. Bu chiziqlarni o'rtasida perpendikulyar tekisliklar o'tkaziladi. Teskari panjarani elementar yacheykasi sifatida tekisliklar bilan chegaralangan va ichida koordinatalar boshi joylashgan eng kichik, ko'p qirrali figurani tanlash mumkin. Bu figura **Vigner-Zeytts yacheykasi** deyiladi. Vigner-Zeytts yacheykasini hajmi  $\frac{(2\pi)^3}{V_0}$  ga teng. (1.14)-ifodadan kelib chiqadiki  $a_1 b_1 = a_2 b_2 = a_3 b_3 = 2\pi$

$$a_n b_m = n_1 m_1 + n_2 m_2 + n_3 m_3 \quad a_n = a_1 n_1 + a_2 n_2 + a_3 n_3 \quad b_m = b_1 m_1 + b_2 m_2 + b_3 m_3$$

Kvaziimpulsnii fizik jixatdan ekvivalent bo'lмаган qiymatlar to'plamidan iborat soha **Brillyuon zonasi** deyiladi. Brillyuon zonasi sifatida

$$\begin{aligned} -\pi\hbar\langle Pa_1 \rangle &\leq \pi\hbar \\ -\pi\hbar\langle Pa_2 \rangle &\leq \pi\hbar \\ -\pi\hbar\langle Pa_3 \rangle &\leq \pi\hbar \end{aligned} \quad (1.15)$$

tengsizliklar bilan aniqlanadigan soxani olish mumkin. Unga **birinchi Brillyuon zonasi** deyiladi. (1.15)-ifodadan quyidagi kelib chiqadi.


$$\text{Birinchi Brillyuon zonasi hajmi quyidagicha } \frac{(2\pi\hbar)^3}{V_0} = \frac{(2\pi\hbar)^3}{a^3}$$

$k$ -to'lqin vektori fazosida birinchi Brillyuon zonasiga gorizont bo'ylab  $-\frac{\pi}{a}$  dan  $\frac{\pi}{a}$  gacha bo'lган soxa to'g'ri keladi. Abtsissa o'qini bu soxasi uzunligi  $\frac{2\pi}{a}$  ga tengdir.

Ikkinci Brillyuon zonasasi ikkita soxadan tuzilgan:  $\frac{\pi}{a}$  dan  $\frac{2\pi}{a}$  gacha va  $-\frac{2\pi}{a}$  dan  $-\frac{\pi}{a}$

gacha bo'lgan soxalar. Shunday qilib, Brillyuon zonasasi  $k$  o'qini kesmalari bilan tasvirlanadi va bu kesma bo'ylab E energiya  $k$  ni uzluksiz funktsiyasi hisoblanadi.

Almaz tipidagi panjara uchun  $k$ - fazosida Birinchi Brillyuon zonasasi 14 qirrali figura hisoblanadi. Uni 6 qirrasi kvadrat, 8 qirrasi oltiburchakdir. (1.12 rasm)



(1.12 rasm)

Kremniy, germaniy almaz tipidagi panjaraga ega.

### 1.8. Ruhsat etilgan va taqiqlangan energetik zonalar, yarimo'tkazgichlar va dielektriklarning zonaviy strukturasi.

Temperatura ko'tarilganda kristall panjara tugunidagi ionlarning issiqlik tebranishlari va natijada elektronlarning sochilishi kuchayadi, bu xarakatchanlikni kamaytiradi.

Kirishmalar kontsentratsiyasi yuqori bo'limganda, ular elektronlarni xarakatchanligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo yuqoriroq kontsentratsiyalarda temperatura past bo'lgan xolda ham zaryad tashuvchilar xarakatchanligi susayadi.

Teng miqdordagi erkin elektron va kovaklarga ega bo'lgan yarimo'tkazgich xususiy yarimo'tkazgich deyiladi.

Temperatura ortishi bilan valent bogdan elektronlar uzilishi kuchayadi, natijada yarimo'tkazgichda erkin elektronlar va erkin kovaklar kontsentratsiyasi ortadi. Erkin zaryad tashuvchilar issiqlik energiyasi xisobiga yarimo'tkazgich kristalli bo'ylab xaotik xarakatlanadi. Ular xarakatlanishi davomida kristall panjara nuqsonlari bilan to'knashadilar, natijada xarakat yo'naliishlarini o'zgartiradilar. Tartibsiz issiqlik xarakat tufayli istalgan yo'naliishda xarakatlanuvchi elektronlar soni qarama qarshi yo'naliishda xarakatlanuvchi kovaklar soniga teng. Shuning uchun tashqi elektr maydon ko'yilmaganda erkin elektronlar va kovaklarni istalgan

yo'nalish bo'ylab olib o'tadigan yig'indi zaryadi nolga teng va tok hosil bo'lmaydi.

Xususiy yarimo'tkazgichni elektr maydoniga joylashtiramiz. Maydon ta'sirida erkin elektronlar tezlashadi va maydon yo'nalishiga qarama qarshi xarakatlanadi. Natijada kristallda elektronni xarakati tartibsiz issiqlik xarakat va tashqi elektr maydon tufayli yo'zaga keladigan tartibli xarakatdan tashqil topadi. Erkin zaryad tashuvchilarni elektr maydondagi yo'nalgan xarakati dreyf xarakat, bu xarakat tezligi dreyf tezligi deyiladi.

Xuddi elektronlarga o'xshab, lekin ularga qarama qarshi yo'nalishda valent bog'dagi vakant o'rinalar-kovaklar ham elektr maydon ta'sirida tartibli xarakatlanadi.

Shunday qilib, xech qanday aralashmasiz, toza yarimo'tkazgichda elektronli va kovakli o'tkazuvchanlik qaror topadi. Natijada, xususiy yarimo'tkazgichda elektr toki ikkita tashqil etuvchidan- elektron va kovak toklardan iborat bo'ladi. Xususiy yarimo'tkazgichdagi elektro'tkazuvchanlikni energetik tasavvurlardan foydalanim tushuntirish mumkin. Kvant nazariya ko'rsatadiki, izolyatsiyalangan atom energiyani diskret qiymatlariga ega. qattiq jism hosil bo'lishida qo'shni atomlar tashqi elektron qobiqlar bir-birini berkitguncha, ya'ni atomlar taxminan  $10^{-8}$  sm masofagacha yaqinlashadi. Natijada, bitta atomni qandaydir energetik satxida joylashgan elektronlar energiya sarflamasdan qo'shni atomni tegishli energetik satxiga o'tish imkoniyatiga ega bo'ladilar va shunday qilib butun qattiq jism bo'ylab erkin ko'chadi.

Qo'shni atomlarni maydoni ta'siri natijasida valent elektronlarni energetik satxlari zonaga parchalanadi. Bu zona **valent zona** deyiladi. Kristallarni elektro'tkazuvchanligi asosan valent zonani to'ldirilish darajasi va uni keyingi bo'sh zonagacha bo'lgan masofasi bilan anikqanadi. Energiya zonasi elektronlar bilan to'la to'ldirilgan, chala to'ldirilgan yoki butunlay to'ldirilmagan bo'lishi mumkin. Agar energiya zonasi to'la to'ldirilgan bo'lsa, undagi elektronlar elektr toki hosil bo'lishida qatnasha olmaydi, chunki bu elektronlar qarama qarshi yo'nalishlarda xarakatlanadilar va ularni yig'indi toki nolga teng bo'ladi. Elektr tokida qatnashtirish uchun ularni bir qismini yuqorigi bo'sh satxlarga chiqarish kerak. Ammo to'la to'ldirilgan zonada b o'sh satxlar yo'k. Agar energiya zonasi elektronlarga chala to'ldirilgan bo'lsa, uni **o'tkazuvchanlik zonas** deyiladi. Undagi elektronlar tokda qatnasha oladi, ular erkin elektronlar deyiladi. Chala to'ldirilgan zonani yuqorigi qismida bo'sh satxlar bo'ladi, pastki satxdagi elektronlar elektr maydon ta'sirida tezlashib, yuqorigi bo'sh satxlarga ko'tariladi va ularni yo'nalgan xarakati elektr tokini hosil qiladi.

Odatdagi temperaturalarda xususiy yarimo'tkazgichni o'tkazuvchanlik zonasida xar doim valent zonadan bu zonaga termik yo'gotish usuli bilan

o'tkazilgan ma'lum miqdordagi elektronlar, valent zonada esa teng miqdorda musbat zaryadli kovaklar bo'ladi. Elektr maydon ta'sir qildirilganda erkin elektronlar va kovaklar yarimo'tkazgich bo'ylab elektr zaryadi ko'chirishni amalga oshiradilar. Umuman aytganda, yarimo'tkazgichlarda ikki turdagi erkin zaryad tashuvchilar –erkin elektronlar va kovaklar mavjud bo'lib, elektr o'tkazuvchanlik:

$$\sigma = e(\mu_n n + \mu_p p)$$


ko'rinishda ifodalanadi.

Bu erda  $n$  va  $p$  –elektronlar va kovaklarning kontsentratsiyalari,  $\mu_n$ ,  $\mu_p$  – ularning xarakatchanliklari.

Valent zona va o'tkazuvchanlik zonasini bir-biridan **taqqiqlangan zona** bilan ajratiladi. Taqqiqlangan zona kengligi  $E_g$  ximiyaviy **bog'lanish** turiga, kristall panjarani hosil qiluvchi atomlar tipiga **bog'liq** bo'ladi. (1.13 rasm)



1.13 rasm



1.14 rasm


Rasmda xususiy yarimo'tkazgich uchun energetik diagramma keltirilgan.

Aralashmali yarimo'tkazgichlarda elektro'tkazuvchanlik mexanizmini ko'rib o'tamiz. Almaz tipidagi panjarali yarimo'tkazgichda atomlardan biri V gurux elementi atomi bilan almashgan bo'lsin, masalan, kremniy panjarasi tugunida mishyak atomi joylashgan bo'lsin.

Mishyakda elektronlar xolatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:




Mishyak atomida besh valent elektron 4s va 4p xolatlarda joylashgan. Kremniy kristall panjarasida mishyak atomini to'rtta valent elektroni yaqin kremniy atomlarini to'rtta valent elektronlari bilan birgalikda kovalent **bog'lanish** hosil qilishda qatnashadi. (1.14 rasm). Mishyakni beshinchи elektroni **bog'lanishda** ishtirok qilolmaydi. U mishyak atomi bilan zaif bog'langan, chunki unga atrofidagi kremniy atomlari ham ta'sir qiladi. Yuqori temperaturalarda bu elektron mishyak atomidan ajralib chiqib, kristall bo'ylab erkin xarakatlanishi mumkin. Bu jarayon natijasida yarimo'tkazgichda erkin elektronlar kontsentratsiyasi ortadi va ular o'tkazuvchanlikda asosiy zaryad tashuvchilar bo'lib qoladi, kovaklar esa noasosiy zaryad tashuvchilar bo'lib koladi. Bunday yarimo'tkazgich **elektronli yoki n tipli yarimo'tkazgich**, ortiqcha elektronlar berayotgan aralashma **donor aralashma** deyiladi. Rasmdagi energetik diagrammada yarimo'tkazgichdagi aralashmalarni taqiqlangan zonada lokal satxlarni yo'zaga kelishi tasvirlangan. Mishyak atomi ionlashganda erkin elektron hosil bo'ladi va buning uchun zarur bo'ladigan energiya kremniydagi valent bog'larni uzish uchun kerak bo'ladigan energiyadan kichik bo'ladi, donor aralashmani energetik satxi  $E_d$  taqiqlangan zonada o'tkazuvchanlik zonasini tubidan uncha katta bo'limgan masofada joylashadi(1.15- rasm).



1.15- rasm


Yarimo'tkazgich kristall panjarasiga aralashma sifatida davriy sistemani uchinchi gruppasidan, masalan, alyuminiy atomlari kiritilgan bo'lsin.

Alyuminiyda elektronlar xolatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:



Alyuminiy atomida uchta valent elektron 3s va 3p xolatlarda joylashgan. Shuning uchun kremniy atomida bitta bog'lanish tugallanmay qoladi. Alyuminiy atomi yaqinidagi to'ldirilmagan bog'lanishga issiqlik energiyasi xisobiga kremniy atomidan elektron o'tadi. Elektron ketgan joyda musbat zaryadlangan kovak hosil bo'ladi. Yarimo'tkazgich kristall panjarasidan elektron oladigan aralashma aktseptor aralashma deyiladi. Asosiy modda atomidan aralashma atomiga elektron berilishi xisobiga erkin kovakni hosil bo'lishi uchun zarur bo'ladigan energiya kremniyni valent bog'larini uzish uchun sarf qilinadigan energiyaga nisbatan kichik bo'ladi, Shuning uchun kovaklar miqdori elektronlar miqdoriga nisbatan

sezilarli katta bo'ladi va kristallni elektro'tkazuvchanligi kovakli bo'ladi. Bunday yarimo'tkazgichda asosiy zaryad tashuvchilar kovaklar, asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar elektronlar xisoblanadi. Aktseptor aralashmali yarimo'tkazgich kovakli yoki n-tipli yarimo'tkazgich deyiladi. Energetik diagrammada aktseptor aralashma aosiy yarimo'tkazgichni taqiqlangan zonasida valent zonani shipidan uncha katta bo'limgan masofada  $E_a$  energetik satx hosil qiladi. (1.16 rasm).



**1.16- rasm**

Aktseptor aralashma ionlashganda elektron valent zonadan  $E_a$  satxga o'tadi, valent zonada esa vakant o'rinnkovak hosil bo'ladi. Shu tufayli kovaklar miqdori erkin elektronlarga nisbatan katta bo'ladi va kristallda kovakli o'tkazuvchanlik paydo bo'ladi. Bunday yarimo'tkazgichda asosiy zaryad tashuvchilar kovaklar, asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar elektronlar xisoblanadi. Aktseptor aralashmali yarimo'tkazgich **kovakli yoki p- tip yarimo'tkazgich** deyiladi.

## **II-bob:Qattik jismlar zonaviy strukturasini aniqlash uchun kuchli boglanish usuli. Bir elektronli va adabiatic yaqinlashish.**

### **2.1.Adabiatic va bir elektronli yaqinlashish.**

Butun zarralar sistemasini engil (elektronlar) va og'ir (atom yadrolari) zarralarga ajratiladi. Ma'lumki, yadro massasi elektron massasiga nisbatan juda katta, ya'ni

$M_\alpha \gg m_0$ , natijada elektron tezligi yadro tezligidan katta bo'ladi. Atom yadrolari xolatini xar bir o'zgarishida asta-sekin yadrolarni yangi xolatiga tegishli elektronlarni fazoviy taqsimoti o'rnatiladi. Bu esa birinchi yaqinlashishda elektronlar xarakatini fiksirlangan yadrolarni potentsial maydonida qarashga imkon beradi. Bu xolda elektronlarni to'lqin funktsiyasi va elektronlar energiyasi yadrolarni xolatini o'zgarishi bilan adiabatik o'zgaradigan qandaydir funktsiyalar xisoblanadi, bunda yadrolar koordinatalari bu funktsiyalarga parametrlar sifatida kiradi. Yuqori keltirilgan yaqinlashish adiabatik yaqinlashish, yoki **Born-Oppeneymer yaqinlashishi** deyiladi.

Faraz qilaylik, yadro tinch turibdi. Bunda yadrolarning koordinatalari  $R_1, R_2, \dots, R_N$  o'zgaruvchilar emas, balki kristall panjarani tugunlari xisoblanadigan  $R_{10}, \dots, R_{N0}$  parametrlar xisoblanadi.

Tinch xolatdagi yadrolar uchun kinetik energiya nolga teng bo'ladi. Ularni o'zaro ta'sir potentsial energiyasi esa  $V_0$  esa doimiy qiymatni oladi. Energiyanı sanoq boshini tanlab, uni nolga tenglash mumkin. Bu xolda tinch xolatdagi yadrolarni maydonida xarakatlanayotgan elektronlar uchun Shredinger tenglamasi quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\left\{ \sum_i \left( -\frac{\hbar^2}{2m_0} \Delta_i \right) + \frac{1}{2} \sum_i \sum_j \frac{e^2}{r_{ij}} + U(r_1, \dots, r_n, R_{10}, \dots, R_{N0}) \right\} \psi_e = E_e \psi_e \quad (2.1)$$

(3.1) ifodadagi o'zgaruvchilar sonini yana kiskartirish uchun valent approksimatsiya usulidan foydalilanadi. Bu usulda valent elektronlardan boshqa barcha elektronlar yadro bilan birgalikda qo'zg 'almas atom qoldig'i (ion) ni hosil qiladi deb olinadi va (3.1) ifoda fiksirlangan ionlarni potentsial maydonida xarakatlanadigan valent elektronlar uchun yoziladi. (2.1) ifodani yanada soddalashtirish va masalani echish usullaridan biri **Xartri-Fok usuli**. Bu usul **ko'p** elektronli masalani bir elektronli masalaga olib keladi. Xartri-Fok usulini mazmuni shundan iboratki, elektronlarni o'zaro ta'siri masalasi xar bir elektronni qolgan barcha elektronlarni o'rtachalashgan maydoni bilan o'zaro ta'siri masalasiga olib kelinadi.

Faraz kilaylik,  $i$ -elektronni bu maydondagi potentsial energiyasi  $\Omega_i$  bo'lsin. Bu energiya faqat qolgan hamma elektronlarni xarakatigagina bog'liq bo'lmasdan,

balki bu elektronni ham xarakatiga bog'liqdir. Demak, maydon berilgan elektronni xarakatini aniqlabgina qolmasdan, balki o'zi ham uni xarakatiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun bu maydon o'zaro kelishilgan maydon deb ataladi. O'zaro kelishilgan maydon tushunchasini kiritilishi (2.1) ifodada  $\frac{1}{2} \sum_i \sum_j \frac{e^2}{r_{ij}}$  yigindini  $\sum_i \Omega_i(r_i)$  yigindi bilan almashtirish imkonini beradi.

Shunga o'xshash ravishda, elektronlarni yadrolar bilan o'zaro ta'sir potentsial energiyasini quyidagi yig'indi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$U(r_1, r_2, \dots) = \sum_i U_i(r_i) \quad (2.2)$$

Bu erda,  $U_i(r_i)$  –  $i$ -elektronni barcha yadrolar maydonidagi potentsial energiyasi.

$\sum_i \Omega_i(r_i)$  va (3) ni e'tiborga olsak (3.1) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\left\{ \sum_i -\frac{\hbar^2}{2m_0} \Delta_i + \Omega_i(r_i) + U_i(r_i) \right\} \psi_e = E_e \psi_e \quad (2.3)$$

Bu tenglamani  $\hat{H}_e = (\sum_i \hat{H}_i) \psi_e = E_e \psi_e$  (2.4)

ko'rinishda yozish mumkin, bu erda,  $\hat{H}_i$  –  $i$ -elektronni gamiltoniani bo'lib, quyidagiga teng:

$$\hat{H}_i = -\frac{\hbar^2}{2m_0} \Delta_i + \Omega_i(r_i) + U_i(r_i) \quad (2.5)$$

Demak, kristallni gamiltoniani xar biri bitta zarrachani koordinatasiga bog'liq bo'lган gamiltonianlar yigindisidan iborat. Zarralar sistemasini to'lqin funktsiyasi alovida zarrani xolatini ifodalovchi to'lqin funktsiyalar ko'paytmasidan iborat:

$$\psi_e(r_1, r_2, \dots) = \psi_1(r_1) \psi_2(r_2) \dots = \prod_i \psi_i(r_i) \quad (2.6)$$

Zarralar sistemasining to'la energiyasi alovida elektronlarning energiyalari yig'indisiga teng.

$$E_e = E_1 + E_2 + \dots = \sum_i E_i \quad (2.7)$$

O'zaro kelishilgan maydon tushunchasini kiritilishi elektronlarni kristallda bir-biriga **bog'liq** bo'lmasdan xarakatlanuvchi, ya'ni o'zaro ta'sirlashmaydigan zarralar sifatida qarashga imkon beradi. Bu esa o'tkazuvchanlik elektronlarini ideal gaz zarralari sifatida qarashga asos bo'ladi.

$\prod_i \psi_{i(j)}$  orali  $\psi_j$  dan tashqari barcha to'lqin funktsiyalarni ko'paytmasini belgilaymiz.

U xolda,

$$[\Pi \psi_{i(j)}] \psi_1 = [\Pi \psi_{i(2)}] \psi_2 = \dots \dots \dots \Pi \psi_i \quad (2.8)$$

$H_i$  operator fakat  $\psi_i$  to'lqin funktsiyaga ta'sir kiladi deb xisoblab, (2.4), (2.6), (2.8) tenlamalar asosida quyidagini olamiz:

$$[\Pi \psi_{i(1)}] \hat{H}_1 \psi_1 + [\Pi \psi_{i(2)}] \hat{H}_2 \psi_2 + \dots \dots \dots = E_e \Pi \psi_i \quad (2.9)$$

(2.9) tenglamani xar ikkala tomonini  $\Pi \psi_i$  ga bo'lib, (2.7) ni xisobga olsak

$$\frac{1}{\psi_1} \hat{H}_1 \psi_1 + \frac{1}{\psi_2} \hat{H}_2 \psi_2 + \dots \dots \dots = E_1 + E_2 + \dots \dots \dots \quad (2.10)$$

(2.10) tenglamani chap tomonidagi xar bir xad fakat bitta elektronni koordinatasiga **bog'liq**, shuning uchun bu tenglama quyidagi bir elektronli tenglamalar sistemasiga ekvivalent:

$$\left. \begin{aligned} \hat{H}_1 \cdot \psi_1 &= E_1 \cdot \psi_1 \\ \hat{H}_2 \cdot \psi_2 &= E_2 \cdot \psi_2 \\ &\vdots \\ \hat{H}_n \cdot \psi_n &= E_n \cdot \psi_n \end{aligned} \right\}$$

Shunday qilib, o'zaro kelishilgan maydon tushunchasini kiritilishi **ko'p zarralar masalasini** bir elektronli masalaga olib keldi.

$$\hat{H} \psi = E \psi \quad (2.11)$$

Bu erda,  $\hat{H}, \psi(r), E$ -kristallda elektronni energiyasi va to'lqin funktsiyasi.

Kristallda elektronni potentsial energiyasini  $V(r)$  funktsiya orqali belgilaymiz:

$$V(r) = U(r) + \Omega(r) \quad (2.12)$$

Kristalldagi elektron uchun Shredinger tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\left[ -\frac{\hbar^2}{2m_0} \Delta + V(r) \right] \psi(r) = E \psi(r) \quad (2.13)$$

$V(r)$  funktsiyani oshkor ko'rinishi aniq ma'lum emas, lekin bu funktsiyani ko'rinishini bilmasdan, uni umumiylashtirish ham, ko'rileyotgan zarralar sistemasi muhim xususiyatlarini aniqlashtirish mumkin. Ideal kristallda atomlar fazoda davriy joylashadi. Kristall tuzilishidagi davriylik potentsial maydonning ham kristall davriyligiga ega bo'lishligini takozo qiladi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, fazoda  $r$  radius vektorli nuqta va  $r + a_n$  radius vektorli nuqta fizik jixatdan ekvivalent va kristall panjarada zaryadlar sistemasi yaratadigan maydon uchun quyidagi davriylik sharti o'rinni:

$$V(r + a_n) = V(r) \quad (2.14)$$

(2.14) ifoda  $V(r)$  funktsiyani hossalaridan birini, ya'ni **potentsial maydonni davriylik shartini** ifodalaydi. Elektronni xolatini tavsiflovchi to'lqin funktsiya ham bu shartga bo'ysinadi.

$$\psi(r + a_n) = \psi(r) \quad (2.15)$$

(2.13) tenglamani aniq echimini olish mumkin bo'lmasa ham, bu echimni hamma asosiy hossalarini tadqiq qilish mumkin.

Blox teoremasiga ko'ra, kristallni davriy maydonida xarakatlanayotgan elektronni to'lqin funktsiyasi quyidagicha ifodalanadi.

$$\psi(r) = U_k(r)e^{ikr}$$

(2.16)

Bu erda,  $U_k(r)$  – panjara davri bilan davriylikka ega davriy funktsiya:

$$U_k(r + a_n) = U_k(r) \quad (2.17)$$

Ma'lumki, erkin elektronni xolati quyidagi yassi to'lqin funktsiyasi bilan tavsiflanadi:

$$\psi = Ce^{ikr} \quad (2.18)$$

Bu erda, amplituda koordinataga bog'liq emas. (2.16) ifodani (2.18) ifodadan farqi, uning amplitudasi koordinataga bog'liq bo'ladi. (2.16) Blox funktsiyasi modulyatsiyalangan yassi to'lqinni ifodalaydigan funktsiyadir.  $k$ -vektor **kvazito'lqin vektori** deyiladi. Uni ulchamligi  $[cm^{-1}]$  va miqdor jixatdan  $\frac{2\pi}{\lambda}$  ga teng.

$$k = \frac{p}{\hbar} \quad (2.19)$$

Bu erda,  $p$  – impuls ulchamligiga ega vektor bulib, **kvaziimpuls** deyiladi.


$k$  kvazivektor  $-\frac{\pi}{d} \leq k \leq \frac{\pi}{d}$  intervalda o'zgaradi. ( $d$  – panjara davri)

(3.13) tenglamadan aniqlanadigan elektron energiyasi kvazito'lqin vektori yoki kvaziimpuls funktsiyasi xisoblanadi:  $E = E_n(k)$ .

$E_n(k)$  funktsiya bir qiymatli emas, ya'ni  $k$  ni xar bir qiymatiga  $E_n(k)$  kiymatlarini butun to'plami tegishlidir.  $k$  ni  $-\frac{\pi}{d} \partial_{\alpha n} \frac{\pi}{d} \varepsilon_{\alpha \alpha}$  oraliqda uzluksiz o'zgarishida energetik polosalarni butun bir qatorini olamiz, bunda energiyani eng

kichik qiymati  $k = -\frac{\pi}{d}$  ga, eng katta qiymati  $k = \frac{\pi}{d}$  ga to'g'ri keladi. Bu polosalar **energetik zonalar** deyiladi.(2.1-rasm)

Elektronlar kristall panjarani musbat ionlarini davriy potentsial maydonida xarakatlanadi. Panjarani xar bir ioni potentsial chuqurlik hosil qiladi va elektronlar bu chuqurlikda ma'lum bir energetik satxlarda joylashadi. Musbat ionlarning chiziqli zanjiri elektronlar uchun quyidagi ko'rinishdagi potentsial relef hosil qiladi:



**2.1- rasm.**

Potentsial relefni bunday modeli **Kronig-Penney modeli** deyiladi. Bunday modelga ko'ra atomlar bir chiziq bo'ylab davriy joylashadi. Bunda elektron uchun bir xil navbatlashuvchi to'g'ri burchakli potentsial tusiqlar mavjud. Potentsial chuqurlik kengligi  $a$  va potentsial tusiq qalinligi  $b$ , tusiq balandligi  $V_0$  bo'lsin, bunda  $a+b=d$  panjara doimiysiga teng bo'ladi. Elektronning bunday davriy maydondagi energiyasi  $E$  tusiq balandligidan kichik bo'lsa, kvant mexanikasi bo'yicha elektron bu tusiqlardan tunnel o'tish yo'li bilan o'tib ketadi.

## **2.2. Qattik jismlar zonaviy strukturasini aniqlash uchun kuchli bog'lanish usuli.**

$E_n(k)$ bog'lanishni, ya'ni kristallda elektronlar energiya spektrini aniqlash muhim masala bo'lib, uni echish uchun bir necha taqrifiy usullar qo'llanilmokda. Shulardan biri kuchli **bog'lanish** usuli. Bu usulda elektronlarni kristalldagi xolati, ularni izolyatsiyalangan atomdagagi xolatidan kam farq qiladi deb xisoblaniladi. Lekin bunday qarash, atomlarni chuqurroq energetik satxlarida joylashgan elektronlar, ya'ni panjarani boshqa tugunlarida joylashgan atomlar bilan kuchsiz o'zaro ta'sirlashuvchi elektronlar uchun o'rinni. Shuning uchun kuchli **bog'lanish** usuli kristallda valent elektronlar xolatini mikdoriy tavsiflay olmaydi, ya'ni boshqacha aytganda bu taqrifiy yaqinlashish usulini elektronlarni energetik spektrlarini miqdoriy xisoblash uchun qo'llab bo'lmaydi. Bu usulda nolinchi yaqinlashish sifatida elektronning izolyatsiyalangan atomdagagi xolati olinadi va kristallning davriy elektr maydoni esa g'alayon deb qaraladi.

Kuchli **bog'lanish** usulini qo'llab, Shredinger tenglamasidan kristallda elektronlarni xususiy energiya qiymatlarini xisoblash mumkin. Kristallda elektronni energiyasi uni izolyatsiyalangan atomdagagi tegishli satxdagi energiyasi va to'lqin vektori  $k$  ni davriy funktsiyasi bo'lgan qo'shimcha xaddan tashqil

topadi. Endi bitta energetik satx o'rniga energetik zona hosil bo'ladi. Sodda kubik panjarani davriy maydonidagi elektron uchun energiya ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$E = E_a + C + 2A(\cos k_x a + \cos k_y a + \cos k_z a) \quad (2.20)$$

Bu erda,  $E_a$  – izolyatsiyalangan atomdagи elektron energiyasi, S-doimiy kattalik,

Bu ifodani taxlil qilish kristalldagi elektronlarni energetik spektri xaqidagi qator xulosalar qilishga imkon beradi:

1. Kristall panjara hosil bo'lishida atomlarni o'zaro ta'siri natijasida  $E_a$  izolyatsiyalangan atomni energetik satxi  $C$  kattalikka siljiydi. Satxni siljish yo'naliishi  $C$  ni ishorasiga bog'liq.

2. Kristall panjarada izolyatsiyalangan atomdagи elektronning energiya satxi energetik zonaga parchalanadi, zona ichida elektron energiyasi davriy ravishda to'lqin vektorini komponentalariga bog'liq bo'ladi.

3.  $\cos k_i a = \pm 1$  ( $i = x, y, z$ ) bo'lganda (2.20) ifodani ekstremal kiymatlari quyidagicha bo'ladi:

$$E_{max} = E_a + C + 6A$$


$$E_{min} = E_a + C - 6A$$

Demak, sodda kubik panjara uchun, energetik zona kengligi

$$E_{max} - E_{min} = 12A \quad (2.21)$$

Bu erda  $A$  – almashinuv integrali bo'lib, u atomlarni to'lqin funktsiyalarini ustma-ust tushish darajasiga va g'alayonlanish energiyasi bog'liq.

4. Kristallda xar bir izolyatsiyalangan atomni energetik satxi zonaga parchalanadi. Almashinuv integralini kattaligi qo'shni atomlarni elektron bulutlarini ustma-ust tushish darajasiga bog'liq, atomlarni to'lqin funktsiyalarini qancha kuchli ustma-ust tushsa,  $A$  va demak, energetik zona kengligi shuncha katta bo'ladi. Natijada, yuqorirok atom satxlari uchun to'lqin funktsiyalarini kuchli ustma-ust tushishi sababli, kengroq energetik zonalar hosil bo'ladi. (2.2- rasm)



2.2- rasm.

5. Energetik zonalar taqiqlangan zonalar deb ataladigan, taqiqlangan energetik oraliqlar  $E_g$  bilan ajratilgan bo'ladi.

6. Energiya ortishi bilan energetik zonalar kengligi ortadi, taqiqlangan zonalar kengligi kichrayadi

7. Izolyatsiyalangan atomda elektronlar energetik satxi aynishi mumkin. Kristall panjarada bu aynish yuqolishi mumkin. Bunda atomdagи elektronlar energetik satxi bir necha zonaga parchalanadi, ularni soni aynish darajasini bildiradi.

Masalan,  $p$  xolat uchun aynish darajasi  $g = 2l + 1 = 3$ , bu erda  $l$  azimuthal kvant son bo'lib,  $p$  xolat uchun birga teng. Demak, kristallda  $p$  xolatdan uchta zona hosil bo'ladi.

8. Kristallda elektron energiyasi to'lqin vektori  $k$  ni komponentalariga bog'liq. U to'lqin vektorining juft funktsiyasi xisoblanadi:

$$E(k) = E(-k)$$

9. Kristallga atomlar orasidagi masofani o'zgarishiga olib keladigan temperatura, bosim ta'sir kursatsa to'lqin funktsiyalarni ustma-ust tushish soxalari o'zgaradi, natijada, almashinuv integrali kattaligi ham o'zgaradi. Bu esa energetik zonalar kengligini o'zgarishiga, natijada bu zonalar orasidagi taqiqlangan zonani kengligi o'zgarishiga olib keladi.

10. Kuchli bog'lanish usuli kristall atomlarini tashqi valent elektronlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

### 2.3. Ruxsat etilgan zonadagi xolatlar soni.

Statistik fizikani muhim masalalaridan biri energiyasi ma'lum bir oraliqda yotgan zarralar sonini topish. Bu masalani echish uchun kvant xolatlar sonini va ularda zarralarni topilish extimolligini bilish zarur. Shuningdek, yarimo'tkazgichda zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasini aniqlash uchun elektronlar va kovaklar bilan band bo'lgan xolatlar sonini ham topish kerak.

Faraz qilaylik, birlik xajmdagi kristallda,  $E$  dan  $E + dE$  gacha bo'lgan energiya intervalida  $dZ$  kvant xolatlar mavjud bo'lsin.  $N(E)$  orqali xolatlar zichligini, ya'ni kristallni birlik xajmi uchun, energiyani birlik intervalidagi xolatlar sonini belgilaylik. U quyidagiga teng:

$$N(E) = \frac{dZ}{dE} \quad (2.22)$$

Agar  $E$  energiyali xolatni to'ldirilish extimolligi -  $f(E, T)$ ,  $dZ$  xolatlardagi elektronlar soni :

$$dn = f(E, T)dZ = f(E, T)N(E)dE \quad (2.23)$$

ifodadan aniqlanadi. U xolda, energiyasi  $E_1$  dan  $E_2$  gacha oraliqda yotadigan elektronlarni to'la soni quyidagiga teng:

$$n = \int_{E_1}^{E_2} f(E, T) N(E) dE \quad (2.24)$$

O'tkazuvchanlik va valent zonalarini teng energiyali sirtlari sferik ko'rinishda bo'lган hol uchun, kvant xolatlar zichligi uchun ifodalarni topamiz.


O'tkazuvchanlik zonasining pastki chegarasi yaqinida xolatlar zichligini aniqlaymiz.

Zona tubi yaqinida elektron energiyasi:

$$E = E_c + \frac{p^2}{2m_n^*} \quad (2.25)$$

ko'rinishda yoziladi. Bu erda,  $E_c$ -o'tkazuvchanlik zonasini tubida elektron energiyasi.  $m_n^*$ -elektronlarni effektiv massasi.

$E(p) = const$  va  $E(p) + dE = const$  energiyalarga tegishli ikkita izoenergetik satxlar orasidagi shar qatlarni ajratamiz (2.3-rasm).



**2.3-rasm**

Bu qatlarni xajmi:

$$dV_p = 4\pi p^2 dp \quad (2.26)$$

$p$ -fazoda birlik xajmdagi kristall uchun Brillyuon zonasining elementar yacheysini xajmi  $\hbar^3$  ga teng. Xar bir yacheykada qarama-qarshi spinli ikkita elektron joylashishi mumkin. Buni xisobga olsak  $dV_p$  xajmda xolatlar soni quyidagiga teng bo'ladi:

$$dZ = 2 \frac{dV_p}{\hbar^3} = \frac{8\pi}{\hbar^3} p^2 dp \quad (2.27)$$

(2.27) tenglikdan

$$p^2 = 2m_n^*(E - E_c) \text{ bundan } p = (2m_n^*)^{1/2}(E - E_c)^{1/2} \quad (2.28)$$

$$dp = \frac{1}{2} (2m_n^*)^{1/2} (E - E_c)^{-1/2} dE \quad (2.29)$$

(2.27), (2.28) va (2.29) ifodalarni (2.22) ga qo'ysak sferik simmetriyalı o'tkazuvchanlik zonasini tubi yaqinidagi kvant xolatlar zichligi uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$N(E) = 4\pi \left(\frac{2m_n^*}{\hbar^2}\right)^{3/2} (E - E_c)^{1/2} \quad (2.30)$$

Xuddi shu usul bilan valent zonasini yuqori chegarasi yaqinidagi xolatlar zichligini aniqlaymiz:

$$N(E) = 4\pi \left(\frac{2m_p^*}{\hbar^2}\right)^{3/2} (E_g - E)^{1/2} \quad (2.31)$$

Bu erda,  $E_g$ - valent zona shipida kovaklarni energiyasi,  $m_p^*$  -kovaklarni effektiv massasi.

Murakkab zonali, ya'ni teng energiyali sirtlari sferik ko'rinishda bo'lgan kristallar uchun kvant xolatlar zichligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$N(E) = 4\pi \left(\frac{2}{\hbar^2}\right)^{3/2} (m_1 m_2 m_3)^{1/2} (E - E_c)^{1/2} \quad (2.32)$$

$$m_1 m_2 m_3 = m_{dn}^{*3} \quad (2.33)$$

$m_{dn}^{*3}$  -elektronlar uchun xolatlar zichligining effektiv massasi. U xolda

$$N(E) = 4\pi \left(\frac{2m_{dn}^*}{\hbar^2}\right)^{3/2} (E - E_c)^{1/2} \quad (2.34)$$

Demak, elektronlar uchun xolatlar zichligining effektiv massasini kiritib o'tkazuvchanlik zonasini teng energiyali ellipsoidal sirtini o'tkazuvchanlik zonasini teng energiyali sferik sirtiga aylantirish mumkin.

#### 2.4. Yarimo'tkazgichlarda elektronlar va kovaklar statistikasi. Fermi-Dirak taqsimot funktsiyasi. Fermi satxi tushunchasi.


Yarimo'tkazgichda kvant xolatlar bo'yicha elektronlarni taqsimotini ko'ramiz.

Issiqlik muvozanati xolatida Fermi-Dirak statistikasiga asosan  $E$  energiyali xolatni Pauli printspipiga bo'ysunadigan, yarimspinli zarralar bilan to'ldirilish extimolligi

$$f_0(E) = \frac{1}{e^{(E-F)/kT} + 1} \quad (2.35)$$

$k$  – Boltzman doimiysi,  $T$  – absolyut temperatura,  $F$  – Fermi energiyasi yoki ximik potentsial, ya’ni sistemada zarralar sonini birga o’zgartirish uchun sarf qilinadigan ish.

Turli temperaturalarda Fermi-Dirak taqsimot funktsiyasini ko’rinishlarini ko’ramiz (2.4-rasm).



## 2.4-rasm.

(2.35) ifodadan  $T \neq 0$  da  $0 \leq E < F$  energiya intervalida  $f_0 = 1$  va  $E > F$  uchun  $f_0 = 0$ .

Bu shuni bildiradi, Fermi energiyasidan kichik energiyali hamma kvant xolatlar elektronlar bilan to’lgan bo’ladi, Fermi satxidan balandda yotgan satxlar esa to’liq bo’sh. Demak, Fermi energiyasi absolyut nol temperaturada metalldagi elektronlarni maksimal energiyasi.

$T > 0$  bo’lsin. (2.35) ifodadan Fermi energiyasiga teng qiymatli energiya uchun ( $E = F$ )

$f_0 = 1/2$ . Demak, Fermi satxi absolyut nol temperaturadan farqli temperaturalarda elektron bilan to’ldirilish extimolligi 0,5 ga teng bo’lgan energetik satx.  $T > 0$  da issiqlik xarakati natijasida elektronlarni bir qismi Fermi energiyasidan katta energiyali ( $E > F$ ) xolatga o’tadi, Fermi satxidan past joylashgan xolatlarni bir qism bo’sh bo’ladi. Bu xolda yuqoriroq energetik satxga o’tuvchi zarralar soni  $E < F$  soxada hosil bo’lgan bo’sh xolatlar soniga teng bo’ladi.

Issiqlik muvozanati xolatida  $E$  energiyali xolatda elektron bilan to’lmaslik, ya’ni kovak bilan band bo’lish extimolligi:

$$f_{op}(E) = 1 - f_o(E) = 1 - \frac{1}{e^{(E-F)/kT} + 1} = \frac{1}{e^{(F-E)/kT} + 1} \quad (2.36)$$

Aynimagan yarimo’tkazgichda ruxsat etilgan energetik xolatlar soni elektronlar sonidan sezilarli darajada katta bo’ladi. Agar  $e^{\frac{E-F}{kT}} \gg 1$  shart bajarilsa yarimo’tkazgich aynimagan xisoblanadi. N-tip aynimagan yarimo’tkazgichda  $F$  - Fermi satxi taqiqlangan zona ichida va  $E_c$  o’tkazuvchanlik zonasiga tubidan  $(2 \div 3)kT$  ga pastda yotadi. P-tip aynimagan yarimo’tkazgichda  $F$  - Fermi satxi

taqiqlangan zona ichida va  $E_g$  valent zona shipidan  $(2 \div 3)kT$  ga balandda yotishi kerak.

$e^{\frac{E-F}{kT}} << 1$  shart bajarilsa yarimo'tkazgich aynigan xisoblanadi. Aynigan elektronli va aynigan kovakli yarimo'tkazgichda Fermi satxi o'tkazuvchanlik zonasiga va valent zonasiga ichida yotadi. Aynimagan yarimo'tkazgichda zaryad tashuvchilar Maksvell-Boltsman statistikasiga, aynigan yarimo'tkazgichda zaryad tashuvchilar Fermi-Dirak statistikasiga bo'ysinadi.

Donor satxlari va aktseptor satxlari bo'yicha elektronlarni taqsimot funktsiyasi quyidagicha:

$$f_{nd} = \frac{1}{\frac{1}{2} e^{\frac{E_d-F}{kT}} + 1}, \quad f_{na} = \frac{1}{2 e^{\frac{E_a-F}{kT}} + 1} \quad (2.37)$$

Donor satxlari va aktseptor satxlari bo'yicha kovaklarni taqsimot funktsiyasi quyidagicha:

$$f_{pd} = \frac{1}{2 e^{\frac{F-E_d}{kT}} + 1}, \quad f_{pa} = \frac{1}{\frac{1}{2} e^{\frac{F-E_a}{kT}} + 1} \quad (2.38)$$

Aralashma markazlarida elektronlar va kovaklar kontsentratsiyalari:

$$n_d = N_d f_{nd} = \frac{N_d}{\frac{1}{2} e^{\frac{E_d-F}{kT}} + 1} \quad (2.39)$$

$$n_a = N_a f_{na} = \frac{N_a}{2 e^{\frac{E_a-F}{kT}} + 1} \quad (2.40)$$

$$p_d = N_d f_{pd} = \frac{N_d}{2 e^{\frac{F-E_d}{kT}} + 1} \quad (2.41)$$

$$p_a = N_a f_{pa} = \frac{N_a}{\frac{1}{2} e^{\frac{F-E_a}{kT}} + 1} \quad (2.42)$$

$n_d, p_a$  – elektroneytral donorlar va aktseptorlar kontsentratsiyalari.

$n_a, p_d$  – bir karrali ionlashgan donorlar va aktseptorlar kontsentratsiyalari.

O'tkazuvchanlik zonasida elektronlar uchun xolatlar zichligi:

$$N_n(E) = 4\pi \left(\frac{2m_n^*}{\hbar^2}\right)^{3/2} (E - E_c)^{1/2} \quad (2.43)$$

Valent zonasida kovaklar uchun xolatlar zichligi:

$$N_p(E) = 4\pi \left(\frac{2m_p^*}{\hbar^2}\right)^{3/2} (E_g - E) \frac{1}{2} \quad (2.44)$$

Energiyasi  $E$  dan  $E + dE$  oraliqda yotgan o'tkazuvchanlik elektronlarini muvozanatiy kontsentratsiyasi quyidagicha:

$$dn_0 = N_n(E) 2f_n dE \quad (2.45)$$

(2.45) ifodani integrallasak,  $n_0$ ni hosil qilamiz. Integralni pastki chegarasi  $E_c$  ga, yuqori chegarasi  $\infty$  deb olamiz:

$$n_0 = \int_{E_c}^{\infty} \frac{4\pi(2m_n)^{3/2}(E - E_c)^{1/2}}{\hbar^3(e^{\frac{E-F}{kT}} + 1)} dE \quad (2.46)$$

Belgilash kiritamiz:

$$x = \frac{E - E_c}{kT} \quad (2.47)$$

$$dx = dE / kT, (E - E_c)^{1/2} = x^{1/2} (kT)^{1/2}, \xi = \frac{F - E_c}{kT}$$

Natijada quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{E - F}{kT} = \frac{E - E_c}{kT} - \frac{F - E_c}{kT} = x - \xi \quad (2.48)$$

Belgilashlardan foydalansak,

$$n_0 = \frac{4\pi(2m_n kT)^{3/2}}{\hbar^3} \int_0^{\infty} \frac{x^{1/2}}{e^{x-\xi} + 1} dx \quad (2.49)$$

Belgilash kiritamz:

$$N_c = \frac{2(2\pi m_n kT)^{3/2}}{\hbar^3} , \Phi_{1/2}(\xi) = \int_0^{\infty} \frac{x^{1/2}}{e^{x-\xi} + 1} dx \quad (2.50)$$

Bu erda,  $N_c$ -o'tkazuvchanlik zonasida xolatlarni effektiv soni,

$\Phi_{1/2}(\xi)$ -Fermi integrali.

U xolda yarimo'tkazgichlarda o'tkazuvchanlik elektronlarini muvozanatiy kontsentratsiyasini ifodasi uchun quyidagiga ega bo'lamiz:

$$n_0 = \frac{2}{\sqrt{\pi}} N_c \Phi_{1/2}(\xi) \quad (2.51)$$

Xuddi shu yo'l bilan yarimo'tkazgichlarda o'tkazuvchanlik kovaklarini muvozanatiy kontsentratsiyasini ifodasini hosil qilamiz:

$$p_0 = \frac{2}{\sqrt{\pi}} N_g \Phi_{1/2}(\eta) \quad (2.52)$$

Bu erda,  $\eta = \frac{E_g - F}{kT}$

Aynimagan elektron tipli yarimo'tkazgich uchun:

$$e^{\frac{E-F}{kT}} = e^{x-\xi} \gg 1 \quad \text{va} \quad n_0 = N_c e^{\xi} = N_c e^{-\frac{E_c-F}{kT}} \quad (2.53)$$

Aynimagan kovak tipli tipli yarimo'tkazgich uchun:

$$e^{\frac{F-E}{kT}} = e^{x-\eta} \gg 1 \quad \text{va} \quad p_0 = N_g e^{\eta} = N_g e^{-\frac{F-E_g}{kT}} \quad (2.54)$$

Endi aynimagan xususiy yarimo'tkazgichda zaryad tashuvchilarni muvozanatiy kontsentratsiyasi ifodasini keltirib chiqaramiz.

Agar yarimo'tkazgichda aralashmalar bo'lmasa, ya'ni  $N_a = N_d = 0$  bo'lsa, bunday yarimo'tkazgich **xususiy yarimo'tkazgich** deyiladi.

Xususiy yarimo'tkazgich uchun electron eytralilik sharti:

$$n_i = p_i \quad (2.55)$$

(2.53) va (2.55) ifodalardan foydalansak,

$$N_c e^{-\frac{E_c-F}{kT}} = N_g e^{-\frac{F-E_g}{kT}}, \quad e^{\frac{2F}{kT}} = \frac{N_g}{N_c} e^{\frac{E_c+E_g}{kT}} \quad (2.56)$$

Natijada quyidagiga ega bo'lamiz:

$$F = \frac{E_c + E_g}{2} + kT \ln\left(\frac{N_g}{N_c}\right)^{\frac{1}{2}} \quad \text{yoki} \quad F = \frac{E_c + E_g}{2} + kT \ln\left(\frac{m_p}{m_n}\right)^{\frac{3}{4}} \quad (2.57)$$

Agar (2.57) ni (2.53) ifodaga qo'ysak,

$$n_i = \sqrt{N_c N_g} e^{-\frac{E_c-E_g}{2kT}} = \sqrt{N_c N_g} e^{-\frac{\Delta E_0}{2kT}} \quad (2.58)$$


Tq0 da (2.57) ifodadan

$$F = \frac{E_c + E_g}{2} = E_i \quad (2.59)$$

(2.58) ifodadan

$$\lg n_i = \lg A - \frac{0,43\Delta E_0}{2k \cdot 10^3} \frac{10^3}{T} \quad (2.60)$$

$\lg n_i = f\left(\frac{1}{T}\right)$  **bog'lanish** grafigi quyidagi rasmida tasvirlangan.



2.5-rasm.

Rasmdagi to'g'ri chiziqning burchak koeffitsienti

$$\operatorname{tg}\alpha = \frac{0,43 \cdot \Delta E_0}{2k \cdot 10^3} \quad (2.61)$$

Agar  $\Delta E_0$  ni eV larda ifodalasak, bu ifoda quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta E_0 = 0,4 \operatorname{tg}\alpha \quad (2.62)$$

Natijada, agar eksperimental grafikdan  $\operatorname{tg}\alpha$  topilsa,  $\Delta E_0$  ni, ya'ni taqiqlangan zona kengligini aniqlasa bo'ladi.

## 2.5. Zaryad tashuvchilarning samaraviy massasi.

Zaryad tashuvchilarni effektiv massasi tushunchasini kiritish orqali elektronlarni kristall panjarani potentsial maydonidagi xarakati masalasini erkin elektronlarni xarakati masalasiga olib kelish mumkin, ya'ni zonaviy elektronlarga erkin elektronlar uchun o'rinali bo'lgan asosiy qonunlarni qo'llash imkoniyati tug'iladi.

Dastlab erkin elektronlarga to'xtalamiz. Agar elektron  $\vartheta$  tezlik bilan xarakatlansa, impuls  $p = m\vartheta$ . Elektron uchun de-Broyl to'lqin uzunligi:

$$\lambda = \frac{h}{m\vartheta} = \frac{h}{p} \quad (2.63)$$

Bu erda,  $h = 6,6 \cdot 10^{-34}$  J.c -Plank doimiysi.

(2.63) asosida elektronni kinetik energiyasini yozamiz:

$$\frac{m\vartheta^2}{2} = \frac{h^2}{2m\lambda^2} \quad (2.64)$$

To'lqin soni tushunchasidan foydalanamiz:

$$k = \frac{2\pi}{\lambda}$$

(2.64) asosida quyidagini olamiz:

$$E(k) = \frac{h^2 k^2}{8\pi^2 m} = \frac{\hbar^2 k^2}{2m} \quad (2.65)$$

(2.65) ifoda erkin elektronni kinetik energiyasini to'lqin soniga bog'lanishini ifodalaydi, ya'ni dispersiya qonunini ifodalaydi. Bu ifodani differentialsallaymiz va  $k$  ni topamiz:

$$dE / dk = k\hbar^2 / m \quad (2.66)$$

$k$  ni ifodasini  $\vartheta = \hbar k / m$  ifodaga qo'yamiz:

$$\vartheta = \frac{1}{\hbar} \frac{dE}{dk} \quad (2.67)$$

(2.67) ifoda faqat erkin elektronlar uchun emas, balki panjarani potentsial maydonida xarakatlanadigan elektronlar uchun ham o'rini.

Zonaviy elektronni energiyasi tashqi ta'sirlar tufayli o'zgaradi. U xolda

$$dE = F \vartheta dt \quad (2.68)$$

Bu erda  $F$  – energiyani o'zgarishiga olib keladigan tashqi kuch.

(2.67) ifodani (2.68) ifodaga qo'yamiz:

$$dE = \frac{F}{\hbar} \frac{dE}{dk} dt \quad (2.69)$$

Bu erdan,

$$\frac{dk}{dt} = \frac{1}{\hbar} F \quad (2.70)$$

(2.67) ifodadan foydalansak:

$$\frac{d\vartheta}{dt} = \frac{1}{\hbar} \frac{d^2 E}{dk^2} \frac{dk}{dt} \quad (2.71)$$

(2.71) ni xisobga olamiz:

$$\frac{d\vartheta}{dt} = \frac{1}{\hbar^2} \frac{d^2 E}{dk^2} F \quad (2.72)$$

Belgilash kiritamiz:

$$m^* = \frac{1}{\frac{1}{\hbar^2} \frac{d^2 E}{dk^2}} \quad (2.73)$$

Bu ifoda elektronni **effektiv massasi** deyiladi.

(2.73) ifodani quyidagi ko'rinishda ham yozish mumkin:

$$\frac{d^2 E}{dk^2} = \frac{\hbar^2}{m^*} \quad \text{yoki} \quad (m^*)^{-1} = \frac{d^2 E}{dk^2} \frac{1}{\hbar^2} = \frac{d^2 E}{dp^2} \quad (2.74)$$

Effektiv massa ifodalaridan ko'rinyaptiki,  $m^*$  keng oraliqda  $d^2 E / dk^2$  ga bog'liq ravishda o'zgaradi

## 2.6. Amorf moddalarining zonaviy strukturasining xususiyatlari.

Yarimo'tkazgichlar fizikasi va texnikasining eng istikbolli soxalaridan biri amorf materiallar soxasidir. Amorf materiallar atomlar joylashishida yaqin tartibni saqlaydi, ularda atomlar joylashuvida uzok tartib mavjud emas. Ba'zan amorf strukturalarni ideal tartiblanmagan materiallar deb tasavvur qilinadi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, oksidlar qatlamlari amorf xolatlarda bo'ladi. Amorf xolatlarning xususiy xollaridan biri shishasimon materiallardir.

Amorf yarimo'tkazgichlarni kvantomexanik nazariyasi A. I. Gubanov, N. Mott va boshqalar ishlarida rivojlantirilgan. Ular tartiblanmagan sistemalarda xolatlar zichligini taqsimot xarakterini o'rganganlar. Tartiblanmagan sistemalarda ham ruxsat etilgan zonalar, ya'ni o'tkazuvchanlik va valent zonalar to'g'risida

gapirish mumkin. Bu erda aynigan kristall yarimo'tkazgichlarga o'xshab, xolatlar zichligini dumlari mavjud. Taqiqlangan zonani kengligini kristall yarimo'tkazgichlarda qidagi aniqlash mumkin. Tartiblanmagan sistemalarda to'g'ri va noto'g'ri o'tish va dispersiya qonuni degan tushunchalar qo'llanilmaydi.

Amorf nometall strukturalar nazariyasiga ko'ra o'tkazuvchanlik zonasini tubidan yuqori va valent zona shipidan pastda elektronlar va kovaklarni lokallashmagan satxlari joylashadi. Lekin taqiqlangan zonada lokallashgan satxlarni kvaziuzluksiz spektri mavjud, bu tartiblanmagan sistemalarning zona tuzilishini faqk qiluvchi xususiyatidir.

Masalan, xalkogen-elementlar (Si, Se, Te) bilan beshinchisi gurux elementlari (P, As, Sb, Bi) va turtinchi gurux elementlari (Ge, Si, Sn) birgalikda xalkogenid shisha hosil qiladilar. Ularni yarimo'tkazuvchanlik xususiyatlari birinchi marta 1954 yilda N. A. Goryunova va B. T. Kolomiets tomonidan o'r ganilgan va ular tomonidan bu materiallarni quyidagi zona tuzilishi taklif qilindi. Taqiqlangan zonadagi lokallashgan xolatlar o'tkazuvchanlik va valent zonalarini dumlari tomonidan hosil qilinadi, bu dumlar o'zaro bir-birini bekitadi (2.6. a-rasm). Fermi satxi bekitilish soxasida yotadi.

Maydon nazariyasi bo'yicha,  $F$  fermi satxi yaqinida taqiqlangan zonada xolatlar zichligi  $10^{19} - 10^{20} \text{ sm}^{-3} \text{ eV}^{-1}$ . Kritik kontsentratsiya  $N_c$  lokallashgan xolatlar soxasini lokallashmagan xolatlar soxasidan ajratadi.  $N(E) < N_c$  tengsizlik bajariladigan energiya soxasida zaryadlar yo'nalgan kuchishi sakrashsimon mexanizm, ya'ni lokallashgan soxalar bo'yicha o'tkazuvchanlik ko'rinishida amalga oshadi. Bu erda zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi juda oz va  $N(E)$  kattalik  $N_c$  ga yaqin qiymatlardan kamayganda zaryad tashuvchilarni xarakatchaligi nolgacha keskin kamayadi (2.6, b-rasm). Bu esa differentsiyal o'tkazuvchanlikni mavjud emasligi bilan ekvivalentdir.

Elektronlar uchun differentsiyal o'tkazuvchanlik quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\sigma_n(E) = eN(E)\mu(E)f_\phi(E) \quad (2.75)$$

Bu erda,  $f_\phi(E)$  Fermining taqsimot funktsiyasi.

Kovaklar uchun differentsiyal o'tkazuvchanlik quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\sigma_n(E) = eN(E)\mu(E)(1 - f_\phi(E)) \quad (2.76)$$


2.6. v-rasmda  $\sigma(E)$  bog'lanish keltirilgan bulib, unda  $E_g$  va  $E_c$  ga to'g'ri keladigan ikkita ekstremumlar ko'rsatilgan. Taqiqlangan zona ichida chiziqlar tushib ketishi zaryad tashuvchilar xarakatchanligini keskin kamayishi bilan aniqlanadi. Valent va o'tkazuvchanlik zonalarida  $\sigma(E)$  ni kamayishi zonalarda erkin elektron va erkin kovak kontsentratsiyalarini kamayishi bilan bog'liq.  $E_g$  dan

pastda va  $E_c$  dan yuqorida zaryad tashuvchilarni zonalar bo'ylab odatdagি ko'chishi sodir bo'ladi.

Agar, satxlar bir-biriga  $kT$  tartibida yaqin bo'lsa, elektroo'tkazuvchanlik taqiqlangan zonada lokallashgan xolatlar bo'ylab, termik aktivlanishsiz, yoki termik aktivlanish bilan sodir bo'ladi. Bu xolda zaryad tashuvchilar xarakatchanligi :

$$\mu = \frac{e}{kT} R^2 \nu e^{(2\frac{R}{\lambda} - \frac{\Delta E}{kT})} \quad (2.77)$$

Bu erda,  $R$  - lokallashgan xolatlar orasidagi o'rtacha masofa,  $\nu$  va  $\lambda$  - kvant o'tishlar natijasida nurlanadigan yoki yutiladigan fonon chastotasi va to'lqin o'zunligi.  $\Delta E$  - aktivlanish energiyasi. Yuqorida keltirilgan zona tuzilishi asosida amorf yarimo'tkazgichlar nima uchun aralashmalarga va radiatsiyaga sezgir emasligini tushunish qiyin emas. Bu amorf yarimo'tkazgichlar uchun keng istiqbollarni ochib beradi.



2.6-rasm.

Kristallarda atomlar joylashishidagi ideal tartib va tartiblanmagan strukturalardagi ideal uzok tartibsizlik fizik abstraktsiya xisoblanadi. Xaqiqatda kristallarda ko'p sonli defektlar (nuqtaviy, chiziqli, xajmiy) mavjud. Real amorf yarimo'tkazgichlar hamma vaqt qo'shni soxalar bilan qandaydir ajralish chegarasiga ega lokal soxalarga ega. Bu chegaralarda mikrozarralar uchun potentsiallar barerlar hosil bo'ladi. Masalan, bu Shottki bareri bo'lishi mumkin.

Amorf plyonkalar  $Sb_2S_3$  yoki  $Sb_2Se_3$  100 VG'sm gacha fotokuchlanish generatsiyalaydi. Bu amorf fazada mikrogetero'tishlar lokallahadigan kristall kiritmalar mavjudligi bilan bog'liqdir.

Xalkogenid shishalarda amorf fazada zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi kichik ( $10^{-3}$ )

- $10^{-4}$  sm<sup>2</sup>G'(V.s), kristall fazalarda esa u bir necha tartibga oshishi va zaryad tashuvchilarni kontsentratsiyasini ham ortirishi mumkin. Natijada, kristall fazani solishtirma o'tkazuvchanligi amorf fazaga nisbatan bir necha tartibga yuqori bo'ladi. Amorf xalkogenid shishalarda kristall kiritmalarni hosil bo'lishi juda oson. Masalan, ularni 300-400<sup>0</sup>S largacha qizdirib, sovutganda bu jarayon tez sodir bo'ladi.

### **III-BOB.Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar elektro'tkazuvchanlik mexanizmlari**

#### **3.1.Kristallardagi kirishmalar va nuqsonlar.**

Real kristallar ideal kristallardan kristall panjarada atomlarning davriy joylashishidagi ko'p sonli buzilishlar yo'zaga kelishi bilan farqlanadi. Bu strukturaviy buzilishlar har xil sabablarga bog'liq bo'ladi. Masalan, materialni o'stirish sharoitiga, turli aralashmalarni mavjudligiga. Hamma strukturaviy nuqsonlarni yarim o'tkazgichlarda geometrik o'lchamlariga ko'ra to'rtta guruxga ajratiladi.

- 1) Nuqtali nuqsonlar
- 2) Chiziqli nuqsonlar
- 3) Sirtiy nuqsonlar
- 4) Hajmiy nuqsonlar

**Nuqtaviy nuqsonlarga** vakansiyalar, kristall panjarani tugunlararo atomlari, panjara tugunida yoki tugunlararo joylashgan chet aralashma atomlari kiradi.

Nuqtaviy nuqsonlardan biri vakansiya. Kristall panjarani tugunida joylashgan atom kristallni sirtiga o'tib olsa vakansiya va sirtiy atom juftligi hosil bo'ladi, bu juftlik **Shottki nuksoni** deyiladi. U quyidagicha belgilanadi.  $V^0, V^+, V^-$

$V^0$ -neytral vakansiya

$V^-$ -akseptor vakansiya

$V^+$ -donor vakansiya

Vakansiya hosil bo'lishi kristall panjarani lokal siqilishini yo'zaga keltiradi. Natijada panjarani o'rtacha davri kamayadi. **Tugunlararo atom** deb kristall panjarani tugunlari orasida joylashgan atomga aytildi. Tugunlararo atomni hosil bo'lishida atom sirtiy qatlamdan kristall panjarani hajmiga o'tadi. Atom kristall panjarani tugunidan tugunlararo muxitga o'tsa uning o'mnida vakansiya hosil

bo'ladi. Vakansiya tugunlararo atom juftligi **Frenkel nuqsoni** deyiladi. Tugunlararo atomni hosil bo'lishi vakansiyadan farqli ravishda panjarani o'rtacha davrini orttirib yuboradi. Kristall panjara sidagi yot atomlar (kirishmalar) panjara nuksonlari jumlasiga kiradi, ammo kristall hossalar (xususan, elektr hossalari) ni anuqlashda ularning ahamiyati nixoyatda muxim.

Kirishmalar o'zining tutgan urni va bajaradigan vazifalariga qarab bir necha turlarga bulinadi.

Kirishma atomlar kristall panjarasida yoki tugunlardagi asosiy atomlar urniga utirib oladi (bunday kirishmalar jami **urinbosar qattiq eirtma** deyiladi), yoki ular panjara tugunlari orasiga joylashib oladi (bunday kirishmalar **sukilish qattiq eritma** deyiladi). Bu ikki xolni ikki omil-geometrik va elektrokimyoviy omillar aniklaydi. Urinbosar kirishmalar hosil bo'lishi uchun kirishma atom radiusining asosiy atom radiusidan farqi 15% dan oshmasligi kerak. Yana bir shart shuki, asosiy va kirishma atomlar elektrokimyoviy jixatdan uxshash bo'lishi zarur, kirishma atomning sirtki (valent) kobigidagi elektronlar soni asosiy atomning sirtki kobigi elektronlari soniga teng yoki yakin ( $\pm 1$ ) bo'lishi kerak.

Sukilish kirishmalari hosil bo'lishi uchun kirishma atom radiusining asosiy atom radiusiga nisbati 0,59 dan kichik bo'lishi kerak. Xar bir kirishma atom o'zi turgan joy atrofida panjara davriyligini bo'zadi va elektron (kovak) uchun maxalliy satxlar hosil kiladi, bu satxlar kirishmalar zichligi uncha katta bulmaganda, taqiqlangan zonada joylashgan bo'ladi.

Chiziqli nuqsonlarga dislokatsiyalar kiradi. Dislokatsiyalar sezilarli darajada bir yo'nalish bo'ylab kristall panjarada atomlarning joylashuvidan davriylikning bo'zilishidir. Dislokatsiya chizig'ini yo'nalishiga bog'liq ravishda ikki xil dislokatsiya bo'ladi: vintsimon va aylanaviy dislokatsiya. Agar dislokatsiya chizig'i siljish chizig'iga parallel bo'lsa bunday dislokatsiya **vintsimon dislokatsiya** deyiladi

Agar dislokatsiya chizig'i siljish chizig'iga perpendikulyar bo'lsa, bunday dislokatsiya **aylanaviy dislokatsiya** deyiladi.

Sirtiy nuqsonlar turli muxitlararo chegaralarda vujudga keladi. Ular fazalararo chegara va fazalar ichidagi nuqsonlardir. Fazalararo chegara turli fazaviy xolatlarda joylashgan kristallni soxalarini ajratadi. Bu chegara, masalan, kristallni sirti bo'lib, uni tashqi muxitdan ajratib turadi. O'sayotgan kristallni eritmadan ajratadi. Faza ichidagi chegaralar bir fazaning ichida turlicha orientatsiyalangan kristallarni qismlarini ajratadi.

Hajmiy nuqsonlar yarim o'tkazgichning hajmidagi turli xil kirishmalar, boshqa bir fazani kirishmalarini xisoblanadi. Hosil bo'lish usuliga ko'ra barcha strukturaviy nuqsonlar bir qancha guruxlarga bo'linadi: aralashma nuqsonlar, termik nuqsonlar, radiatsion nuqsonlar, barik nuqsonlar.


Aralashma nuqsonlari uni o'stirish va diffuziyaviy legirlash, ionli implantatsiyali va neytron traektoriyali legirlash jarayonida kiritiladi.

Termik nuqsonlar yarimo'tkazgichni qizdirish natijasida va turli xil tezliklarda sovitish jarayonlarida kiritiladi.

Radiatsion nuqsonlar kristallni turli elektronlar, gamma kvantlar, neytron bilan nurlantirganda hosil bo'ladi.

Barik nuqsonlar kristallni deformatsiyalaganda hosil bo'ladi.

Kirishmalar maksimal eruvchanlik va maksimal kontsentratsiya bilan xarakterlanadi. Bir xil temperaturada tugunlararo atomni diffuziya koeffitsenti tugundagi atomni diffuziya koeffitsentiga qaraganda bir qancha tartibda kichik bo'ladi. III va V gruppasi elementlari IV gruppasi elementlarida o'rin olish qattiq aralashmalarini hosil qiladi. III va V gruppasi elementlari IV gruppasi elementlarini ta'qiqlangan zonasida sayoz satxlarni vujudga keltiradi. Agar donor aralashmalarini energetik satxlari ta'qiqlangan zonada o'tkazuvchanlik zonasini tubiga yaqin joylashsa va aktseptor aralashmalarini energetik satxlari valent zonaning shipiga yaqin joylashsa bunday satxlar **sayoz satxlar** deyiladi.



### 3.1-rasm

Donorlarni ionlashish energiyasi  $E_c - E_d$  ga, aktseptor satxning ionlashish energiyasi  $E_a - E_v$ , aralashma atomlarini ionizatsiya energiyalari Xoll doimiysini temperaturaga bog'lanishidan yoki yorug'likning yutilish koeffitsentini spektral bog'lanishdan topilishi mumkin. III va V gruppasi elementlarini kremniy yoki germaniyga kiritilishi kristallda elektronlar va protonlar kontsentratsiyasini o'zgartirib yuboradi. Yarim o'tkazgichda katta kontsentratsiyada zaryad tashuvchilarni hosil qiladigan va ta'qiqlangan zonada ruxsat etilgan zonalar chegaralariga yaqin joylashgan sayoz satxlar **legirlovchi satxlar** deyiladi. Agar aralashma atomlari davriy sistemada asosiy kristallni guruxidan birdan ko'pga farq qilsa u holda ta'qiqlangan zonada hosil bo'ladigan lokal satxlar **chuqur satxlar** deyiladi. Bu satxlar murakkab satxlar bo'lib, birinchidan bu holda bitta atom uchun bitta yoki bir nechta satxlar yo'zaga keladi. Ikkinchidan energiya satxlari ta'qiqlangan zonada ruxsat etilgan zonalar chegaralaridan ancha uzoqda joylashgan

bo'ladi. Masalan: mis germaniyda uchta aktseptor satx hosil qiladi.  $E_v$  dan 0.04 va 0.33 eV da joylashgan ikkita satx va  $E_c$  dan 0.25 eV da joylashgan bitta satx hosil qiladi. Bular shuni ko'rsatadiki, mis atomi o'ziga uchta elektron biriktira olishi mumkin ekan.

Termik nuqsonlarni ta'qiqlangan zonada hosil qiladigan energetik satxlar spektrini ko'ramiz. Yarimo'tkazgichlarda yuqori temperaturalarda hosil bo'ladi termik nuqsonlar sovo'tish tezligiga bog'liq. Termik nuqsonlar yarim o'tgazgichni ta'qiqlangan zonesiga donor va akseptor xarakteridagi lokal satxlarni kiritadi. Masalan, temir atomlari bilan bog'liq bo'lgan termo nuqsonlar  $E_v + 0,4 \text{ eV}$  bo'lgan chuqur satxni hosil qiladi.  $E_v + 0,41 \text{ eV}$  bo'lgan chuqur satx ta'qiqlangan zonaning pastgi kengligida energetik satxni vujudga keltiradi.  $E_v + 0,4 \text{ eV}$  energetik satx yarim o'tkazgichga termoishlov bergandan so'ng, uni  $10^4 \text{ cm}^{-1}/\text{K}$  tezlikda sovutganda hosil bo'ladi.  $10^2 \text{ cm}^{-1}/\text{K}$  tezlikda sovo'tish natijasida nostabil termo nuqsonlar yo'qotilishi mumkin ekan va ularning o'rniga boshqa bir  $E_v + 0,32 \text{ eV}$  li termo donorlar hosil bo'ladi. Taqiqlangan zonani yuqori yarmida quyidagi chuqur satxlar ko'zatigan,  $E_c - 0,20 \text{ eV}$ ,  $E_c - 0,32 \text{ eV}$ ,  $E_c - 0,54 \text{ eV}$ , ularni elektronlarni ushslash kesimlari  $10^{-15} - 6 \cdot 10^{-15} \text{ cm}^2$ ,  $6 \cdot 10^{-17} - 10^{-18} \text{ cm}^2$ .

Yarim tkazgichlarga kirishmalar kiritish yuli bilan ularning elektr utkazuvchanligi-ni va boshqa hossalarini o'zgartirish mumkin. Buning bir necha usullari ishlab chikilgan.

Yarimo'tkazgich monokristallini qotishmalardan hosil qilish jarayonida qotishmaga istalgan kirishma moddalarni kiritiladi. Bunda monokristall xajmida kirishmalarning tekis taqsimlanishini ta'minlaydigan choralar amalga oshiriladi.

Biz bu erda elektronika sonoatida keng qo'llaniladigan kirishmalar kiritish usullari to'g'risida qisqacha ma'lumot beramiz.

**Diffuziya usuli bilan kirishmalar kiritish usuli.** Bu usulda maxsus idishlarga yarim utkazgich kristalli, u bilan birga kiritiladigan moddaning ma'lum miqdori ham joylanadi. So'ng diffuziya pechida yuqori (kristall erish temperurasidan past) temperaturagacha qizdiriladi, kirishma modda buglanadi va uning atomlari kristall ichiga diffuziyalanib kira boradi. Bu kirishma atomlar, yuqorida aytilgan sharoitga qarab, yo atomlardan bo'shab qolgan tugunlariga yoki tugunlar orasiga joylashib oladi. Masalan, kremniyga fosforni taxminan  $1200^\circ\text{S}$  temperaturada diffuziyalanadi, chunki kremniyning erish temperaturasi taxminan  $1410^\circ\text{S}$  bo'lganligi uchun u o'zining qattiq xolatini saqlaydi, ammo issiqlik xarakati kuchayishidan vakansiyalar ko'payib ketadi, fosfor va kremniy atomlari radiuslar bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun fosfor atomlari kremniy kristali tugunlariga joylashib, o'rribosar kirishma hosil kiladi.

**Ionlar kiritish usuli.** Dastlab kiritiladigan kirishma atomlari ionlashtiriladi, so'ngra bu ionlarni katta kuchlanishli (bir necha kilovolt chamasida) elektr maydonda tezlantiriladi, shunda ular kristall plastinasiga kirib oladigan bo'ladi. Plastina esa xona tempeaturasida yoki undan bir oz yuqoriq temperaturada tutib turiladi. Bu usul, ionlar tokini va nurlash vaqtini nazorat qilish evaziga, kiritilayotgan kirishmani aniq hamda takrorlanuvchi miqdorda kiritish, ionlarning kirish chuqurligini tayinlash va boshqa bir qancha afzalliklarga imkon beradi.

Kirishmaning ionlari yarimo'tkazgich kristall panjarasiga kira borib, o'z energiyasini yuqota boradi, bu y o'qotish ikki ko'rinishda amalga oshadi. Kiritilgan ion kristall panjarasi tugunidagi atomga urilib, uni o'z joyidan tugunlar orasiga kuchirib, Frenkel nuksonini hosil qilishi, ko'chirilgan atom, agar iordan katta energiya olsa, yana boshqa atomlarni o'z tugunidan urib chiqarishi mumkin. Bunday xol yadroviy (elastik) tuqnashishlar xoli deyilib, ionning yo'lida tuzilishi buzilgan soxalar klasterlar ( $ulchami (5-10)\cdot 10^{-7} sm$ ) vujudga keladi. Ionlar oqimi etarlicha katta bo'lganida klasterlar qo'shilishib, makroskopik amorf soxalar hosil qilishi ham mumkin.

Ikkinci xolda ion kristall atomlarining elektronlari bilan o'zaro ta'sirlashadi va o'z energiyasini atomlarni ionlash yoki g'alayonlashga sarflaydi. Bu xol elektronlar bilan (noelastik) tuqnashishlar deyiladi.

**Epitaksiya usuli.** «Epitaksiya» atamasi bundan yarim asrdan ham oldin ma'lum yo'nalishda o'stirish jarayonini belgilash uchun kiritilgan (yunoncha: «epi»-ustiga, «taksis»-tartibli o'rnatish demakdir).

**«Taglik-usayotgan kristall fazasi»** tizimida o'zaro ta'sir tabiatи bo'yicha epitaksiya jarayonining avtoepitaksiya (gomoepitaksiya), generoepitaksiya, xemoepitaksiya, reotaksiya deb ataladigan turlari bor. Avtoepitaksiya taglik va o'stiriladigan qatlama aynan bir xil moddadan iborat xoldagi jarayondir. Generoepitaksiya taglik va o'stiriladigan qatlama turli moddalardan iborat xolni bildiradi. Bu ikki jarayonda moddalar tasirlashmaydi. Ammo, xemoepitaksiyada yangi kristall fazasi qatlami taglikning unga kelib tushayotgan (dastlabki fazasidan) modda bilan kimyoviy o'zaro ta'siri evaziga hosil bo'ladi. Epitaksiya jarayonida taglikning tuzilishi o'sadigan kristall fazasi tuzilishidan farq qilishi mumkin.

**Gaz-transport (bug fazali) epitaksiya** xolida o'tkaziladigan modda dastlab gaz (bug) xolatida bo'ladi va shu xolatda u taglikka etib boradi.

### 3.2. Elektron elektro'tkazuvchanligi.

Elektro'tkazuvchanlik kuchish xodisalarining biri xxisoblanadi. Kuchish yoki kinetik hodisalar deb, elektr, magnit maydonlar yoki temperatura farqi tufayli erkin zaryad tashuvchilarni xarakati bilan bog'liq bo'lган hodisalarga aytildi.

Yarimo'tkazgichda bir xil turdagи erkin zaryad tashuvchilar mavjud bo'lган xol uchun solishtirma o'tkazuvchanlik:

$$\sigma_n = en\mu_n \quad (3.1)$$

$e$  – elektron zaryadi,  $n$  – erkin zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi,  $\mu_n$  – zaryad tashuvchilarni dreyf xarakatchanligi.

Agar zaryad tashuvchilar elektronlar va kovaklar bo'lsa, yarimo'tkazgichni o'tkazuvchanligi quyidagicha bo'ladi:

$$\sigma_n = en\mu_n + en\mu_p$$

Xususiy elektro'tkazuvchanlik soxasida elektronlar va kovaklarni elektr o'tkazuvchanligi o'zaro teng va bu xolda:

$$\sigma = e(\mu_n + \mu_p)n_i = e(\mu_n + \mu_p)\sqrt{N_c N_g} e^{-\frac{\Delta E_0}{2kT}} \quad (3.2)$$

$\mu_n, \mu_p, N_c, N_g$  lar temperaturaga kuchsiz bog'langan va shuning uchun (6.2) ifodani quyidagicha yozamiz:

$$\lg \sigma_i = A - \frac{0,43\Delta E_0}{2k \cdot 10^3} \frac{10^3}{T} \quad (3.3)$$

$\lg \sigma_i = f(1/T)$  bog'lanish grafigida to'g'ri chizikni burchak koeffitsienti  $tg\alpha$  si aniqlansa, yarimo'tkazgichni taqiqlangan zonasini kengligini aniqlasa bo'ladi.

$$tg\alpha = \frac{0,43\Delta E_0}{2k \cdot 10^3} \quad \text{yoki} \quad \Delta E_0 = 0,4tg\alpha \text{ eV} \quad (3.4)$$

Elektronli yarimo'tkazgichda


$$\begin{aligned} \sigma_n &= e\mu_n \sqrt{\frac{N_c N_d}{2}} e^{-\frac{\Delta E_d}{2kT}} \\ \lg \sigma_n &= B - \frac{0,43\Delta E_d}{2k \cdot 10^3} \frac{10^3}{T} \\ tg\alpha_d &= \frac{0,43\Delta E_d}{2k \cdot 10^3} \quad \text{yoki} \quad \Delta E_d = 0,4tg\alpha_d \text{ eV} \end{aligned}$$

Kovakli yarimo'tkazgichda

$$\begin{aligned} \sigma_p &= e\mu_p \sqrt{\frac{N_g N_a}{2}} e^{-\frac{\Delta E_a}{2kT}} \\ \lg \sigma_p &= C - \frac{0,43\Delta E_a}{2k \cdot 10^3} \frac{10^3}{T} \end{aligned}$$

$$\operatorname{tg} \alpha_a = \frac{0,43 \Delta E_a}{2k \cdot 10^3} \quad \text{yoki} \quad \Delta E_a = 0,4 \operatorname{tg} \alpha_a \text{ eV}$$

3.2-rasmida donorlarni xar xil kontsentratsiyalari  $N_d$  da elektronli yarimo'tkazgich uchun va aktseptorni xar xil kontsentratsiyalari  $N_a$  da kovakli yarimo'tkazgich uchun  $\lg \sigma_i = f(1/T)$  bog'lanish grafiklari keltirilgan.



**3.2-rasm.**

### 3.3. Zaryad tashuvchilarining sochilishi. Xarakatchanlik. Xarakatchanlikning temperatura va elektrik maydon kuchlanganligi-ga bogliqligi.

Ideal yarimo'tkazgichda hamma elektronlar bog 'langan bo'ladi. Agar bunday yarimo'tkazgichni elektr maydonga joylashtirsak, elektr toki hosil bo'lmaydi. Chunki, bunda erkin zaryad tashuvchilar yo'k. Faraz qilaylik, qandaydir ta'sir, masalan, issiqlik energiyasi ta'sirida valent bog'lar uzilib, elektron erkin bo'lib qolsin. Bog'langan elektronni erkin elektronga aylanish jarayoni **generatsiya** deyiladi. Elektron ketgan joyda ortiqcha musbat zaryad qoladi. Bu vakant joy kovak deyiladi. Butun kristall neytralligicha qoladi, chunki hosil bo'lgan xar bir erkin elektronga bitta kovak to'g'ri keladi.

Elektron kovak bilan birikishi ham mumkin. Erkin elektronni bogo'langan elektronga aylanish jarayoni **rekombinatsiya** deyiladi.

Yarimo'tkazgichda muvozanat sharoitida vaqt birligi ichida ma'lum mikqordagi elektron va kovak juftlari generatsiyalanib tursa, ikkinchi tomondan shuncha juft rekombinatsiyalanib turadi:

$$r_0 = g_0 \quad (3.5)$$

Bu erda,  $r_0$  va  $g_0$  muvozanat xoldagi rekombinatsiya va generatsiya tezliklari.

$$r_0 = \gamma_r n_0 p_0 \quad (3.6)$$

$\gamma_r$  - **rekombinatsiya doimiysi** deyiladi.

$\gamma_r p_0$ -elektronning rekombinatsiyalanish extimolligi.

$\gamma_r n_0$ - kovakning rekombinatsiyalanish extimolligi.

Zarraning hosil bo'lishi va qarama qarshi zarra bilan uchrashib yuqolishi orasidagi vaqt uning **yashash vaqtি** deyiladi. Zaryad tashuvchilarni yashash vaqtlari quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:

$$\tau_n = \frac{1}{\gamma_r p_0} \quad (3.7)$$

elektron uchun va

$$\tau_p = \frac{1}{\gamma_r n_0} \quad (3.8)$$

kovak uchun

(6.3) ifodadan foydalansak bu ifodalarni quyidagicha yozamiz:

$$\tau_n = \frac{n_0}{r_0} \quad (3.9)$$

elektron uchun va

$$\tau_p = \frac{p_0}{r_0} \quad (3.10)$$

kovak uchun

Agar yarimo'tkazgich tashqi ta'sirga uchrasa muvozanat buziladi. U xolda nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar uchun yashash vaqt:

$$\tau = \frac{1}{\frac{1}{\tau_n} + \frac{1}{\tau_p}} \quad (3.11)$$

Nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi vaqt buyicha quyidagi qonuniyatga ko'ra o'zgaradi:

$$\Delta n = \Delta n_0 e^{-\frac{t}{\tau}} \quad (3.12)$$

Bu erda  $\Delta n_0$ -zaryad tashuvchilarni tashqi ta'sir yo'qligidagi kontsentratsiyasi.

Kristallda erkin zaryad tashuvchilar xarakat qilganda o'z yo'lining qisqa qismidagina erkin yura oladi, so'ng boshqa atom yoki panjara nuqsoni bilan to'qnashib, o'z tezligini va xarakat y o'nalishini o'zgartiradi. Zaryad tashuvchini to'qnashuv sodir qilmasdan bosib o'tadigan ana shu y o'li erkin yugurish yo'li  $\ell_n$  deyiladi. Tajriba k 'rsatadiki,  $\ell_n$ juda kichik bo'lib,  $10^{-5}$  sm atrofida bo'lar ekan. Yarimo'tkazgich elektr maydonga qo'yilganda elektron maydon ta'sirida qo'shimcha  $\Delta\vartheta$  tezlik oladi. U xolda elektronning o'rtacha tezligi:

$$\bar{\vartheta} = \frac{\Delta\vartheta}{2} = \frac{e}{2m_n} \cdot \frac{\ell_n}{\vartheta_0} E = \mu_n E \quad (3.13)$$

$$\mu_n = \frac{e}{2m_n} \cdot \frac{\ell_n}{\vartheta_0} = \frac{\bar{\vartheta}}{E} \quad (3.14)$$

elektronning xarakatchanligi . Elektr maydon kuchlanganligi  $1B/cm$  bo'lganda elektronni olgan tezligi **elektronning xarakatchanligi** deyiladi. Xona temperaturasida elektronlar xarakatchanligi Si da  $1350 \text{ sm}^2 \cdot \text{V}^{-1} \cdot \text{s}^{-1}$ , InSb da  $9 \cdot 10^5 \text{ sm}^2 \cdot \text{V}^{-1} \cdot \text{s}^{-1}$ . (6.11) da  $\frac{l_n}{g_0} = \tau$  ekanligini xisobga olsak,  $\mu_n = \frac{e\tau}{2m_n}$  hosil bo'ladi.

Elektronlarni tezliklar bo'yicha taqsimotini xisobga olsak,

$$\mu_n = \frac{e\tau}{m_n} \quad (3.15)$$

hosil bo'ladi. Bu formulani yarimo'tkazgichdagi bitta yo'naliish uchun foydalansak,

$$(\mu_n)_i = \frac{e}{m_i} \tau$$

$(\mu_n)_i$ -elektronni yo'naliishlardan biri bo'ylab xarakatchanligi (masalan, ellipsoidal izoenergetik sirtni o' klaridan biri bo'ylab),  $m_i$ -effektiv massa tenzorini tegishli komponenti.

Erkin zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi kristall panjaraning hossalariga, unda kirishmalarining bor yoki yo'kligiga va temperaturaga bog'liqdir. Bunga sabab, zaryad tashuvchilarni sochilish jarayonidir. O'tkazuvchanlik elektronlari va kovaklari kristalldagi aralashmaning neytral atomlari va ionlarida, strukturani nuqtaviy nuqsonlarida, dislokatsiyalarda, panjarani issiqlik tebranishlarida (fononlarda) sochilishi mumkin.

Aralashma ionlarida sochilish zaryadlarni o'zaro ta'siri natijasi sifatida yo'zaga keladi. Sochuvchi ionlar o'zining maydoni bilan elektronlar va kovaklarni og'diradi, bunda zaryad tashuvchi qancha sekin xarakatlansa va aralashma ioni yaqinidan qancha yaqin o'tsa og'ish shuncha kuchli bo'ladi.

Aynimagan yarimo'tkazgichlarda aralashma ionlarida sochilish sodir bo'lganda zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi  $T^{3/2}$  ga proportsional bo'ladi:

$$\mu_{ap} = aT^{3/2} \quad (3.16)$$

Monokristallarda aralashma ionlarida sochilish past temperaturalar soxasida sochilishni asosiy mexanizmi.

Aynimagan yarimo'tkazgichlarda panjarani issiqlik tebranishlarida sochilish sodir bo'lganda zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi  $T^{-3/2}$  ga proportsional bo'ladi:

$$\mu_{uc} = bT^{-3/2} \quad (3.17)$$

Demak, o'rtacha va nisbatan katta temperaturalarda zaryad tashuvchilar xarakatchanligi panjarani issiqlik tebranishlaridagi sochilishlar tufayli kamayadi.

Dislokatsiyalarda sochilish bo'lganda

$$\mu_{uc} = cT^{-\frac{1}{2}} \quad (3.18)$$

Sochilishni turli mexanizmlari bir vaqtda kuzatilsa, sochilishni to'la extimolligi xar bir mexanizmdagi sochilish extimolliklarini yig'indisiga teng. Demak


$$\frac{1}{\tau} = \sum \frac{1}{\tau_i}$$

$\tau_i$  – partsial relaksatsiya vaqt.

Xarakatchanlik esa quyidagi ifodadan topiladi:

$$\frac{1}{\mu_n} = c_1 T^{-\frac{3}{2}} + c_2 T^{\frac{3}{2}} \quad (3.19)$$

$\mu = \mu(T)$  bog'lanish grafigi quyidagi rasmda keltirilgan. (3.3-rasm)



**3.3-rasm.**

Zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi faqat temperaturaga emas, balki aralashmalar kontsentratsiyasiga ham bog'liq. Aralashmalar kontsentratsiyasi ortishi bilan zaryad tashuvchilarni sochilishi ham kuchayadi va xarakatchanlik pasayadi.


#### **IV-BOB. Amorf dielektriklar elektro'tkazuvchanligining xususiyatlari, sakrovchan o'tkazuvchanligi. Polyaronlar.**

##### **4.1.Nuqsonning xosil qilish energiyasini baholash.**

Frenkel nuqsoni kristall panjarani bo'sh tuguni va tugunlararo atomdan tashqil topadi. Tugunlararo fazoda neytral atom emas, balki ion joylashadi. Demak, tugunda qarama-qarshi ishorali zaryadlangan vakansiya bo'ladi. 4.1-rasmida Frenkel nuqsoni mavjud yassi kristall panjara tasvirlangan. 4.2,a-rasmida


qandaydir yo'nalish bo'ylab atomlarni chiziqli zanjiri uchun potentsial chiziqlini ko'rinishi tasvirlangan. Chiziqling minimumlari panjarani tugunlarida joylashgan atomlar (ionlar) ga tegishli. 4.2,b-rasmida tugunlararo atomlar (ionlar)ga tegishli uncha chuqur bo'limgan minimumlar tasvirlangan. Ionlar tugundan tugunlararo fazoga o'tganda ularni energiyasi  $\Delta E$  ga ortadi. Bu energiya dissotsiatsiya energiyasi yoki **Frenkel nuqsonini** hosil bo'lish energiyasi deyiladi. Potentsial o'rani to'la chuqurliqi rasmda  $\Delta E_0$  orqali belgilangan.

**Shottki nuqsoni** atom (ion)ni dissotsiatsiyasi va jismni sirtiga o'tishi natijasida hosil bo'ladigan bo'sh tugun. Atom kristallarda Shottki nuqsoni bir xil, ionli kristallarda qo'shaloq bo'ladi. Ion kristallarda qo'shaloq Shottki nuqsoni hosil bo'lishida, tugunda musbat va manfiy zaryadli ionlar joylashadi. Shottki nuqsonlari 4.3, a va 4.3,b-rasmlarda tasvirlangan.




#### 4.1-rasm

Zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi fakat temperaturaga emas, balki aralashmalar kontsentratsiyasiga xam boglik. Aralashmalar kontsentratsiyasi ortishi bilan zaryad tashuvchilarni sochilishi xam kuchayadi va xarakatchanlik pasayadi. 4io2-rasmida Tq300 K da kremniyda aralashmalar kontsentratsiyasiga elektronlar va kovaklarni xarakatchanligini boglanishi keltirilgan.



## 4.2-rasm



## 4.3 -rasm

Atom kristallardagi Shottki nuqsonini hosil qilish uchun atomni kristalldan ajratib oladigan to'la energiyani yarmiga teng energiya  $\Delta E_u$ , Shottkini qo'shalok nuqsonini hosil qilish uchun  $\Delta E_p$  energiya talab qilinadi.

Dissotsiatsiyalanadigan ionlar (tugunlar) kontsentratsiyasini  $N$  bilan belgilaymiz. Xajm birligida  $n$ -ta ion tugunlararo, boshqalari  $N-n$  tugunlarda joylashsin. Frenkel nuqsonlari tugunlararo ionlar soniga teng bo'ladi.

Dissotsiatsiyalanish extimolligi  $\omega_d$ , ya'ni ionni tugundan tugunlararo fazoga o'tish extimolligi tugunda joylashgan ionlar soniga,  $e^{-\frac{\Delta E}{kT}}$  ga proportsional.

$$\omega_d = \alpha(N-n)e^{-\frac{\Delta E}{kT}} \quad (4.1)$$

$\alpha$  – proportsionallik koeffitsienti.

Teskari jarayon extimolligi  $\omega_r$ , ya'ni ionni bush tugunga qaytish extimolligi tugunlararo ionlar va bush tugunlar soniga proportsional:

$$\omega_r = \beta n \frac{n}{N} \quad (4.2)$$

Muvozanat sharoitida  $\omega_d = \omega_r$ ,  $n \ll N$  ekanligini xisobga olsak,

$$n = \sqrt{\frac{\alpha}{\beta}} Ne^{-\frac{\Delta E}{2kT}} \quad (4.3)$$

Lekin, bu ifodada  $\alpha$  va  $\beta$  koeffitsientlar noma'lum. Statistik usulni qo'llab,  $n$  kattalikni ma'lum kattaliklar orqali ifodalaymiz.

$N_1$ - tugunlararo o'rinalar kontsentratsiyasi,  $\omega_1$ -tugunlararo o'rinda  $n$  ta ionni joylashtirishi mumkin bo'lgan usullar soni.  $\omega$ - $N$  ta tugunda  $n$  vakant tugunni joylashtirishi mumkin bo'lgan usullar soni.

$n \ll N$  va  $n \ll N_1$  shart bajarilganda

$$n = \sqrt{NN_1} e^{-\frac{\Delta E}{2kT}} \quad (4.4)$$

Bu formula Frenkel nuqsoni va tugunlararo ionlar kontsentratsiyalarini ifodalaydi.

Atom kristallarda hosil bo'ladigan bir turli Shottki nuqsoni kontsentratsiyasini xisoblaylik.  $n_1$  - Shottki nuqsoni kontsentratsiyasi,  $\omega_u$  -  $n_1$  ta bir xil nuqsonni (vakansiyalar)  $N$  ta tugun bo'ylab joylashtirishi mumkin bo'lgan usullar soni.

$n_1 \ll N$  ta shart bajarilganda Shottkini bir xildagi nuqsonlari kontsentratsiyasi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$n_1 = Ne^{-\frac{\Delta E_u}{kT}} \quad (4.5)$$

Qo'shaloq Shottki nuqsoni kontsentratsiyasini xisoblaylik.  $N$  - dissotsiatsiyalana oladigan, ma'lum bir ishorali ionlar (tugunlar) kontsentratsiyasini,

$N'$  - dissotsiatsiyalana oladigan, boshqa bir ishorali ionlar (tugunlar) yoki sirtga o'ta oladigan ionlar kontsentratsiyasini belgilaylik.

$n_1 \ll N, n_1 \ll N'$  shart bajarilganda

$$n_1 = \sqrt{NN'} e^{-\frac{\Delta E_p}{2kT}} \quad (4.6)$$

Formulalardan ko'rinish turibdiki, qo'shalok Shottki nuqsoni Frenkel nuqsoni kontsentratsiyasiga o'xshab xisoblanadi, faqat farqi  $\Delta E$ ,  $\Delta E_p$  energiya qiymatlarida va  $N, N'$  kattaliklarni qiymatlarida.

Shottki nuqsonini hosil bo'lishi modda zichligini kamaytiradi, chunki u namuna massasini oshirmsandan xajmni ortishiga olib keladi. Frenkel nuqsonini hosil bo'lishi esa modda zichligini sezilarli o'zgarishiga olib kelmaydi.

Bir nuqsonga to'g'ri keladigan nuqsonni hosil bo'lish energiyasini kattaligi 1eV tartibida. Masalan,  $NaCl$  uchun  $\Delta E_p = 2.02$  eV. Aktivlanish energiyasining bu qiymatiga xona temperaturasida  $n_1 \approx 10^6 cm^{-3}$  kontsentratsiyadagi nuqson to'g'ri keladi.

## 4.2. Ion o'tkazuvchanlik. Ion o'tkazuvchanlikning aktivatsiya energiyasi.

Ionli o'tkazuvchanlik Frenkel va Shottki nuqsonlarini mavjudligi bilan aniqlanadi. Ionli o'tkazuvchanlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\sigma = \sum_i q_i n_i \mu_i \quad (4.7)$$

$q_i$ -zaryad,  $n_i$  - kontsentratsiya,  $\mu_i$  - i-chi zaryad tashuvchini xarakatchanligi. Zaryad tashuvchilarni xarakatchanligini aniqlaymiz. Doimiy tashqi maydon qo'yilganda potentsial chiziqni xarakteri o'zgaradi. Agar maydon bir jinsli bo'lsa, bu maydonda ionni potentsial energiyasi koordinataga chiziqli bog'liq bo'ladi. Bu xolda potentsial relef zonnnaviy sxemaga o'xshab egiladi. (4.4-rasm) Potentsial chiziqni rasmdagidek egilishi musbat ion (cation) ga mos keladi: maydon yo'naliishida potentsial barer  $q\epsilon a/2$  ga teng miqdorga pasayadi, maydonga qarshi yo'naliishda esa shu miqdorga ortadi. Natijada kationlarni maydon yo'naliishida ko'chishi engillashadi, maydonga qarshi yo'naliishida qiyinlashadi. Manfiy ionlarni potentsial energiyasini o'zgarishi aksincha xarakterda bo'ladi.

Xarakatchanlikni xisoblashda tugunlararo ionlar xarakatini o'rganish masalasini ko'ramiz. Tugunlararo atom uchun potentsial relefni ko'ramiz. Potentsial relefda o'ra chuqurligi  $\omega$  bo'lsin.  $a$  masofada joylashgan tugunlararo ion elektr maydonda vertikal bo'ylab  $q\epsilon a$  kattalikka siljiydi. Natijada,  $\epsilon = 0$  bo'lgandagi xolatga nisbatan birinchi minimum  $q\epsilon a/2$  kattalikka ko'tariladi, ikkinchi esa shu kattalikka tushadi, ya'ni tugunlararo kationlar uchun potentsial barer maydon yo'naliishida  $q\epsilon a/2$  ga pasayadi, maydonga qarshi yo'naliishda esa shu kattalikka ortadi.

Agar tugunlararo o'rnlarda ionlarni issiqlik tebranishlari chastotasini  $\nu_0$  deb olsak, tashqi elektr maydon mavjud bo'lmasganda issiqlik xarakati natijasida sodir bo'ladigan qo'shni bush tugunlararo o'ringa sakrashlar soni quyidagicha bo'ladi:

$$\nu = \nu_0 e^{-\frac{\omega}{kT}} \quad (4.8)$$

Bu ifodani berilgan ifoda uchun yozsak,

$$\nu' = \frac{\nu_0}{6} e^{-\frac{\omega}{kT}} \quad (4.9)$$

Mos ravishda kationlarni maydon bo'ylab, sakrashlar chastotasi

$$\nu_1 = \frac{\nu_0}{6} e^{-\frac{\omega-q\epsilon a/2}{kT}}$$

(7.10)

Maydonga qarshi sakrashlar soni

$$\nu_1 = \frac{\nu_0}{6} e^{-\frac{\omega+q\epsilon a/2}{kT}} \quad (4.11)$$

Bu ifodalarni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\nu_1 = \frac{\nu_0}{6} e^{-\frac{\omega}{kT}} e^{\frac{q\epsilon a}{2kT}} \quad (4.12)$$

$$\nu_2 = \frac{\nu_0}{6} e^{-\frac{\omega}{kT}} e^{-\frac{q\epsilon a}{2kT}} \quad (4.13)$$

Maydon kuchlanganligi uncha katta emas, ya’ni  $q\epsilon a \ll 2kT$  tengsizlik bajariladi deb xisoblab, eksponentani qatorga yoyamiz va dastlabki ikkita xad bilan cheklanamiz:

$$e^{\pm \frac{q\epsilon a}{2kT}} = 1 \pm \frac{q\epsilon a}{2kT} \quad (4.14)$$

Elektr maydonda dreyf tezligi  $\nu_1$  va  $\nu_2$  kattaliklar farqini panjara doimiysiga ko’paytmasiga teng:

$$\vartheta_{dp=}(\vartheta_1 - \vartheta_2)a = \frac{qa^2\nu_0\epsilon}{6kT} e^{-\frac{\omega}{kT}} \quad (4.15)$$

Bu erda xarakatchanlik

$$\mu = \frac{qa^2\nu_0}{6kT} e^{-\frac{\omega}{kT}} \quad (7.16)$$


Agar elektroo’tkazuvchanlik Frenkel nuqsonlari tufayli yo’zaga kelsa, monokristallda o’tkazuvchanlik

$$\sigma = \frac{q^2a^2\nu_0}{6kT} \sqrt{NN_1} e^{-\frac{\Delta E + \omega}{2kT}} \quad (4.17)$$


Nuqsonlar soni katta bo’lgan polikristall uchun elektroo’tkazuvchanlik:

$$\sigma = \frac{q^2a^2\nu_0}{6kT} Ne^{-\frac{\Delta E + \omega}{kT}} \quad (4.18)$$


$\lg \sigma = f(1/T)$  bog’lanish chizigi bir qancha sinik chiziqlardan iborat, yuqori temperaturalarda xususiy ionli elektro’tkazuvchanlik kuzatiladi, bunda zaryadlar ko’chishida panjara ionlari ishtirok etadi. Undan tashkari elektro’tkazuvchanlik aralashma ionlari vositasida zaryad ko’chirilishi natijasida ham hosil bo’ladi. Panjara ionlari uchun potentsial o’ra aralashma ionlarinikiga nisbatan chuqurroq bo’ladi, shuning uchun xususiy ionli elektro’tkazuvchanlik yuqori temperaturalarda kuzatiladi. (4.5, a-rasm)



**4.4-rasm**



a)



b)

**4.5 -rasm**

Temperaturani ko'tarilishi natijasida potentsial barer balandligini pasayishi natijasida grafikda qarama-qarshi tomonga sinish kuzatiladi. (4.5, b-rasm)

Kristallarda o'tkazuvchanlikni ionli tashqil etuvchisidan tashqari, ko'pincha elektronli tashqil etuvchisi ham kuzatiladi.


### 4.3. Kuchli elektr maydonlardagi xodisalar.

Kuchli elektr maydonda elektronlar ikki ketma-ket to'kqashishlari orasida maydondan olgan energiyani to'qnashish vaqtida kristall panjarasiga tamomila berib ulgurmasligi mumkin. Bu energiyaning qolgan qismi elektronlar orasida o'zaro taqsimlanib, ularning tartibsiz xarakat energiyasini oshiradi, ya'ni elektronlarning temperaturasi panjara temperaturasidan yuqori bo'lib qoladi. Bu xolda elektronlarning energiya bo'yicha taqsimoti funksiyasi ham elektr maydoniga bog'liq ravishda o'zgargan bo'ladi.

Kuchli elektr maydonning ta'siri yarimo'tkazgichdan o'tayotgan tok va kuchlanish orasidagi chizigiy bog'lanishni buzadi, ya'ni  $j = \sigma \epsilon$  tok zichligi

ifodasi dagi  $\sigma$ -elektro'tkazuvchanlik elektr maydoniga bog'liq bo'lib qoladi. Aralashmali yarimo'tkazgich uchun  $\sigma = en\mu_n$  o'tkazuvchanlik ifodasi dagi  $\sigma$  ni o'zgarishi zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi  $n$  ni va xarakatchanlik  $\mu_n$  ni o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi. Zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasini va xarakatchanligini kuchli elektr maydon ta'sirida o'zgarishini ko'rib o'tamiz.

Kuchli elektr maydonda zaryad tashuvchilarni ortiqcha kontsentratsiyasini vujudga kelishi natijasida dielektrikni yoki yarimo'tkazgich barer qatlamini teshilishi sodir bo'ladi. O'tkazuvchan zonasiga erkin zaryad tashuvchilarni beruvchi donor-atomni energetik sxemasini ko'ramiz. Donor-atom qo'shnilar bilan ta'sirlashmaydi, ya'ni uni erkin deb xisoblab, bu atomni elektronlari uchun potentsial o'rani 4.6-rasmida kulon maydoniga simmetrik chiziq sifatida punktir chiziq bilan tasvirlash mumkin.



**4.6-rasm**

Atomda elektronlarni to'la energiyasi  $E_{\Delta}$  satxlar bilan aniqlanadi, bu satxlarni eng yuqorisi o'tkazuvchanlik zonasini tubidan  $\Delta E_{\Delta}$  masofada yotadi. Demak,

$\Delta E_{\Delta}$ -donorlarni ionlanish energiyasi. Tashqi maydon berilganda donor-atomlarni elektronlari qo'shimcha potentsial energiya oladi.

$$U_{\epsilon} = e\epsilon r \quad (4.19)$$

Tashqi maydon va kulon maydoni mavjudligida yig'indi potentsial o'rani ko'rinishi 1 va 2 chiziqlar bilan tasvirlanadi. Tashqi maydon yo'nalishida elektronlar uchun kulon barer ko'tariladi (1 chiziq), qarama-qarshi yo'nalishda esa pasayadi(2 chiziq). Ikkinchi xolda elektronlar uchun potentsial barer  $\Delta E$  ga kamayadi, barerni  $r$  ga bog'lanish xarakteri o'zgaradi,  $|r| = r_0$  da ekstremum paydo bo'ladi. Bu shuni bildiradiki,  $\Delta E_{\Delta}$  ionlanish energiyasi  $\Delta E$  kattalikka kamayadi.

Shunday qilib, tashqi maydon bo'limganda aralashmali, muvozanatiy kontsentratsiya quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$n_0 = \sqrt{\frac{N_c N_{\Delta}}{2}} e^{-\frac{\Delta E_{\Delta}}{2kT}} = A e^{-\frac{\Delta E_{\Delta}}{2kT}} \quad (4.20)$$

Maydon qo'yilganda

$$n = Ae^{-\frac{\Delta E_d - \Delta E}{2kT}} = n_0 e^{\frac{\Delta E}{2kT}} \quad (4.21)$$

Natijada quyidagiga ega bo'lamiz:  $n > n_0, \Delta E > 0$

$\Delta E$  kattalikni topamiz. 8.1-rasmda (2 chiziq) tasvirlangan potentsial chiziq analitik ravishda quyidagicha ifodalanadi:

$$U = -\frac{e^2}{4\pi\varepsilon\varepsilon_0 r} - e\varepsilon r \quad (4.22)$$

$\Delta E$  kattalikni anuqlash masalasi bu chiziqni ekstremumini  $r$  ni funktsiyasi sifatida topishga olib keladi. Demak,  $\partial U / \partial r$  hosilani topish va uni nolga tenglash zarur.

$$\frac{\partial U}{\partial r} = \frac{e^2}{4\pi\varepsilon\varepsilon_0 r^2} - e\varepsilon = 0 \quad (4.23)$$

Bu erdan (4.23) tenglamani qanoatlantiruvchi  $r_0$  ni topamiz:

$$r_0 = \sqrt{\frac{e}{4\pi\varepsilon\varepsilon_0\varepsilon}} \quad (4.24)$$

(4.22) da  $r$  ni o'rniga (4.24) dan topilgan  $r_0$  ni qo'ysak,  $|U| = \Delta E$  ni topamiz:

$$\Delta E = \frac{2e\sqrt{e\varepsilon}}{\sqrt{4\pi\varepsilon\varepsilon_0}} \quad (4.25)$$

(4.20) ifoda bo'yicha

$$n = n_0 e^{\frac{e\sqrt{e\varepsilon}}{\sqrt{4\pi\varepsilon\varepsilon_0}kT}} = n_0 e^{\alpha\sqrt{\varepsilon}} \quad (4.26)$$

$$\text{Bu erda, } \alpha = \frac{e}{kT} \sqrt{\frac{e}{4\pi\varepsilon\varepsilon_0}}$$

(8.8) ifodadan kelib chiqadiki,  $\varepsilon$  ortishi bilan  $n$  zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi keskin ortadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu bog'lanish maydonni kritik qiymati  $\varepsilon_{kp} \approx 10^3 - 10^4 B/cm$  dan boshlab kuzatiladi, kuchsiz maydonlarda esa kontsentratsiya deyarli maydonga bog'liq bo'lmaydi. Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariya **Frenkel nazariyasidir**.

#### 4.4. Dielektriklar teshilishi. Dielektriklar teshilish mexanizmlari.


Elektr maydon elektron gazni qizdirishi natijasida, ma'lum bir sharoitda zarbiy ionlanish kuzatiladi. Elektronlarni erkin yugurish yul uzunliklari davrida to'plagan energiyalari moddani ionlashtirish uchun etarli bo'lsa, elektron-kovak juftlari hosil bo'ladi va maydon  $\varepsilon_{meu}$  kiymatiga erishganda kontsentratsiya kuchkisimon ortadi. Bu teshilishga olib keladi.

Zarbiy ionlanish yo'zaga keladigan maydon kuchlanganligi quyidagi formuladan topiladi;

$$e \frac{M}{m} \varepsilon_{kp} l = \Delta E_0 \quad (4.27)$$

$M, m$ -o'zaro to'qnashuvchi ion va elektron massalari;  $l$ -erkin yugurish yo'l uzunligi;  $\Delta E$ -taqiqlangan zona kengligi. Kritik maydon qiymati  $10^5\text{-}10^6$  VG'sm.

Zonalarni elektr maydonda egilishi zonalararo tunnellanish uchun, shuningdek aralashma satxlaridan yoki aralashma satxlariga tunnellanish uchun potentsial imkoniyat hosil qiladi. Agar maydon chapdan o'ngga yo'nalgan bo'lsa (4.7-rasm), zonalar shunday egiladiki, bunda chap qismi o'ngdan past bo'ladi (elektronni to'la energiyasi AS,  $A_1S_1$  gorizontal chiziqlar bilan tasvirlanadi).



4.7-rasm

A nuqtadan, ya'ni o'tkazuvchanlik zonasini tubidan S nuqtaga, ya'ni valent zona shipiga o'tish, va teskari o'tish uchun elektron VS balandlikdagi va AS kenglikdagi uchburchak barerdan tunnellanishi kerak. Bu xolda to'la energiya E o'zgarmay qoladi. Ko'rsatilgan barerdan tunnellanish extimolligi barerni shaffoflik ko'effitsienti bilan xarakterlanadi. Valent zonada elektronlar kontsentratsiyasi katta bo'lgani uchun valent zonadan o'tkazuvchanlik zonasiga tunnellanish imkoniyati ko'prok. Buning natijasida o'tkazuvchanlik elektronlari va kovaklari kontsentratsiyasi ortadi. Elektr maydon  $\varepsilon_{meu}$  kiymatidan kichik bo'lgan davrlarda generatsiya rekombinatsiya bilan muvozanatda bo'ladi. Bu xolda  $L = AC$  barer kengligi

$$e\varepsilon L = \Delta E_0 \quad (4.28)$$

shartdan aniqlanadi. Bu erda,  $\Delta E_0$ -taqiqlangan zona kengligiga teng bo'lgan barer balandligi.

Barerni shaffofligi quyidagi ifodadanani aniqlanadi:

$$D = e^{-\frac{4\pi}{h} \sqrt{2m} \int_0^L \sqrt{U(x) - E} dx} \quad (4.29)$$

VS barer balandligi  $\Delta E_0$  ga teng, shuning uchun

$$U_0 - E = \Delta E_0 = e\varepsilon L \quad (4.30)$$

Bu erdan,

$$L = \frac{U_0 - E}{e\varepsilon} \quad (4.31)$$

(4.29) ifodadagi  $U(x)$  ni quyidagi ko'rinishda tasavvur qilish mumkin:

$$U(x) = U_0 - e\varepsilon x \quad (4.32)$$

$$U(x) - E = U_0 - E - e\varepsilon x = e\varepsilon L - e\varepsilon x = e\varepsilon(L - x) \quad (4.33)$$

$$\int_0^L \sqrt{U(x) - E} dx = \sqrt{e\varepsilon} \int_0^L \sqrt{L - x} dx = \frac{2}{3} \sqrt{e\varepsilon} L^{3/2} = \frac{2}{3} \frac{(\Delta E_0)^{3/2}}{e\varepsilon} \quad (4.34)$$

Demak, barerni shaffoflik koeffitsienti


$$D = e^{-\frac{8\pi\sqrt{2m}(\Delta E_0)^{3/2}}{3eh\varepsilon}} \quad (4.35)$$

Formuladan ko'riniib turibdiki, shaffoflik koeffitsienti  $\Delta E_0$  va  $\varepsilon$  ga bog'liq ravishda o'zgarar ekan. Xisoblashlar kursatadiki, germaniy, kremniy va boshqa yarimo'tkazgichlarda  $\varepsilon \approx 10^7 B/cm$  maydon kiymatlardagina elektronni tunnellanishi sodir bo'lar ekan.  $E_{\mathcal{A}}$  aralashma donor satxidan o'tkazuvchanlik zonasiga yoki valent zonadan  $E_a$  aralashma aktseptor satxiga tunnellanish kuchsizroq maydonlarda, ya'ni  $\varepsilon \approx 10^6 B/cm$  maydon qiymatlarda ham amalga oshadi. Yuqorida aytiganlar yuqoriomli yarimo'tkazgichlar uchun urinli, chunki bunday kuchli maydonlarni pastomli yarimo'tkazgichlarda hosil qilish mumkin emas.

Demak, kuchli maydonlarda zaryad tashuvchilarni kontsentratsiyasi ortib ketadi, elektr maydon kuchlanganligi qiymati  $\varepsilon_{meu}$  ga etganda elektr teshilish sodir bo'ladi, bunda zarbiy ionlanish yoki tunnellanish xisobiga zaryad tashuvchilarni kuchkisi va o'tkazuvchanlikni keskin ortishi sodir bo'ladi. Bu ko'p miqdorda

issiqlik ajralib chiqishiga va namunani buzilishiga olib keladi. Yaxshi dielektriklarda elektronlar va kovaklarni muvozanatiy kontsentratsiyasi tipik yarimo'tkazgichlarnikidan ko'p tartibga kichik. Dielektriklarda solishtirma o'tkazuvchanlik ( $\sigma \leq 10^{-14} \text{ Om}^{-1} \cdot \text{cm}^{-1}$ ) juda kichik, solishtirma xajmiy qarshilik juda yuqori (masalan  $\rho_v = 10^{14} - 10^{18} \text{ Om} \cdot \text{cm}$ ). Teshilish kuchlanishiga erishilganda  $10^{-7} - 10^{-8} \text{ C}$  davom etadigan elektr teshilish kuzatiladi va dielektrik buziladi.

Istalgan tipdagи barer katlamga etarlicha yuqori teskari kuchlanish quyilganda zarbiy ionlanish va zaryad tashuvchilar tunnellanishi natijasida elektr teshilish sodir bo'ladi. Barer qatlamdagи elektr teshilish natijasida kuchlanish o'zgarmaganda tokni keskin ortishi sodir bo'ladi (4.8-rasm)



**4.8-rasm**

Issiqlik teshilishi xodisasini mazmuni shundayki, bunda elektr maydonda material shunday temperaturagacha kizadiki, natijada u eriydi. Issiqlik teshilishida sistemadan issiqlik berilishi unda ajralayotgan issiqliknin kompensatsiyalay olmaydi, natijada zaryad tashuvchilar termik ionlashishi tufayli tokni ortishi kuzatiladi va issiqlik teshilishi sodir bo'ladi. Barer qatlamlarla issiqlik teshilishi katta teskari toklar yo'zaga keladigan sharoitda kuzatiladi. 8.3-rasm rasmda issiqlik teshilishida  $p-n$  o'tishni V.A.X sini teskari tarmogi ko'rsatilgan.

Kuchli elektr maydonda zaryad tashuvchilar xarakatchanligini o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

Yarimo'tkazgichlarda elektronlar xarakatchanligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\mu_n = \frac{e}{m_{\sigma n}} \langle \tau \rangle \quad (4.36)$$

Bu erda  $\langle \tau \rangle$ - taxminan o'rtacha erkin yugurish vaqtiga teng bo'lган o'rtacha relaksatsiya vaqt, ya'ni  $\langle \tau \rangle \approx \frac{l}{g}$ , bu erda  $l$  - o'rtacha erkin yugurish yo'l uzunligi;  $g$ -elektron tezligi bo'lib, kuchsiz maydonlarda tezlikni issiqlik tashqil etuvchisi bilan ifodalanadi, ya'ni  $g = g_{uc}$ .

Kuchli elektr maydonlarda dreyf tezligi ortadi va  $\langle \tau \rangle$  ni anuqlashda uni xisobga olmaslik mumkin emas. Natijada, xarakatchanlik maydon kuchlanganligiga bog'liq bulib koladi.

Atom panjarani akustik tarmogini issiqlik tebranishlarida zaryad tashuvchilarni sochilishi sodir bo'lganda xarakatchanlik maydon kuchlanganligidan olingan kvadrat ildizga teskari proportsional:

$$\mu \approx \varepsilon^{\frac{1}{2}} \quad (4.37)$$

Ionli panjarani optik tebranishlaridagi sochilish xolida xarakatchanlik quyidagicha bo'ladi:

$$\mu \approx \varepsilon^{\frac{1}{2}} \quad (4.38)$$

Yuqoridagilardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Kuchli elektr maydoni ta'sirida yarimo'tkazgichlarda qizigan elektronlar hosil bo'ladi.
1. Kuchli elektr maydonida kirishma atomlarining ionlanish energiyasi kamayadi.
2. O'tkazuvchanlik elektronlari kuchli elektr maydon ta'sirida katta energiya jamgarib valent zonadagi yoki kirishma atomlarining bog'langan elektronlarini zarb bilan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tkazadi.

## **V-BOB. Yarimo'tkazgichlar va dielektriklarda kinetik xodisalar.**

### **5.1. Galvonamagnit hodisalar.**

Elektr maydon, magnit maydon ta'sirida yoki temperaturalar farqi natijasida yo'zaga keladigan erkin zaryad tashuvchilarni xarakati bilan bog'liq bo'lган xodisalar kinetik xodisalar deyiladi. Bu xodisalarga elektro'tkazuvchanlik, termoelektr, galvanomagnit va termomagnit xodisalar kiradi.

Galvanomagnit xodisalardan biri Xoll effektini ko'ramiz. Galvanomagnit effekt elektr maydon va magnit maydon bir vaqtda ta'sir ko'rsatganda yo'zaga keladigan kinetik xodisadir. Xoll effektida namunani ko'ndalang magnit maydonga joylashtirganda tokga perpendikulyar yo'naliishda e.yu.k hosil bo'ladi.

To'g'ri parallelepiped shaklidagi yarimo'tkazgich namunasini ko'ramiz. Elektr toki chapdan o'ngga oqsin. Agar tok kovaklar tomonidan hosil qilinsa, dreyf tezligi  $\vartheta_{dp}$  ham tok yo'naliishida, agar tok elektronlar tomonidan hosil qilinsa dreyf tezligi  $\vartheta_{dp}$  tokga qarama-qarshi bo'ladi.

Yarimo'tkazgichni induktsiya  $B$  tokga perpendikulyar bo'ladigan qilib, tashqi magnit maydonga joylashtiramiz. Tashqi magnit maydon tomonidan ta'sir qiladigan Lorents kuchi quyidagicha:

$$F_x = e[\vartheta_{\varphi} B] \quad (5.1)$$

Kovaklar uchun formuladagi vektor ko'paytma va lorents kuchi pastga, elektronlar uchun yuqoriga yo'nalgan. Magnit maydon ta'sirida agar tok tashuvchi kovaklar bo'lganda yarimo'tkazgichni pastki tomoni kovaklarga boyiydi, yuqori tomoni kambagallashadi, agar tok tashuvchilar elektronlar bo'lsa yarimo'tkazgichni pastki tomoni elektronlarga boyiydi, yuqori tomoni kambagallashadi. Demak, p-tip yarimo'tkazgichni pastki tomoni musbat, yuqori tomoni manfiy zaryadlanadi va pastdan yuqoriga yo'nalgan xoll maydoni hosil bo'ladi. N-tip yarimo'tkazgichni pastki tomoni manfiy, yuqori tomoni musbat zaryadlanadi va xoll maydoni yuqoridan pastga yo'naladi.(5.1-rasm)

Yarimo'tkazgichni chegaralangan namunasi uchun magnit maydon tomonidan og'dirilgan zaryad tashuvchilarni qarama-qarshi tomonlarda xoll maydoni bilan Lorents kuchi muvozanatlashguncha davom qiladi.

$$F_x = e\varepsilon_x \quad (5.2)$$

$$\text{yoki} \quad e\vartheta_{\varphi} B = e\varepsilon_x$$

Tenglamani xar ikkala tomonini molekulalar kontsentratsiyasiga ko'paytiramiz:

$$e\vartheta_{\varphi} B n = e\varepsilon_x n \quad (5.3)$$

$$e\vartheta_{\varphi} n = \frac{I_n}{ab} = j_n \quad (5.4)$$

$a, b$ -namunani chiziqli o'lchamlari.

$$\text{Shunday qilib,} \quad \varepsilon_{xn} = \frac{1}{en} \frac{I_n B}{ab} = \frac{1}{en} j_n B \quad (5.5)$$

$\varepsilon_{xn} B = V_{xn}$  potentsiallar ayirmasi quyidagicha bo'ladi:

$$V_{xn} = \frac{1}{en} \frac{I_n B}{a} = \frac{1}{en} j_n B b \quad (5.6)$$

Agar aynimagan yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarni tezliklar bo'yicha taqsimotini xisobga olsak,

$$V_{xn} = \frac{A}{en} \frac{I_n B}{a} = \frac{1}{en} j_n B b \quad (5.7)$$

Bu erda belgilash kiritamiz:

$$R_{xn} = \frac{A}{en} \quad (5.8)$$

$R_{xn}$ -Xoll koeffitsienti,  $A$  - Xoll faktori deyiladi.

Elektronlar panjarani akustik tebranishlarida sochilganda

$$A = \frac{3\pi}{8} = 1,18 \quad (5.9)$$


Elektronlar panjarani akustik tebranishlarida sochilganda

$$A = \frac{315\pi}{512} = 1,93 \quad (5.10)$$

(5.8) ni xisobga olsak, (5.7) ifoda quyidagicha yoziladi:

$$n \text{ tip yarimo'tkazgich uchun } V_{xn} = R_{xn} \frac{I_n B}{a}, \quad R_{xn} < 0 \quad (5.11)$$

$$p \text{ tip yarimo'tkazgich uchun } V_{xp} = R_{xp} \frac{I_p B}{a}, \quad R_{xp} > 0 \quad (5.12)$$



### 5.1-rasm

Xoll effektidan foydalanib, magnit maydon kuchlanganligini (Xoll datchiklar), zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasini, materialni tipini, zaryad tashuvchilarni harakatchanligini aniqlash mumkin, shuningdek Xoll effekti yordamida elektr tebranishlar hosil qilish, modulyatsiyalash va demodulyatsiyalash mumkin.

## 5.2. Termo elektrik hodisalar. Issiqlik o'tkazuvchanlik.

Agar kristallda temperatura gradienti hosil qilinsa zaryad tashuvchilarni yo'nalgan harakati vujudga keladi, bu hodisa **termoelektr hodisa** deyiladi. Termoelektr xodisaga Zeebek, Pelte, Tomson effektlari kiradi.

Zeebek effektida ikki xar xil qattiq jismlardan tashqil topgan zanjirda payvandlarni temperaturalar farqi tufayli termo e.yu.k hosil bo'ladi. Termo e.yu.k temperaturalar farqiga va material turiga bog'liq bo'lib,  $\alpha$  koeffitsient bilan xarakterlanadi:


$$\alpha = \frac{d\varepsilon}{dT} \quad (5.13)$$

$\alpha$  – solishtirma termo e.yu.k bo'lib, temperaturalar farqi birga teng bo'lgandagi termo e.yu.k ni bildiradi.  $dT$  – payvndlarni temperaturalar farqi,  $d\varepsilon$  – termo e.yu.k

Chekli temperaturalar farqida

$$\varepsilon = \int_{T_1}^{T_2} \alpha(T) dT \quad (5.14)$$


5.2 rasmida yarimo'tkazgich ikkala tomondan metall bilan payvandlangan. Kontaktlar  $T_1$  va  $T_2$  temperaturalarga ega. Zanjirdan kattaligi termo e.yu.k ni kiymati bilan aniqlanadiigan tok o'tadi.



5.2 rasm

$T_2 > T_1$  bo'lganda  $n_{02} \gg n_{01}$  va  $p_{02} \gg p_{01}$ . Demak temperaturalar farqi yaratilganda, yarimo'tkazgichni temperaturasi yuqori uchidan temperaturasi past uchiga qarab, zaryad tashuvchilarni diffuziyasi vujudga keladi. Natijada yarimo'tkazgichda xajmiy zaryad vujudga keladi va bu xajmiy zaryad diffuziya yo'naliishiga qarama-qarshi yo'nalgan maydon hosil qiladi. Biroz vaqt dan keyin dinamik muvozanat o'rnatiladi. Bu xolda zaryad tashuvchilarni diffuzion toki xajmiy zaryadlar hosil qiladigan ichki maydon vujudga keltiradigan dreyf tok bilan muvozanatlashadi.

Zaryad tashuvchilarni diffuziyasi tufayli sovuq kontakt kovakli o'tkazuvchanlikli yarimo'tkazgich uchun musbat, elektronli o'tkazuvchanlikli yarimo'tkazgich uchun manfiy zaryadlanadi. Bunga asoslanib, termozond yordamida yarimo'tkazgich tipini anuqlash mumkin. (5.3-rasm)




5.3-rasm.

Zondlarni biri qizdiriladi, boshqasi esa xona temperaturasida. Agar qizdiriladigan zond musbat elektrod bo'lsa, yarimo'tkazgich n-tip, agar manfiy bo'lsa yarimo'tkazgich p-tip bo'ladi.

Pelte effekti doimiy tok o'tayotgan ikki xil materialni payvandlarini qizdirganda yoki sovitganda sodir bo'ladi.

Pelte issiqligi zaryad tashuvchilarni bir materialdan boshqasiga o'tishi tufayli, ularni energiyasini bir qismi panjaraga berilishi natijasida ajralib chiqadi.

n-tip yarimo'tkazgich –metall kontakti uchun zona diagrammasi 5.4-rasmida tasvirlangan.



**5.4-rasm**

Rasmda ko'rsatilgan yo'nalishda elektr maydon ko'yilganda elektronlar o'tkazuvchanlik zonasidan metallga o'tadi. Bunda elektronlar energiyasi  $\Delta E_k$  kattalikka kamayadi.

Bu kattalik  $e$  miqdordagi zaryad miqdori kuchirilganda ajralib chiqadigan issiqlikga teng bo'lib, u **Pelte issiqligi** deb ataladi.

Pelte issiqligi quyidagi formula bilan topiladi:

$$\Delta E_k = Q_{\Pi} = \Pi j t \quad (5.15)$$

$\Pi$  – Pelte koeffitsienti.

Agar qarama-qarshi yo'nalishda tok o'tkazilsa, ya'ni elektronlarni Fermi satxidan yarimo'tkazgichda o'tkazuvchanlik zonasidagi qandaydir satxga ko'chirilsa elektronlarni  $\Delta E_k$  kattalikka qizdirish kerak. Bunday qizdirish panjara tomonidan energiya berilishi, ya'ni payvandni sovishi xisobiga amalga oshadi.

Tomson effekti temperaturalar gradienti mavjud bo'lган bir jinsli yarimo'tkazgich bo'ylab doimiy tok o'tganda Joul-Lents issiqligiga qo'shimcha issiqliknini ajralishi yoki yutilishi. Bu issiqlik yarimo'tkazgich bo'ylab oqib o'tayotgan zaryad miqdoriga va temperaturalar farqiga proportional:

$$Q_T = I \int_T^{T'} \tau_T dT \quad (5.16)$$

$\tau_T$  – Tomson koeffitsienti.

Berilgan moddani termoelektr xususiyatlarini xarakterlovchi  $\alpha, \Pi, \tau_T$  koeffitsientlar

o'zaro termodinamik munosabatlar orqali bog'langan.

.

$$\Pi = \alpha T \quad (5.17)$$

$$\tau_{T_1-T_2} = \tau_T = T \frac{d\alpha}{dT} \quad (5.18)$$

Ma'lumki, hamma moddalar issiqlik o'tkazadi. Bu xodisa **issiqlik o'tkazuvchanlik** deyiladi. Agar moddada  $\nabla T$  temperaturalar gradienti mavjud bo'lsa,  $\nabla T$  ga qarama-qarshi yo'nalishda  $W$  energiya oqimi vujudga keladi.

$$W = -\chi \nabla T \quad (5.19)$$

$\chi = \frac{|W|}{\nabla T}$  issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti bo'lib, miqdor jixatdan vaqt birligi ichida uchlarida 1 gradusga teng temperaturalar farqi hosil qilingan namunani birlik kesimidan oqib o'tuvchi energiya miqdoriga teng.

Qattiq jismda issiqlik energiyasi erkin zaryad tashuvchilar va fononlar tomonidan amalga oshiriladi. Zaryad tashuvchilar xarakati tufayli hosil qilinadigan issiqlik o'tkazuvchanlik elektronli yoki kovakli issiqlik o'tkazuvchanlik deyiladi.

Panjara tebranishlari tufayli hosil qilinadigan issiqlik o'tkazuvchanlik panjaraviy (fonon) issiqlik o'tkazuvchanlik deyiladi. Demak, qattiq jismni to'la issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti  $\chi_L$  panjaraviy (fonon) va  $\chi_e$  elektronli issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientlari yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$\chi = \chi_L + \chi_e \quad (5.20)$$

Dielektriklarda panjaraviy issiqlik o'tkazuvchanlik asosiy: ularda  $\chi_L \gg \chi_e$

Metallarda panjaraviy issiqlik o'tkazuvchanlikni xissasi oz bo'ladi:  $\chi_L \ll \chi_e$

Panjaraviy (fonon) issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\chi_L = \frac{1}{3} C g_{moyu} l_L \quad (5.21)$$

Bu erda, S-panjara issiqlik o'tkazuvchanligi,  $g_{moyu}$ - fonon tezligi (tovush tezligi)

$$\chi_e = \frac{2k^2 T}{e} n \mu_n = 2 \left( \frac{k}{e} \right)^2 \sigma T \quad (5.22)$$

Demak, erkin zaryad tashuvchilar xarakati tufayli hosil qilingan issiqlik o'tkazuvchanlik moddani temperaturasi va solishtirma o'tkazuvchanlik bilan aniqlanadi.

(5.22) ifodadan

$$\frac{\chi_e}{\sigma} = 2 \left( \frac{k}{e} \right)^2 T \quad (9.23)$$


Bu ifoda **Videman-Frants qonunini** ifodalaydi.

Termoelektr xodisalar texnikada keng kullaniladi. Termo e.yu.k dan issiqlik energiyasini elektr energiyaga aylantirib beruvchi termoelektr generatorlar kurilmalari uchun foydalaniladi. Pelte effektidan turli xil termoelektrik sovutuvchi kurilmalarda foydalaniladi.

### 5.3. Termomagnitik samaralar.

Temperaturalar farqiga ega yarimo'tkazgich tashqi magnit maydonga joylashtirilganda turli xil termomagnit effektlar sodir bo'ladi.

**Nernst-Ettingsgao'zenni** ko'ndalang effektida  $B$  magnit maydon va  $\nabla T$  temperaturalar gradientiga perpendikulyar yo'naliishda elektr maydon  $\varepsilon$  hosil bo'ladi (5.5-rasm).




5.5-rasm

Agar temperatura gradienti  $X$  o'qi buylab, magnit induktsiya  $Z$  o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'lsa  $Y$  o'qi yo'naliishida elektr maydon, demak, ko'ndalang  $a$  va  $b$  zondlar orasida  $u$  elektr potentsiallar farqi vujudga keladi.  $\varepsilon_y$  kattalik quyidagicha ifodalanadi:

$$\varepsilon_y = \frac{u}{d} = q_{\perp} B_z \frac{dT}{dx} \quad (5.24)$$

Bu erda,  $q_{\perp}$  – Nernst-Ettingsgao'zen doimiysi.

Nernst-Ettingsgao'zen effektini sodir bo'lishiga, Lorents kuchi ta'sirida zaryad tashuvchi zarralarni o'z xarakat yo'naliishidan ogo'ishidir. Masalan, 5.6-rasmga ko'ra issiq zaryad tashuvchilar Lorents kuchi ta'sirida namunani pastki tomoniga, sovuq zaryad tashuvchilar yuqori tomoniga to'planadi. Panjara bilan to'qnashishi natijasida zaryad tashuvchilar panjara atomlari bilan energiya almashadi: issiq zaryad tashuvchilar energiyasini bir qismini panjaraga beradi va yarimo'tkazgichni kizdiradi, sovuq zaryad tashuvchilar panjaradan energiya olib, yarimo'tkazgichni sovo'tadi. Shunday qilib, yarimo'tkazgich namunasini bir tomoni qiziydi, ikkinchi tomoni soviydi.



**5.6-rasm**


Temperatura gradienti bo'lgan yarimo'tkazgichni magnit maydoni joylashtirilsa, dastlabki issiqlik oqimiga ko'ndalang temperaturalar farqi vujudga keladi. Bu effekt **Rigi-Ledyuk effekti** deyiladi.

Ko'ndalang temperatura gradienti quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\partial T}{\partial y} = SB_z \frac{\partial T}{\partial x} \quad (5.25)$$

Bu erda,  $S$  – Rigi-Ledyuk doimiysi bo'lib, modda xususiyatlarini xarakterlaydi.

Rigi-Ledyuk effektida diffuziyalanayotgan zaryad tashuvchilar o'zlar bilan birga issiqlik ko'chiradi. Magnit maydon bo'limganda issiqlik oqimi namunani issiq tomonidan sovuq tomoniga y'nalgan bo'ladi. Magnit maydonda diffuziya va issiqlik oqimi Lorents kuchi ta'sirida yo'naliishini o'zgartiradi va  $\nabla_y T$  temperatura gradientini hosil qiladi. (5.7-rasm)



**5.7-rasm.**

Biz ko'rgan k o'ndalang effektlardan tashqari yarimo'tkazgichlarda bo'ylama effektlar ham sodir bo'ladi. Agar X o'qi yo'naliishida dastlabki issiqlik oqimi mavjud bo'lsa, ko'ndalang magnit maydonni ulaganda ko'ndalang potentsiallar farqigina emas, balki bo'ylama potentsillar farqi ham vujudga keladi. Bu effekt **Nernst-Ettingsgao'zenni bo'ylama effekti** deyiladi. Undan tashqari magnit maydon ta'sirida ko'ndalang temperaturalar farqidan tashqari bo'ylama temperaturalar farqi ham hosil bo'ladi. Bu effekt **Rigi-Ledyukni bo'ylama effekti** deyiladi.

Bu effektni ko'ndalang magnit maydonda termo e.yu.k ni o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi deb qarash mumkin. Biz yuqorida ko'rib chiqqan kinetik xodisalarini

o'rganish yarimo'tkazgichlardagi elektron jarayonlar xaqida keng ma'lumot beradi.

#### **5.4.Nomuvozanat va muvozanatlizaryad tashuvchilar.**

Qattiq jismlarda, shu jumladan kristallarda elektronlar panjara bilan kuchli o'zaro ta'sirda bo'ladi va shuning uchun elektronlar gazi panjara orasida termodinamik muvozanat qaror topadi. Yarimo'tkazgichning temperaturasi ko'tarilganda atom yoki ionlarning tugunlar atrofidagi tebranma xarakati ham kuchayadi, elektronlarning energiyalar bo'yicha taqsimoti o'zgaradi, termik ionlashish kuchayadi, zonalarda elektronlar va kovaklar miqdori ortadi.

Biror temperaturada termodinamik muvozanat sharoitida yarimo'tkazgichda mavjud bo'lgan erkin zaryad tashuvchilar(elektronlar va kovaklar) **muvozanatiy zaryad tashuvchilar** deyiladi. Yarimo'tkazgichda kontakt orqali injektsiyalanish xisobiga, kuchli elektr maydonlar ta'sirida, yuqori energiyali zarralar ta'siri va boshqa sabablar tufayli ortiqcha zaryad tashuvchilar yo'zaga keladi. Bunda elektronlarga taqiqlangan zonani engib o'tishi uchun zarur energiyani tashqi manba beradi va uni asosan elektronlar jamgaradi, biroq kristall panjaraning issiqlik energiyasi(temperaturasi) deyarli o'zgarmay qoladi. Tashqi ta'sirlar tufayli shu shu tariqa panjara va elektronlar orasidagi muvozanat buziladi. Yarimo'tkazgichda tashqi ta'sir tufayli vujudga keladigan zaryad tashuvchilar **nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar** deyiladi.

Nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni jamgargan energiyasi kristall panjara atomlari issiqlik tebranishlari energiyasiga nisbatan anchagina kichik bo'ladi. Tashqi ta'sir to'xtatilgandan keyin panjara va elektronlar orasida issiqlik muvozanati karor topadi, bunda nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar tashqi manbadan olgan energiyani panjaraga berib, rekombinatsiyalashib ketadi. Panjara va butun kristallning temperaturasi, demak, muvozanatiy zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi o'zgarmay qolaveradi. Tashqi ta'sirlar tufayli nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi o'zgaradi, ammo muvozanatiy kontsentratsiya o'zgarmaydi.

Elektronlar va kovaklarning to'la kontsentratsiyalari  $(n, p)$  muvozanatiy  $(n_0, p_0)$  va ortiqcha  $(\Delta n, \Delta p)$  kontsentratsiyalar yig'indisiga teng bo'ladi:

$$n = n_0 + \Delta n \quad (5.26)$$

$$p = p_0 + \Delta p \quad (5.27)$$

Muvozanatiy va nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni energiyalar bo'yicha taqsimotlarini ko'raylik.

Nomuvoranatiy zaryad tashuvchilarning energiyasi dastlab muvozanatiy zaryad tashuvchilarning  $kT$  tartibidagi o'rtacha energiyasidan ancha katta bo'lishi mumkin. Keyin nomuvoranatiy xoldagi tashuvchilar fononlar va panjaraning turli nuqsonlari bilan to'knashishlari natijasida ularga o'z energiyasining bir qismini beradi va temperaturasi panjara temperaturasi bilan tenglashadi.

Yarimo'tkazgichda nomuvoranatiy zaryad tashuvchilarning vujudga keltirilishi erkin zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasini o'zgartiradi, biroq ularning zonalarda energiyalar bo'yicha taqsimoti va kinetik energiyalarini o'zgartirmaydi.

Ma'lumki, termodinamik muvozanatda elektronlarning  $E$  energiyali xolatni egallaganligi extimolligi Fermi funktsiyasi yordamida aniqlanadi.

$$f_0(E) = \frac{1}{e^{\frac{(E-F)}{kT}} + 1} \quad (5.28)$$

Muvozanatiy elektronlar va kovaklar etarlicha kichik kontsentratsiyalarda bo'lsa (aynimagan yarimo'tkazgich),  $-\frac{F}{kT} \gg 1$  bo'ladi va Fermi taqsimoti Maksvell-Boltsman taqsimotiga o'tadi:

O'tkazuvchanlik zonasini elektronlari uchun:

$$f = \exp \frac{F - E}{kT} \quad (5.29)$$

Valent zonasini kovaklari uchun:

$$f = \exp \frac{E - F}{kT} \quad (5.30)$$

Bu xolda muvozanatiy erkin elektronlar va kovaklarning to'la kontsentratsiyalari

$$n_0 = N_c \exp(F/kT) \quad (5.31)$$

$$p_0 = N_g \exp[-(F + E_g)/kT] \quad (5.32)$$

Bu erda  $N_c$  va  $N_g$ - o'tkazuvsanlik va valent zonasidagi xolatlar zinchligi,  $E_g$ - taqiqlangan zona kengligi.

Nomuvoranatiy zaryad tashuvchilar va muvozanatiy zaryad tashuvchilar kontsentratsiyalari orasidagi farq  $\Delta n$  **ortiqcha zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi** deyiladi.

Nomuvoranatiy zaryad tashuvchilar uchun quyidagi ifodalarni yozish mumkin:

$$n = n_0 + \Delta n = N_c \exp\left(\frac{F_n}{kT}\right) \quad (5.33)$$

$$p = p_0 + \Delta p = N_v \exp\left(-\frac{F_p + E_g}{kT}\right) \quad (5.34)$$

Bu erda  $F_n$  va  $F_p$ -elektronlar va kovaklar uchun mos ravishda Fermi kvazisatxlari deyiladi. (5.31) (5.32) (5.33) (5.34) ifodalardan

$$F_n - F = kT \ln(n/n_0) \quad (5.35)$$

$$F_p - F = kT \ln(p/p_0) \quad (5.36)$$

Bu ifodalardan xulosa kelib chiqadiki, nomuvozanat xoldagi kontsentratsiyalar muvozanat xoldagi kontsentratsiyalardan qancha ko'p farq qilsa  $F_n, F_p$  lar  $F$  dan shuncha farq qiladi.

### 5.5. Generatsiya, rekombinatsiya xodisalari.

Ideal yarimo'tkazgichda hamma elektronlar bog'langan bo'ladi. Agar bunday yarimo'tkazgichni elektr maydonga joylashtirsak, elektr toki hosil bo'lmaydi. Chunki, bunda erkin zaryad tashuvchilar yo'q. Faraz qilaylik, qandaydir ta'sir, masalan, issiqlik energiyasi ta'sirida valent bog'lar uzilib, elektron erkin bo'lib qolsin. Bog'langan elektronni erkin elektronga aylanish jarayoni **generatsiya** deyiladi. Elektron ketgan joyda ortiqcha musbat zaryad qoladi. Bu vakant joy kovak deyiladi. Butun kristall neytralligicha qoladi, chunki hosil bo'lgan xar bir erkin elektronga bitta kovak to'g'ri keladi.

Elektron kovak bilan birikishi ham mumkin. Erkin elektronni bog'langan elektronga aylanish jarayoni **rekombinatsiya** deyiladi.

Yarimo'tkazgichda muvozanat sharoitida vaqt birligi ichida ma'lum miqdordagi elektron va kovak juftlari generatsiyalanib tursa, ikkinchi tomondan shuncha juft rekombinatsiyalanib turadi:

$$r_0 = g_0 \quad (5.37)$$

Bu erda,  $r_0$  va  $g_0$  muvozanat xoldagi rekombinatsiya va generatsiya tezliklari.

Generatsiya tezligi-kristallni birlik xajmida, vaqt birligi ichida generatsiyalanayotgan elektron-kovak juftlar soni.

Generatsiya tezliklari quyidagi formulalar bilan ifodalanadi:

$$g_n = \eta_n q$$

$$g_p = \eta_p q$$

Bu erda,  $\eta_n, \eta_p$ -elektronlar va kovaklar uchun kvant chiqishlar bo'lib, ular yutilgan bitta foton hosil qilgan erkin elektronlar va kovaklar sonini bildiradi.

$q$  – birlik xajmda 1 s vaqtida yutilgan fotonlar soni.

Rekombinatsiya tezligi-kristallni birlik xajmida, vaqt birligi ichida rekombinatsiyalashayotgan elektron-kovak juftlar soni.

$$r_0 = \gamma_r n_0 p_0 \quad (5.38)$$

$\gamma_r$  - **rekombinatsiya koeffitsienti** deyiladi.

$\gamma_r p_0$ -elektronning rekombinatsiyalanish extimolligi.

$\gamma_r n_0$ - kovakning rekombinatsiyalanish extimolligi.

Generatsiya jarayonida erkin zaryad tashuvchilar juftini vujudga keltirish uchun muayyan  $\Delta E$  energiya sarflanadi. Bu nuqtai nazardan xususiy va kirishmaviy generatsiyalash jarayonlarini farqlash mumkin.

$\Delta E$  generatsiyalash energiyasi kristall panjaradagi kovalent bog'lanishlarni uzishga sarf bo'ladigan va natijada erkin zaryad tashuvchilar jufti(o'tkazuvchanlik zonasida elektron va valent zonada kovak) yo'zaga keladigan jarayon **xususiy generatsiya** deyiladi.

Bu jarayonda yarimo'tkazgichning taqiqlangan zonasiga teng yoki undan kattaroq energiya sarflash kerak. Agar generatsiyalash jarayonida tegishli zonada kirishmaviy markaz bilan bog'langan bir ishorali zaryad tashuvchilar paydo bo'lsa, bu jarayon **kirishmaviy generatsiya** deyiladi.

Zaryad tashuvchilar generatsiyasi natijasida juftlar-elektron va kovaklar hosil bo'lsa, bunday generatsiya **bipolyar generatsiya** deyiladi. Bunday holda yoruglik kvantini yutilishi valent bog'lanishni uzilishiga olib keladi va generatsiyalananadigan ortiqcha elektronlar va kovaklar soni o'zaro teng bo'ladi:

$$\Delta n = \Delta p \quad (5.39)$$

Birolyar generatsiya xususiy o'tkazuvchanlikli yarimo'tkazgichlarda sodir bo'ladi.

Aralashmali yarimo'tkazgichlarda nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni generatsiya jarayoni xususiy o'tkazuvchanlikli yarimo'tkazgichlardan sezilarli farq qiladi. Masalan, donor aralashmali yarimo'tkazgichlarni olaylik. Berilgan temperaturada hama aralashma atomlari to'la ravishda ionlashgan bo'lmasin. Yarimo'tkazgichni nurlantirish(tashqi ta'sir) natijasida elektronlar donor satxlardan o'tkazuvchanlik zonasiga tashlansin. Zaryad tashuvchilarni bunday uyg'otish jarayoni **monopolyar generatsiya** deyiladi. Bu generatsiya asosiy zaryad tashuvchilarni ortiqcha kontsentratsiyasi hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu holda yarimo'tkazgichni elektrneytralligi buzilmaydi, chunki erkin elektronlarni ortiqcha zaryadi donor aralashmani musbat ionlari zaryadi bilan kompensatsiyalashadi.

Rekombinatsiya jarayoni ham bir necha turlarga bo'linadi:

**a) Zonalararo rekombinatsiya.** Bunday rekombinatsiya erkin elektronni o'tkazuvchanlik zonasidan valent zonasiga o'tishi natijasida sodir bo'ladi va bunda erkin elektron va erkin kovakni yo'qolishi kuzatiladi. Bu jarayonda energiya va kvaziimpulsnii saqlanish qonunlari bajariladi.

Agar o'tkazuvchanlik zonasida elektronni energiyasi va kvaziimpulsi  $E'$ ,  $p'$ , rekombinatsiyadan keyin  $E$ ,  $p$  bo'lsa energiya va kvaziimpulsni saqlanish qonunlari quyidagicha yoziladi:

$$E' = E + \Delta E \quad (5.40)$$

$$p' = p + Q \quad (5.41)$$

Bu erda  $Q$ -elektron tomonidan kristall panjaraga beriladigan kvaziimpuls,

$\Delta E$  – rekombinatsiya natijasida ajraladigan energiya.


$\Delta E$  energiyani qanday usulda sarflanishiga qarab zonalararo rekombinatsiya quyidagi turlarga bo'linadi:

Agar rekombinatsiya jarayonida ajraladigan energiya yorug'lik kvanti ko'rinishida nurlansa, bunday rekombinatsiya **nurlanishli rekombinatsiya** (fotonli rekombinatsiya) deyiladi.

Agar rekombinatsiya jarayonida ajraladigan energiya panjaraga berilsa, ya'ni fononlar hosil bo'lishiga sarflansa, bunday rekombinatsiya **nurlanishsiz rekombinatsiya** (fononli rekombinatsiya) deyiladi.

Agar rekombinatsiya jarayonida ajraladigan energiya uchinchi erkin elektronga berilsa, bunday rekombinatsiya **zarbiy** yoki **Oje rekombinatsiya** deyiladi. Bu rekombinatsiyada uchta zaryad tashuvchi qatnashadi: rekombinatsiyalanadigan elektron-kovak jufti va bunda ajraladigan energiyani o'ziga oladigan elektron yoki kovak.

Agar bir vaqt ni o'zida ikki erkin elektron va bitta kovakni yoki ikkita kovak va bitta erkin elektronni to'qnashishi sodir bo'lsa, ulardan ikkitasi rekombinatsiyalanadi va bunda ajraladigan energiya uchinchi zarrachaga beriladi, natijada bu zarracha o'zini zonasida yuqoriroq energetik zonaga qtadi. Uchinchi zarracha to'qnashish natijasida o'zini energiyasini fononlarga berib, panjara bilan muvozanat xolatga keladi. Bu rekombinatsiya jarayoni zarbiy ionlanishga teskari jarayon bo'lib, erkin zaryad tashuvchini zonada pastrok energetik satxga o'tishi natijasida ajraladigan energiya elektron-kovak juftini hosil bo'lishi kuzatiladi. (5.8-rasm)




5.8-rasm

**b) Maxalliy satxlararo rekombinatsiya.** Yarimo'tkazgichli kristallda xar doim energetik satxlari taqiqlangan zonada joylashgan nuqsonlar bo'ladi. O'tkazuvchanlik zonasidan elektronni va valent zonadan kovakni tutib olib, ularni rekombinatsiyasini amalga oshiradigan panjara nuqsonlari **rekombinatsiya**

**tutqichlari** deyiladi. 5.9-rasmda donor tipdagи yarimo'tkazgichni taqiqlangan zonasida rekombinatsiya tutqichi hosil qilgan  $E$ , energetik satx ko'rsatilgan. Bunda neytral tutqich o'tkazuvchanlik zonasidan elektronni ushlab olib, manfiy zaryadga ega bo'ladi (1 o'tish), sungra elektron tutqich satxidan valent zonaga o'tadi, bu esa manfiy zaryadli tutqichni valent zonadan kovakni tutib olinishi kabitir (2 o'tish). Erkin kovaklar kontsentratsiyasi ozayganda keyingi jarayonni sodir bo'lisch extimolligi kamayadi va elektronni tutqichdan o'tkazuvchanlik zonasiga teskari o'tishi sodir bo'ladi (3 o'tish).

Agar yarimo'tkazgichda katta miqdorda erkin kovaklar mavjud bo'lsa, ular jadal ravishda tutqichlar tomonidan ushlanadi, ya'ni elektronlar tutqichdan valent zonaga o'tadilar (4 o'tish), sungra elektronni o'tkazuvchanlik zonasidan ushlab olish sodir bo'ladi (5 o'tish) .

O'tkazuvchanlik elektronlari kontsentratsiyasi kichik bo'lganda kovakni ozod qilish ,ya'ni, kovakni valent zonaga qaytish jarayoni sodir bo'ladi.



**5.9-rasm**

Maxalliy satxlararo rekombinatsiyada ham elektronni pastrok energetik satxga o'tishida ajraladigan energiya  $\Delta E$  ni sarf qilinish usuliga qarab, rekombinatsiya **fotonli** va **fononli** turlarga ajratiladi.

s) **Sirtiy rekombinatsiya.** Bunday rekombinatsiya yarimo'tkazgichni sirtida va sirtiy rekombinatsiya tutqichlari orqali nurlanish yoki nurlanishsiz sodir bo'ladi.

## 5.6. Zaryad tashuvchilarning yashash vaqt va relaksatsiya vaqtı xaqlarida tushuncha.

Zarraning hosil bo'lishi va qarama qarshi zarra bilan uchrashib yo'qolishi orasidagi vaqt uning **yashash vaqtı** deyiladi. Zaryad tashuvchilarni yashash vaqtleri quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:

$$\tau_n = \frac{1}{\gamma_r p_0} \quad (5.42)$$

elektron uchun va

$$\tau_p = \frac{1}{\gamma_r n_0} \quad (5.43)$$

kovak uchun

(2) ifodadan foydalansak bu ifodalarni quyidagicha yozamiz:

$$\tau_n = \frac{n_0}{r_0} \quad (5.44)$$

elektron uchun va

$$\tau_p = \frac{p_0}{r_0} \quad (5.45)$$

kovak uchun

Agar yarimo'tkazgich tashqi ta'sirga uchrasa muvozanat buziladi. U xolda nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar uchun yashash vaqtisi:

$$\tau = \frac{1}{\frac{1}{\tau_n} + \frac{1}{\tau_p}} \quad (5.46)$$

Bipolyar generatsiya xolida tashqi ta'sir to'xtatilgandan keyin, elektronlar va kovaklar kontsentratsiyasi rekombinatsiya tufayli kamayadi. Bu xolda erkin elektronlar va kovaklar sonini kamayish tezligi rekombinatsiya va issiqlik generatsiya tezliklari farqi bilan aniqlanadii:

$$-(\frac{dn}{dt})_r = -(\frac{dp}{dt})_r = \gamma_r np - g_0 \quad (5.47)$$

(5.37), (5.38), (5.39) ifodalarni xisobga olsak, (5.47) ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$-(\frac{dn}{dt})_r = \gamma_r (np - n_0 p_0) = \gamma_r (n + p_0 + \Delta n) \Delta n \quad (5.48)$$

$\Delta n \ll n_0 + p_0$  deb xisoblab,

$$(\frac{dn}{dt})_r = -\gamma_r (n_0 + p_0) \Delta n = -\gamma_r (n_0 + p_0) (n - n_0) \quad (5.49)$$

Belgilash kiritamiz:

$$\tau = \frac{1}{\gamma_r (n_0 + p_0)} \quad (5.50)$$

U xolda (5.49) ifoda quyidagi ko'rinishni oladi:

$$(\frac{dn}{dt})_r = -\frac{n - n_0}{\tau} = -\frac{\Delta n}{\tau} \quad (5.51)$$

Bu erdan,

$$\Delta n = \Delta n(0) e^{-\frac{t}{\tau}} \quad (5.52)$$

Bu erda,  $\Delta n(0)$ -tashqi ta'sir to'xtatilganida momentdagি ortiqcha kontsentratsiya.

Bipolar generatsiyani kichik darajasida elektronlar va kovaklarni ortiqcha kontsentratsiyasi tashqi ta'sir to'xtatilgandan so'ng eksponentsiyal ravishda kamayadi va  $\tau$

vaqt ichida reombinatsiya natijasida ularni soni  $e$  marta kamayadi. Demak,  $\tau$  ortiqcha elektronlar va kovaklar mavjud bo'lishini o'rtacha vaqt bo'lib, nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni yashash vaqt xisoblanadi. Nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni yashash vaqt yarimo'tkazgich materialning tipiga va uni tozalik darajasiga bog'liq ravishda  $10^{-2} - 10^{-8} \text{ c}$  oraliqda o'zgaradi.

(5.50) ifodani taxlil qilamiz.

Xususiy yarimo'tkazgich uchun  $n_0 = p_0 = n_i$ . U xolda (5.50) ifoda quyidagicha yoziladi:

$$\tau = \frac{1}{\gamma_r(n_0 + p_0)} = \frac{1}{2\gamma_r n_i} = \frac{e^{E_g/2kT}}{2\gamma_r (N_c N_s)^{1/2}} \quad (5.53)$$

$n$  tip material uchun ( $n_0 \gg p_0$ )

$$\tau_r^n = 2 \frac{n_i}{n_0} \tau_{ir} = \frac{1}{\gamma_r n_0} \quad (5.54)$$

$p$  tip material uchun ( $n_0 \ll p_0$ )

$$\tau_r^p = 2 \frac{n_i}{p_0} \tau_{ir} = \frac{1}{\gamma_r p_0} \quad (5.55)$$


(5.53), (5.54), (5.55) ifodalar shuni ko'rsatadiki, zonalararo nurlanishli rekombinatsiyada, xususiy yarimo'tkazgichda temperatura qanchalik yuqori va taqiqlangan zona kengligi qancha kichik bo'lsa, nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni yashash vaqt shuncha kichik bo'ladi, aralashmali yarimo'tkazgichda xususiy yarimo'tkazgichdagiga nisbatan nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarni yashash vaqt kichik bo'ladi, legirlash darjasasi va temperatura ortishi bilan u kamayadi.

## VI-BOB. Diffuziyaviy va dreyf toklari.

### 6.1. Tokning uzluksizlik tenglamasi.

Yarimo'tkazgichda tashqi ta'sirlar tufayli nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar yo'zaga kelsin. Bu xolda nomuvozanatiy elektronlar va kovaklar kontsentratsiyasi fazoviy koordinatalar va vaqt funksiyasi  $n(x, y, z, t)$ ,  $p(x, y, z, t)$  xisoblanadi va ularni o'zgarish tezligi uzluksizlik tenglamasi bilan ifodalanadi.

Uzluksizlik tenglamasini bir o'lchamli, bir jinsli namuna uchun chiqaramiz, unda elektronlar kontsentratsiyasi fakat  $x$  o'qi yo'nalishida o'zgarsin.(6.1-rasm)



### 6.1-rasm

Yarimo'tkazgichda kesimi  $1\text{cm}^2$ , qalinligi  $dx$  bo'lgan qatlam ajratib olamiz. Bu qatlam qalinligi  $dx$  ga teng bo'ladi. Faraz qilaylik,  $t$  vaqt momentida elektronlar kontsentratsiyasi  $n(x,t)$ , u holda bu xajmda elektronlar soni  $n(x,t)dx$ .

$t + dt$  vaqt momentida ularni soni  $n(x,t + dt)dx$  va  $dt$  vaqt davomida  $dx$  xajmda elektronlar sonini o'zgarishi:

$$n(x,t + dt)dx - n(x,t)dx = \frac{\partial n}{\partial t} dx dt \quad (6.1)$$

Bu elektronlar sonini o'zgarishi generatsiya, rekombinatsiya, shuningdek, zaryad tashuvchilarni dreyfi va diffuziyasi tufayli sodir bo'ladi. Bu jarayonlarni ko'ramiz:

1. Elektronlar generatsiyasi- yarimo'tkazgich tomonidan yorug'likni yutilishi natijasida sodir bo'lsin va 1 s da  $1\text{cm}^3$  xajmda hosil bo'layotgan elektron-kovak jufti  $g$  ga teng bulsin. U xolda yoruglik generatsiyasi  $dx$  xajmda  $dt$  vaqt davomida

$$g dx dt \quad (6.2)$$

miqdorda elektronlar hosil qiladi.

2.  $dx$  xajmda zaryad tashuvchilar sonini o'zgarishi rekombinatsiya natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Rekombinatsiyani to'la tezligi  $R_0 + R$  bu erda,  $R_0$ -issiqlik muvozanatida rekombinatsiya tezligi,  $R$ -tashqi ta'sir mavjud bo'lganda rekombinatsiya tezligi.

Rekombinatsiya tufayli  $dx$  xajmda  $dt$  vaqt davomida elektronlar sonini o'zgarishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$R dx dt = -\left(\frac{dn}{dt}\right)_r dx dt = \frac{n - n_0}{\tau_n} dx dt \quad (6.3)$$

3.  $dx$  xajmda zaryad tashuvchilar miqdorini o'zgarishi diffuziya va dreyf jarayonlari tufayli ham sodir bo'ladi. Agar  $I_n(x,t)$ -  $1\text{cm}^2$  yo'zadan, 1 s da o'tayotgan elektronlar soni,

$dt$  vaqt davomida k o'rيلayotgan xajmga qatlam chegarasi  $x$  dan kirayotgan elektronlar miqdori  $I_n(x,t)dx$ ,  $x + dx$  qatlam chegarasidan kirayotgan elektronlar soni  $I_n(x + dx,t)dx$  b 'lsin. Natijada,  $dx$  xajmda bu oqimlar farqi tufayli elektronlar sonini o'zgarishi quyidagicha bo'ladi:

$$I_n(x, t)dt - I_n(x + dx, t)dt = -\frac{\partial I_n}{\partial x} dx dt \quad (6.4)$$

$dx$  xajmda  $dt$  vaqt davomida elektronlar sonini to'la o'zgarishi:

$$\frac{\partial n}{\partial t} dx dt = g dx dt - \frac{\partial I_n}{\partial x} dx dt - \frac{n - n_0}{\tau_n} dx dt \quad (6.5)$$

Bu erdan,

$$\frac{\partial n}{\partial t} = g - \frac{\partial I_n}{\partial x} - \frac{n - n_0}{\tau_n} \quad (6.6)$$

(6.6) tenglama elektronlar uchun **uzluksizlik tenglamasi** deyiladi.

Shunga uxshash, kovaklar uchun uzluksizlik tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial p}{\partial t} = g - \frac{\partial I_p}{\partial x} - \frac{p - p_0}{\tau_p} \quad (6.7)$$

Zaryad tashuvchilarni ishorasini xisobga olgan xolda, tok zichliklarini quyidagicha yozib olamiz:

$$j_n = -eI_n, \quad j_p = eI_p \quad (6.8)$$

Zaryad tashuvchilarni kontsentratsiyasi  $(x, y, z)$  koordinatalar funktsiyasi bo'lsa,

uzluksizlik tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial n}{\partial t} = g + \frac{1}{e} \operatorname{div} j_n - \frac{n - n_0}{\tau_n} \quad (6.9)$$

$$\frac{\partial p}{\partial t} = g - \frac{1}{e} \operatorname{div} j_p - \frac{p - p_0}{\tau_p} \quad (6.10)$$

bu erda,  $\operatorname{div} j = \frac{\partial j_x}{\partial x} + \frac{\partial j_y}{\partial y} + \frac{\partial j_z}{\partial z}$

Statsionar xolatda elektronlar va kovaklar kontsentratsiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi, ya'ni  $\frac{\partial n}{\partial t} = \frac{\partial p}{\partial t} = 0$ .


Bir ulchamli xolda, statsionar sharoitda uzluksizlik tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$-\frac{1}{e} \frac{\partial j_n}{\partial x} = g - \frac{n - n_0}{\tau_n} \quad (6.11)$$

$$\frac{1}{e} \frac{\partial j_p}{\partial x} = g - \frac{p - p_0}{\tau_p} \quad (6.12)$$

## 6.2. Diffuziyaviy va dreyf toklari .

Faraz qilaylik, yarimo'tkazgichda x o'qi yo'nalishida zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi ortib borsin(6.2-rasm).



**6.2-rasm**

$x$  nuqta orqali  $x$  o'qiga perpendikulyar tekislik o'tkazamiz va bu tekislikdan chap va o'ng tomonda joylashgan,  $dx$  qalinlikdagi 1 va 2 qatlamlarda zaryad tashuvchilarni xarakatini ko'ramiz. Xaotik xarakat natijasida zaryad tashuvchilarni bir qismi 1 qatlamdan 2 chisi, boshqa bir qismi 2 qatlamdan 1 chiga keladi. 2 qatlamda zaryad tashuvchilar soni 1 qatlamdagidan katta, u xolda elektronlarni teskari oqimi to'g'ri yo'nalishdagi oqimdan katta.

$n(x - \frac{dx}{2})$  - 1 qatlamdagи elektronlarni o'rtacha kontsentratsiyasi

$n(x + \frac{dx}{2})$  - 2 qatlamdagи elektronlarni o'rtacha kontsentratsiyasi.

Bu qatlamlarda elektronlar kontsentratsiyalari farqi quyidagiga teng:

$$n(x - \frac{dx}{2}) - n(x + \frac{dx}{2}) = -\frac{dn}{dx} dx \quad (6.13)$$

Diffuziya natijasida yo'zaga keladigan  $x$  o'qi yo'nalishidagi elektronlar oqimi:

$$I_n = -D_n \frac{dn}{dx} \quad (6.14)$$

Bu erda,  $D_n$ -elektronlarni diffuziya koeffitsienti.

Shunga o'xshash ravishda, kovaklar oqimi:

$$I_p = -D_p \frac{dp}{dx} \quad (6.15)$$

$D_p$ -kovaklarni diffuziya koeffitsienti.

Formulalardan ko'rinyaptiki, elektronlar va kovaklar oqimii zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi kichik bo'lган томонга qarab yo'nalgan.

Zaryad tashuvchilarni diffuziyasi natijasida yo'zaga keladigan diffuziya toklari quyidagilarga teng:

$$j_{n, \text{diff}} = e D_n \frac{dn}{dx} \quad (6.16)$$

$$j_{p\text{ДиФ}} = eD_p \frac{dp}{dx} \quad (6.17)$$

$n$  va  $p$  - koordinatalar funktsiyalari xisoblansa, diffuzion toklar:


$$j_{n\text{ДиФ}} = eD_n gradn(r) \quad (6.18)$$

$$j_{p\text{ДиФ}} = eD_p gradp(r) \quad (19)$$

Zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi gradienti mavjudligi tufayli yo'zaga keladigan diffuzion tok zaryadlarni fazoviy ajralishiga olib keladi. Natijada, 6.3-rasmida ko'rsatilganidek, namunani chap qism manfiy, o'ng qismi musbat zaryadlanadi va  $\varepsilon_i$  ichki elektr maydon hosil bo'ladi va bu maydon  $\varepsilon_{mau}$  tashqi maydon bilan birga elektronlar va kovaklarni dreyf toklarini hosil qiladi.

$$\varepsilon = \varepsilon_i + \varepsilon_{mau} \quad (6.20)$$

Agar tashqi maydon bo'lmasa, diffuzion tok va dreyf tok o'zaro muvozanatlashadi va termodinamik muvozanat sharoitida yig'indi tok nolga teng bo'ladi.



### 6.3-rasm

Bir jinsli bo'limgan yarimo'tkazgichni tashqi doimiy  $\varepsilon_{mau}$  maydonga joylashtiraylik.

Tashqi maydon ta'sirida elektronlar va kovaklar y o'nalgan tezlikka ega bo'ladi, natijada elektronlar va kovaklar toki yo'zaga keladi. Zaryad tashuvchilarni dreyf tok zichliklari Om qonuniga ko'ra quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$j_{ndr} = en\mu_n \varepsilon$$

$$j_{pdr} = ep\mu_p \varepsilon$$

To'la tok diffuzion va dreyf toklar yig'indisidan iborat bo'ladi.

$$j_n = j_{ndr} + j_{n\text{ДиФ}} = en\mu_n \varepsilon + eD_n \frac{dn}{dx}$$

(11.21)

$$j_p = j_{pdr} + j_{p\Delta u\phi} = en\mu_p\varepsilon - eD_p \frac{dp}{dx} \quad (6.22)$$

Bir jinsli bo'lмаган yarimo'tkazgichni istalgan nuqtasidagi umumiyl tok quyidagiga teng bo'ladi:

$$j = j_n + j_p = e(n\mu_n + p\mu_p)\varepsilon + e(D_n \frac{dn}{dx} - D_p \frac{dp}{dx}) \quad (6.23)$$


### 6.3.Zaryad tashuvchilarining xarakatchanlik va diffuziya koeffitsienti orasidagi bog'lanish.

Bu bog'lanish Eynshteyn tenglamasi orqali ifodalanadi.  $p$  tip yarimo'tkazgich uchun Eynshteyn tenglamasini chiqaramiz. Bu yarimo'tkazgich zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasini bo'ylama gradientiga ega bo'lsin. Agar  $p_1$  kovaklar kontsentratsiyasi (chapda)  $p$  kovaklar kontsentratsiyasi (o'ngda)dan katta bo'lsa, diffuzion tok chapdan o'ngga yo'nalgan bo'ladi. Diffuzion tokni hosil qilayotgan kovaklarni chapdan o'ngga oqimii diffuziyaviy tokni muvozanatlaydigan dreyf tokni yo'zaga keltiradigan ichki maydon  $\varepsilon_i$  maydon hosil bo'lguna qadar davom etadi. Natijada quyidagiga ega bo'lamiz:

$$j_p = -ep\mu_p \frac{\partial\varphi}{\partial x} - eD_p \frac{\partial p}{\partial x} = 0 \quad (6.24)$$

Bu erda,  $\varphi$ -xajmiy zaryad yaratadigan elektrostatik potentsial.

Yarimo'tkazgichni chap uchida  $\varphi$  ni sanoq boshini tanlab olamiz (6.4-rasm).



6.4-rasm

Diffuzion tokda ishtirok etuvchi kovaklar  $e\varphi$  potentsial barerga ko'tarilishi kerak.

(6.24) ifodadan

$$\frac{\partial p}{p} = -\frac{\mu_p}{D_p} \partial\varphi \quad (6.25)$$

kelib chiqadi. Bu ifodani integrallasak,

$$p = p_1 e^{-\frac{\mu_p}{D_p}\varphi} \quad (11.26)$$

Boltsman qonuniga ko'ra, issiqlik xarakati tufayli  $e\varphi$  potentsial barerga ko'tarilayotgan zarralar uchun

$$p = p_1 e^{-\frac{e\varphi}{kT}} \quad (6.27)$$

Bu kontsentratsiya termodinamik muvozanat xolatiga tegishli, chunki Boltsman qonuni muvozanatiy xolat uchun o'rinni.

(6.26) va (6.27) ifodalarni tenglab, kovaklar uchun Eynshteyn tenglamasini olamiz:

$$\mu_p / D_p = e / kT \quad (6.28)$$

Shunga o'xshash yo'l bilan, elektronlar uchun ham Eynshteyn tenglamasini olamiz:

$$\mu_n / D_n = e / kT \quad (6.29)$$

Tashqi elektr maydon mavjud bo'lmaganda  $\varepsilon = 0$ , (11.12) uzluksizlik tenglamasini echish natijasida  $\Delta p$  ortiqcha kovaklar kontsentratsiyasini topamiz. Buning uchun (6.22) dagi  $j_p$  kovak toklar zichligini ifodasidan foydalanamiz. Natijada quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$\Delta p = \Delta p(0) e^{-x/L_p} \quad (6.30)$$

Bu erda,  $L_p$  - noasosiy zaryad tashuvchilarni, xususan, kovaklarni diffuzion yo'l uzunligi bo'lib, diffuziya jarayonida yashash vaqtida kovaklar kuchadigan o'rtacha masofa. U quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$L_p = \sqrt{D_p \tau_p} \quad (6.31)$$

Bu erda,  $D_p$  -kovaklarni diffuziya koeffitsienti,  $\tau_p$  -kovaklarni yashash vaqtida.

Demak, elektr maydon bo'lmaganda kovaklarni ortiqcha kontsentratsiyasi rekombinatsiya natijasida masofaga bog'liq ravishda eksponentsiyal qonun bo'yicha o'zgaradi.

(6.30), (6.31) ifoda nomuvozanatiy elektronlar uchun ham o'rinni.

## VII-BOB.Bir jinsli bo'limgan yarimo'tkazgichlar va dielektriklardagi potentsial to'siqlar.

### 7.1. Bir jinsli bo'limgan yarimo'tkazgichlar va dielektriklardagi potentsial to'siqlar.

Ikki xil yarimo'tkazgichni yoki yarimo'tkazgich bilan metallni kontaktida chegara qatlamlarida potentsial barer hosil bo'ladi, bu qatlamlar ichida zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi xajmdagiga nisbatan kuchli o'zgaradi. Kontaktoldi qatlamini xususiyatlari quyilgan tashqi kuchlanishga bog'liq bo'lib, kontaktni nochiziqli volt-amper xarakteristikasini yo'zaga keltiradi. Kontaktlarni nochiziqli xususiyatlaridan elektr tokini to'g'rilashda, elektr tebranishlarni hosil qilish, kuchaytirish maqsadlarida foydalaniлади.


Kontakt qatlamida yo'z beradigan hodisalar ikki modda chegarasi orqali erkin zaryad tashuvchilar almashinishiga bog'liq.

Ma'lumki moddadan elektronni boshqa muhitga, masalan vokuumga chiqib ketishiga potentsial(energiyaviy) to'siq qarshilik ko'rsatadi. Bu to'siqning balandligini elektronning sirt orqali tashqariga chiqib keta olishi uchun zarur bo'lган energiya aniqlaydi. Bu energiya elektronni moddadan **chiqish ishi** deyiladi.

**Termodinamik chiqish ishi** Fermi satxidan vokuum satxigacha bo'lган energiyaviy masofa.

**Elektron yaqinlik** o'tkazuvchanlik zonasini tubidan vokuum satxigacha bo'lган energiyaviy masofa.

Metall-metall kontakti misolida potentsial to'siqni hosil bo'lishini ko'rsatamiz (7.1-rasm).



7.1-rasm.

7.1, a-rasmida  $W_1$ - o'ngdagi metall uchun elektronlarni chiqish ishi,  $W_2$ -chapdagi metall uchun elektronlarni chiqish ishi. Qattiq jismdan elektronlarni chiqish ihi deganda, elektronni Fermi satxidan vokuumga chiqarish uchun sarf qilinadigan energiya. Rasmda vokuumdagi energiya satxi punktir chiziq bilan,  $F$  Fermi satxi uzluksiz gorizontal chiziqlar bilan tasvirlangan. 7.1, a-rasmida metallarni o'zaro elektronlar almashishi mumkin bo'ladigan masofagacha yaqinlashish momenti, 7.1, b-rasmida chapdan o'ngga va aksincha elektronlar oqimiini va kontakt potentsiallar farqini yo'zaga kelishi kursatilgan.

Kontakt potentsiallar farqini kattaligini termoelektron emissiya toki zichligi ifodasidan foydalanib topish mumkin.

Agar  $W_2 > W_1$  bo'lsa,  $j_1 > j_2$  bo'ladi va elektronlar ungdan chapga ko'chiriladi. Natijada, birinchi metall sirti musbat, ikkinchisi manfiy zaryadlanadi. Metallar oralig'ida elektr maydon va unga tegishli potentsiallar farqi hosil bo'ladi. Ximiyaviy potentsiallar (Fermi satxi) tenglashganda muvozanat o'rnatiladi. Bu xolda, toklar tenglashadi, ya'ni  $j_1 = j_2$ . Bu tenglik shuni bildiradiki, o'ngdan chapga xarakatlanayotgan elektronlar uchun potentsial barer, ya'ni  $W_1 + eV_k$  chapdan o'ngga xarakatlanayotgan elektronlar uchun potentsial barer, ya'ni  $W_2$  ga teng bo'lishi lozim:

$$W_1 + eV_k = W_2 \quad (7.1)$$

Muvozanat o'rnatilgandan keyin kontakt potentsiallar farqi yo'zaga keladi:

$$V_k = (W_2 - W_1) / e \quad (7.2)$$

Shunday qilib, birinchi metallni sirtini elektronlarga kambag'allashdirib, ikkinchi metall sirtini elektronlarga boyitib, etarlicha katta kontakt potentsiallar farqini yaratish mumkin ekan.

## 7.2. Yarimo'tkazgichlar va dielektriklarda kontakt xodisalar.


Elektronli va kovakli yarimo'tkazgich kontaktida sodir bo'ladigan hodisalarini ko'ramiz. Germaniy, kremniy yoki boshqa yarimo'tkazgich monokristalliga aralashmalarni kiritish orqali, ularni shunday taqsimatini o'rnatish mumkinki, bunda kristallni bir qismi  $n$ -tip yarimo'tkazgich, ikkinchi qismi  $p$ -tip yarimo'tkazgich bo'lsin. Bunda turli tipdagi yarimo'tkazgichlarni bir-biriga tegib turgan yupqa soxalarida  $n$ -tipdan  $p$ -tipga o'tish kuzatiladi. Elektr o'tkazuvchanligi qarama-qarshi tipli materiallar orasidagi bunday o'tish  $p-n$  o'tish deyiladi. O'tish soxasi asosiy zaryad tashuvchilarga kambag'allashgan bo'ladi va berkituvchi qatlam xisoblanadi.

Aralashmalarni taqsimlanish xarakteriga bog'liq ravishda keskin va silliq  $p-n$  o'tishlar farq qilinadi. Keskin  $p-n$  o'tishda aktseptor va donorlar

kontsentratsiyasi  $p$  va  $n$  soxalarni ajralish chegarasida sakrab o'zgaradi, silliq  $p - n$  o'tishda ularni kontsentratsiyasi masofani chiziqli funktsiyasi xisoblanadi.

Keskin  $p - n$  o'tish kristallga aralashmalarni eritib kiritish orqali, silliq  $p - n$  o'tish diffuziya bilan kiritish orqali hosil qilinadi.

7.2-rasmda keskin  $p - n$  o'tishni o'zida va uni xar ikkala tomonida asosiy va noasosiy zaryad tashuvchilarini kontsentratsiyalarini o'zgarishi tasvirlangan.



7.2-rasm.

Keskin  $p - n$  o'tishni ko'raylik va yarimo'tkazgichni kovakli soxasi elektronli soxasiga nisbatan kuchli legirlangan bo'lsin.  $p_p$ -kovakli soxani asosiy zaryad tashuvchisi kovaklarning kontsentratsiyasi,  $n_p$ -kovakli soxani asosiy bo'limgan zaryad tashuvchisi elektronlarning kontsentratsiyasi,  $n_n$ -elektronli soxani asosiy zaryad tashuvchisi elektronlarning kontsentratsiyasi,  $p_n$ -elektronli soxani asosiy bo'limgan zaryad tashuvchisi kovaklar kontsentratsiyasi.

$p - n$  o'tish nazariyasida yarimo'tkazgichda  $p - n$  o'tishdan tashqarida muvozanatiy zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi aralashmalar kontsentratsiyasiga teng deb, ya'ni aralashma atomlari to'la ionlashgan deb qaraladi:


$$n_n = N_A, \quad p_p = N_a \quad (7.3)$$

Termodinamik muvozanat xolida, aynish bo'limganda:

$$p_p n_p = n_n p_n = n_i^2 \quad (7.4)$$


Turli tipdagi elektro'tkazuvchanlikka ega yarimo'tkazgichlar orasida kontakt hosil qilinganda elektronlar va kovaklar kontsentratsiyalarini katta gradienti hosil qilinadi. Natijada  $n$  soxadan  $p$  soxaga elektronlarni va  $p$  soxadan  $n$  soxaga kovaklarni diffuziyasi boshlanadi. Diffuzion oqimlarni yo'zaga kelishi zaryadlarni ajralishiga, natijada,  $p - n$  o'tishga tegib turgan  $n$  soxa tomonda musbat xajmiy zaryad,  $p$  soxa qismida manfiy xajmiy zaryad paydo bo'ladi. (7.3,b,v-rasm) Bu xajmiy zaryadlar kontakt soxasida  $n$  soxadan  $p$  soxaga yo'nalgan va zaryad tashuvchilarini xarakatiga qarshilik qiladigan kuchli elektr maydon hosil qiladi. Natijada butun yarimo'tkazgich uchun Fermi satxlari tenglashadigan xolat, ya'ni

muvozanat xolat o'rnataladi, elektr maydon bo'lган о'tish soxasida esa energiya zonalari egiladi. Zonalarni egilishi zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasini qayta taqsimlanishini sodir qiladi(7.3,d-rasm) va  $p - n$  о'tish soxasida elektrostatik potentsial o'zgarishini vujudga keltiradi(7.3,e-rasm). 7.3-rasmda elektron va kovakli yarimo'tkazgich kontaktida aralashmalar taqsimoti, zaryadlar ajralishi va elektr maydonni hosil bo'lishi, xajmiy zaryadni taqsimlanishi, zonaviy tuzilishi, elektronlar va kovaklar taqsimlanishi, elektrostatik potentsial o'zgarishi keltirilgan.



**7.3-rasm.**

7.4-rasmdan k o'rinyaptiki, asosiy zaryad tashuvchilar kontakt orqali o'tganda  $e\varphi_k$  balandlikdagi potentsial barerni engishi kerak.



**7.4-rasm.**

Noasosiy zaryad tashuvchilarni o'tishi  $p - n$  о'tishni elektr maydoni ta'sirida amalgal oshadi. Termodinamik muvozanat sharoitida asosiy zaryad tashuvchilarni

$j_{0p}$  va  $j_{0n}$  diffuziyaviy toklari noasosiy zaryad tashuvchilarni  $j_p$  va  $J_n$  dreyf toklari bilan tenglashadi va yig'indi tok nolga teng bo'ladi.

Faraz qilaylik,  $W_p$ -elektronlarni elektronli yarimo'tkazgichdan chiqish ishi,  $W_n$ -elektronlarni kovakli yarimo'tkazgichdan chiqish ishi. U xolda termodinamik muvozanat sharoitida  $p - n$  o'tishda potentsial tusiq kattaligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$e\varphi_k = W_p - W_n = (\chi - E_c + F_p) - (\chi - E_c + F_n) = F_p - F_n \quad (7.5)$$

Donor va aktseptor aralashmalar t o'liqk ionlashgan bo'lsa,

$$e\varphi_k = E_g - kT \ln \frac{N_g}{N_a} - kT \ln \frac{N_c}{N_d} \quad (7.6)$$

$n_i^2 = N_c N_g e^{-E_g/kT}$  xisobga olamiz va

$$e\varphi_k = kT \ln \frac{n_n p_p}{n_i^2} \quad (7.7)$$

yoki

$$\frac{p_n}{p_p} = \frac{n_p}{n_n} = e^{-e\varphi_k/kT} \quad (7.8)$$

Demak, yarimo'tkazgichni  $p$  va  $n$  soxalari qanchalik kuchli legirlangan bo'lsa,  $p - n$  o'tishda kontakt potentsiallar farqi shuncha katta bo'ladi.

$p$  soxa  $n$  soxaga nisbatan kuchli legirlangan bo'lsa,  $p_p >> n_n$  va natijada past omli kovakli soxani xajmiy zaryad qatlamin qalinligi  $L_p$  elektronli soxani xajmiy zaryad qatlamin qalinligi  $L_n$  dan kichik bo'ladi(7.3,v-rasm), butun xajmiy zaryad soxasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$L_0 = L_n + L_p \quad (7.9)$$

$-L_p \leq x < 0$  intervalda xajmiy zaryad manfiy bo'lib, aktseptor aralashma ionlari kontsentratsiyasi bilan aniqlanadii:

$$\rho = -eN_a^- = -ep_p \quad (7.10)$$

va bu soxa uchun Puassoni tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{d^2\varphi}{dx^2} = \frac{ep_p}{\epsilon\epsilon_0} \quad (7.11)$$

Bu xolda chegaraviy shartlar:

$$\varphi(-L_p) = 0 ; \quad \left. \frac{d\varphi}{dx} \right|_{x=-L_p} = 0 \quad (7.12)$$

$$\varphi(L_n) = \varphi_k ; \quad \left. \frac{d\varphi}{dx} \right|_{x=L_n} = 0 \quad (7.13)$$

Bu shartlarga quyidagi ko'rinishdagi  $\varphi$  bo'yysunadi

$-L_p \leq x < 0$  da

$$\varphi_p = \frac{ep_p}{2\epsilon\epsilon_0} (L_p + x)^2 \quad (7.14)$$

$0 < x < L_n$  da

$$\varphi_n = \varphi_k - \frac{en_n}{2\epsilon\epsilon_0} (L_n - x)^2 \quad (7.15)$$

$x=0$ da potentsial (7.3,e-rasm) va uni hosilasi uzluksiz, shuning uchun,

$$\varphi_p(0) = \varphi_n(0) \quad (7.16)$$

$$\frac{d\varphi_p}{dx} \Big|_{x=0} = \frac{d\varphi_n}{dx} \Big|_{x=0} \quad (7.17)$$

(7.17) shartni (7.14) va (7.15) ifodalarga qo'ullaymiz, natijada

$$n_n L_n = p_p L_p \quad (7.18)$$

ifodaga ega bo'lamiz.

Demak, yarimo'tkazgichni  $p - n$  o'tishga tegib turgan xar ikkala soxasida xajmiy zaryadlar teng. Bu elektroneytrallikni saqlanish sharti xisoblanadi.

(7.18) tenglamadan quyidagi munosabatlarni olamiz:

$$\frac{L_n}{L_0} = \frac{p_p}{n_n + p_p}; \quad \frac{L_p}{L_0} = \frac{n_n}{n_n + p_p} \quad (7.19)$$

Bu munosabatlardan foydalanib, (12.16) ifoda asosida

$$\varphi_k = \frac{e}{2\epsilon\epsilon_0} (n_n L_n^2 + p_p L_p^2) = \frac{e}{2\epsilon\epsilon_0} L_0 \frac{n_n p_p}{n_n + p_p} \quad (7.20)$$

Bundan,  $p - n$  o'tishni xajmiy zaryad qatlamini to'la qalinligi uchun ifoda olamiz:


$$L_0 = \sqrt{\frac{2\epsilon\epsilon_0}{e} \varphi_k \frac{n_n + p_p}{n_n p_p}} \quad (7.21)$$

Bu formuladan ko'rrib turibdiki, yarimo'tkazgichni legirlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, xajmiy zaryad soxasini qalinligi shuncha kichik bo'ladi. Agar soxalardan biri boshqasiga nisbatan kuchli legirlangan bo'lsa, elektrostatik potentsial tushivini katta qismi yuqoriomli soxaga to'g'ri keladi. (7.3,e-rasm)

Elektron-kovak o'tish yuqori solishtirma o'tkazuvchanlikka ega soxalar orasida joylashgan, past solishtirma o'tkazuvchanlikka ega qatlam xisoblanadi, shuning uchun bu tuzilmani kondensator sifatida tasavvur qilish mumkin va uni sigimi quyidagicha bo'ladi:

$$C = \frac{\varepsilon \varepsilon}{L_0} = \sqrt{\frac{e \varepsilon \varepsilon_0}{2 \varphi_k} \frac{n_n p_p}{n_n + p_p}} \quad (7.22)$$

To'g'ri yo'nalishda tashqi  $V$  kuchlanish berilgan, ya'ni elektronli yarimo'tkazgichga manfiy, kovakli yarimo'tkazgichga musbat potentsial berilgan  $p - n$  o'tishni ko'raylik (7.5,b-rasm).



### 7.5-rasm.

O'tishni xajmiy zaryad soxasini qarshiligi katta bo'lgani uchun kuchlanish tushuvi asosan bu qatlamda sodir bo'ladi. Buning natijasida potentsial barer balandligi muvozanat xoldagiga nisbatan  $eV$  ga pasayadi, shu bilan birga berkituvchi qatlam qalinligi ham o'zgaradi(7.5,a-rasm).

Berkituvchi qatlam qalinligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$L_0 = \sqrt{\frac{2 \varepsilon \varepsilon_0 (\varphi_k - V)}{e} \frac{n_n + p_p}{n_n p_p}} \quad (7.23)$$

Potentsial barerni pasayishi asosiy zaryad tashuvchilar oqimiini ortishiga olib keladi, katta miqdorda  $n$  soxadan  $p$  soxaga elektronlar,  $p$  soxadan  $n$  soxaga kovaklar o'tadi, o'tish orqali noasosiy zaryad tashuvchilar oqimii deyarli o'zgarmaydi. Buning natijasida tashqi zanjirda asosiy va noasosiy zaryad tashuvchilar toklarini farqiga teng,  $p$  soxadan  $n$  soxaga yo'nalgan tok oqadi(7.5,b-rasm),ya'ni


$$j = j_{ac} - j_{noac} \quad (7.24)$$

$n$  soxada hosil bo'lgan ortiqcha noasosiy zaryad tashuvchilar  $-\Delta p$  kovaklar kontakt yaqinida musbat xajmiy zaryad hosil qiladi. Lekin, relaksatsiya vaqt bilan aniqlanadiigan juda qiska vaqtidan keyin bu zaryad  $n$  soxada asosiy zaryad tashuvchilar-elektronlarni xajmiy zaryadi bilan kompensatsiyalashadi, bu elektronlar esa  $\Delta n$  miqdoricha ortiqcha  $\Delta p$  kovaklar hosil qilgan elektr maydon ta'sirida  $n$  soxa chuqurligidan tortiladi,  $n$  soxaga elektronlar tashqi zanjirdan kiradi.

Shunday qilib, elektronli yarimo'tkazgichni hama soxalarida elektroneytrallik kuzatiladi, lekin, kontaktoldi soxasida elektronlar va kovaklar kontsentratsiyasi muvozanat xoldagiga nisbatan  $\Delta n = \Delta p$  miqdorga ortadi.  $p - n$  o'tishga to'g'ri kuchlanish berish natijasida yarimo'tkazgichga noasosiy zaryad tashuvchilarini kelishi **injektsiya** xodisasi deyiladi.  $p - n$  o'tishga beriladigan to'g'ri kuchlanishni ortishi bilan injektsiyalanadigan noasosiy zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi ortadi, bu esa kontakt oqkali to'g'ri yo'nalishda tokni kuchli o'sishiga olib keladi.

Agar tashqi kuchlanish teskari yo'nalishda, ya'ni elektronli yarimo'tkazgichga musbat, kovakli yarimo'tkazgichga manfiy potentsial berilsa, potentsial tusiq ko'tariladi va berkituvchi qatlam qalinligi ortadi. Tashqi teskari kuchlanish qancha kuchli bo'lsa, shuncha oz miqdorda asosiy zaryad tashuvchi potentsial tusiqni engib o'ta oladi.

Natijada, kontaktoldi soxasida asosiy zaryad tashuvchilar miqdori muvozanat xolatdagiga nisbatan kamayadi, shu bilan birga elektroneytrallik buzilmasligi uchun noasosiy zaryad tashuvchilar miqdori ham kamayadi. Bu hodisa zaryad tashuvchilarni ekstraktsiyasi deyiladi. Demak,  $p-n$  o'tishga teskari kuchlanish berilganda asosiy zaryad tashuvchilar toki muvozanat xolatdagiga nisbatan kichik bo'ladi, noasosiy zaryad tashuvchilar toki o'zgarmaydi. Shuning uchun  $p-n$  o'tish orqali yig'indi tok  $n$  soxadan  $p$  soxaga yo'nalan va teskari kuchlanish ortishi bilan uncha katta bo'limgan miqdorga ortib, keyin to'yinish toki deb ataladigan tok qiymatiga intiladi. Demak  $p-n$  o'tish nochizikli volt-amper xarakteristikaga ega. (7.6-rasm)



**7.6-rasm.**

## VIII-BOB. Segneto va pezoelektriklar, elektretlar.

### 8.1. Segneto va pezoelektriklar, elektretlar.

Cegnetoelektriklar dielektriklarni bir turi bo'lib, ularda qutblanganlik maydon kuchlanganligiga nochiziqli bog'liq bo'ladi, buning sababi, ularda elektr domenlarni mavjudligidir. Elektr domenlar- o'z-o'zidan (spontan) qutblanishli, kuchli elektr maydon soxalari ( $10^{-2} - 10^{-4} \text{ cm}$  tartibida).

Segnetoelektriklar segnet to'zi  $\text{NaKC}_4\text{H}_4\text{O}_6\text{4H}_2\text{O}$  nomidan olingan. Segnetoelektrik hossalar birinchi marta segnet tuzi kristallarida ko'zatilgan. Segnet tuzi xususiyatlari akademik I.V. Kurchatov va P.P. Kobeko ishlarida bat afsil o'rganilgan.  $\text{BaTiO}_3$  bariy metatitanat eng ko'p tarkalqan segnetoelektrik xisoblanadi. Bu moddada segnetoelektrik xususiyat borligi 1944 yilda akademik B.M. Vul tomonidan aniklanqan. Yukoridagi moddalardan tashqari 290 ta birikma va 1500 ga yaqkin material-qattiq qotishmada segnetik a antisegnetoelektrik xususiyat borligi aniklangan.

Antisegnetoelektriklarda spontan qutblanish ikkita yoki undan ko'p reshetskarda yo'zaga keladi, xar bir domen ichida elektr momentlarni o'zar o kompensatsiyasi kuzatiladi, natijada natijaviy spontan qutblanish nolga teng bo'ladi.

Segnetoelektrik hossalar paydo bo'lishi uchun kristall tuzilishida inertsiya markazi bo'lmasligi va xech bo'limganda bitta noekvivalent yo'nali sh bo'lishligi zarur. Segnetoelektriklarni ba'zan, ferroelektrlar deyiladi. Buning sababi shuki, ferromagnitlardagi domenlar kabi segnetoelektriklarda ham domenlarning katta spontan (o'z-o'zidan) qutblangan soxalarning (tashqi elektr maydon bo'limganida ham elektr dipollarni tartiblangan katta elektr momentlari bo'lgan soxalarning) bo'lishligidir. Segnetoelektriklar uchun maxsus Kyuri nuqtalari deb ataladigan  $T_k$  temperaturalar mavjud. Bu nuqtadan yuqori temperaturalarda segnetoelektrik xolat (domenlar) buziladi, chunki bu xolda issiqlik tebranishlari amplitudasi elektr dipollarni tartibli joylashishiga yul bermaydigan darajada ortib ketadi. Past temperaturalarda segnetoelektrik bo'lgan qattiq jism Kyuri nyqtasi  $T_k$  dan yuqori temperaturalarda paraelektrik xolatga o'tadi.

